



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN


1991-yildan
chiqa boshlagan

2020-yil. 5-son.

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

Adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskani



Dolzarb mavzu

Ilmiy matn va termin

6
bet



Dars – muqaddas

“Dunyo degan shundayin
anglab bo‘lmas sir ekan”

18
bet



Tadqiqotlar

Qo‘shma so‘zlar imlosi
bobida ayrim mulohazalar

35
bet



Из опыта преподавателя

Комплексный подход
к обучению чтению

62
bet

Ushbu sonda

GRAMMATIK TOPISHMOQLAR

Unda bor ikki ma'no,
Husnkor-u'serjilo.
Biri – mag'zini chaqar,
Biri – aqlni charxlar.
Qani aytgin-chi, Ra'no,
Ular qandayin ma'no?
(Lug'aviy va grammatik ma'no)

Yo'qdir atash ma'nosi
Kengdir ko'ngil daryosi.
O'zgalar ishin qilar
Buni sharaf deb bilar.
Barchaga ko'p yelkadosh,
Bu so'z turkumi ... *(olmosh)*

Bor ekan olti o'g'lon,
Har ishda mard-u maydon.
So'zlarida bor ma'no,
Nimlari ulug' a'lo.
Savolga javob bo'lar,
Ular qandayin so'zlar?
(Mustaqil so'zlar)

Lug'aviy ma'nosi yo'q,
Xafa bo'lar, qilmang do'q.
Ammo zo'r vazifani
Bajarishin bilmaydi.
Maqtovlarni eshitib,
To'rtalasi jilmaydi.
Qani toping, bolalar,
Ular qandayin so'zlar?
(Alohida so'zlar)

Shaxs, narsa hamda buyum,
Joy nomlarin bildirar.
Kim?, nima?, qayer?
So'rog'iga javob bo'lar.
Ishida bor unumi,
Bu qaysi so'z turkumi?
(Ot so'z turkumi)

Bir turdagi narsalar
Hamda buyum nomini
Bildirib kelar doim,
Har kun so'zlashar oyim.
Qishlog, choynak, daraxt,
Duch keladi hamma vaqt.
Bilasizmi, qanday ot,
Qani, javob ber, Hayot. *(Turdosh ot)*

Ayrim shaxs, narsalarga,
Buyuk, qadim joylarga
Atab qo'yilar bu nom.
Qanday ot, aytgin, ilhom! *(Atoqli ot)*

Kitob, gazeta, jurnal,
Kinofilm, binolar,
Atalsa, qo'yilsa nom,
Qanday belgi qo'yilar?

Top-chi, qadrdon o'rtoq,
Bu belgidir... *(qo'shtimoq)*

Otlarga qo'shiladi,
Bu esa seziladi.
Avvalgi, so'nggi so'zni
Tobelantirib bog'lar.
Siz kabi bolalarni
Sergak bo'lishga chorlar.
O'ylab toping, bolalar,
Bu qanday qo'shimchalar?
(Kelishik qo'shimchalari)

Bahodir-u pahlavon,
Qo'ymas yovni sog'-omon.
Bordir oltita o'rtoq,
Juda ahil va inoq.
Qo'l uzatar do'stlarga,
Hamohang kam-ko'stlarga,
Nomin aytgin-chi, Malik,
Ular... *(olti kelishik)*

Gar egalik qo'shimchasin,
Qabul qilgan bo'lsa ot.
O'zidan avvalgi otdan ne
Talab qilar shu zahot?
(Qaratqich kelishigida kelishni)

Shahri, zahri, o'g'lida
Tilagi, qaymog'ida,
Obro'yim, mavqeyimda
Bo'ldi qanday o'zgarish,
Qiyin emasdir topish. *(Tovush tu-*
shish, tovush almashish, tovush or-
tish hodisasi)

-m, -im, -miz, -imiz,
-ng, -ing, -ing, -ingiz,
-si, -i, -lar(i)
Uch shaxs qo'shimchalari.
Qanday nomlanar ular,
O'ylab toping, bolalar.
(Egalik qo'shimchalari)

Ur-yiqit, keldi-ketdi,
Shuningdek, oldi-sotdi.
Bu qaysi so'z turkumi
Va uning qanday turi?
(Ot, juft otlar, sof fe'ldan yasalgan)

Soykeldi, Tolmozor, Uchko'prik,
Diqqat qiling qilmay sho'xlik.
Qanday otlar, yodga oling,
Bilimingiz ishga soling. *(Qo'shma ot-*
lar: 1) ot+fe'l; 2) ot+ot; 3) son+ot)

Kuch-quvvat, ozig-ovqat,
Qay ma'no-munosabat?
(Sinonim so'zlar)

BMT, FDU, O'z MU
Qanday so'zlar ekan bu?
(Qisqartma otlar)

Ikkinchi qismi agar,
Atoqli ot bo'lsa,
Qo'shma otlar unda
Ayting, qanday yozilar?
(Ajrati: Quyil Chirchiq)

Ikki va undan ortiq
Asosdan tashkil topsa
Va turdosh otlar bo'lsa,
Ular qanday yozilar,
Javobin kimlar bilar?
(Qo'shib yoziladi: gulbeor)

Ikkinchi qismi faqat
Turdosh otdan iborat
Bo'lgan atoqli otlar
Ayting, qanday yozilar?
(Qo'shib yoziladi: Yangiyo'l)

Qorqiz, Qorbobo, Qorxat,
Toshkent – chiroyli poytaxt.
Ostiga chizilgan so'z
Qanday so'z, aytingchi siz?
(Qo'shma otlar)

Behruzbek – zukko, chaqqon,
Onasiga xo'p yoqqan.
Do'stlariga madadkor,
Omad bo'lsin unga yor.
To'ldiruvchi bormi, ayting,
Shoshilmay o'ylab toping.
(Onasiga, do'stlariga, unga)

Qaratqich hamda tushum
Kelishiklari kelsa.
Xususiylik, aniqlik
Ma'nosini bildirsa.
Ayting, qanday yozilar,
Qandayin ishlatilar? *(Belgili ishlatila-*
di: uyning eshigi, xatni o'qimoq)

Umumiylik, noaniqlik
Ma'nosini bildirsa-chi,
Qaratqich hamda tushum,
Qanday yozilar, ayt-chi? *(Belgisiz:*
shahar ko'chasi, olma yemoq)

-liq, -lik, -inch – qo'shimcha,
Ot yasovchi qo'shimcha.
Ayting, bu qo'shimchalar
Yasaydi qanday otlar?
(Mavhum otlar: borliq...)

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 5-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Qozoqboi YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRQURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar Namozova
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.
Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 25.05.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₈. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Times" garniturasi. 10, 11 kegl. "SANO-STANDART" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroq ko'chasi.
Buyurtma 136/C Adadi 4100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

Я ПЕРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

	MUNDARIJA	
	TILSHUNOSLK	
Nizomiddin MAHMUDOV. Ilmiy matn va termin	DOLZARB MAVZU	3
Nusratullo JUMAXO'JA. Davlat tiling nufuzi va mavqeyi: uni tubdan oshirishda qanday dolzarb muammo va to'siqlar mavjud?	METODIK TAVSIYA	6
Saodat KAMBAROVA. Nutq o'stirishda tizimli yondashuv		9
Valijon QODIROV, Yaxyaxon UMAROVA. Ona tilidan fanga oid umumiy kompetensiyalar tizimida pragmatika masalalari		11
Marjona JUMANOVA. Badiiy adabiyotda pleonazm hodisasining qo'llanilishi		13
Zulxumor MIRZAYEVA. Shekspirdan Navoiyga: mutafakkir ijodiga yangicha yondashuv	DARS - MUQADDAS	14
Rayxon RASULOVA. "Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan"		16
Jamila MAHMUDOVA. Sonlarning ma'no guruhlari		18
Sotiboldi ODILOV. Tasviriy ifoda mavzusini o'rganish	ILC'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	19
Nodira ABDULLAYEVA. Dars samaradorligini ta'minlovchi vositalar		21
Muhayyo KENJAYEVA. Lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda o'yin elementlaridan foydalanish		22
Bobomurod MIRSANOVA. Nemis tilida qo'shma otlarni vizual metodlar orqali o'rgatish	TAHLIL	23
Zamiraxon TO'XTABAYEVA. Til transferensiyasi va uning turlari		24
Tojixon SOBITOVA. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda xalq og'zaki ijodining o'rni		26
Olimjon JUMABOYEV. Rassom ruhiyati va rang-tasvir uyg'unligi		27
Ijobat SAYMURATOVA. Romanda majoziy tasvir va ruhiy iztiroblar talqini		29
Aysafur MURTAZAYEVA. Ingliz tilida texnikaga oid terminlarni o'rgatishning lingvistik asoslari	TADQIQOTLAR	31
Nodira ADIZOVA. Buxoro tuman toponimlari tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari		33
Atabek JUMANIYOZOV, Nafisa POLVANOVA, Feruza ALLABERGANOVA. Qo'shma so'zlar imlosi bobida ayrim mulohazalar		34
Erkin MUSURMANOV. Yerkent xonligi adabiy muhiti va uning mashrabshunoslikda tutgan o'rni		36
Otabek YO'LDOSHEV. Texnolog sivilizatsiya va ta'lim-tarbiya	KICHIK TADQIQOT	38
Dilnoza JUMAYEVA. "Yusuf va Zulayho" dostonlaridagi mavzu rang barangligi		40
Ixtiyor ERMATOV. Tilshunoslik terminologiyasida gipero-giponimik hodisalar		41
Nilufar CHO'LIYEVA. Yangi o'zbek qissalarida qahramon masalasi		43
Elmira HAZRATQULOVA. "Tarixi Rashidiy" asari adabiy manba sifatida		44
Yulduz JO'RAYEVA. "U mendirman, men esa udir"		45
Dilnoza QURBONOVA. Bag'rikenglik kompetensiyasini shakllantirish		47
Manija VAHRIYEVA. Siyosiy tizimni modernizatsiyalashda ommaviy kommunikatsiyalarning roli	ILCHIIY UCHITEL' FILOLOGI - 2020	48
Shoira MASHARIPOVA. Мы перед ними в неоплатном долгу		49
Артур ТЕН. А.Т.Твардовский «Василий Теркин»		50
Дилором АБДУЛЛАЕВА. Обучение в командах достижения как один из методов кооперативного обучения	МЕТОДИКА, ОПЫТ	52
Альмира АБУТАЛИПОВА. Узбекская литература второй половины XX-начала XXI века. Обзор литературного процесса. Саид Ахмад. «Бунт невесток»	ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	54
Эльвира АЛИЕВА. Инновационные интерактивные и активные педагогические методы на занятиях по синтаксису русского языка в вузе		56
Инобат ТУРСУНОВА. Возможности русского языка в нравственном воспитании молодого поколения (обучая воспитывать)	ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	58
Наргиза ШАРИПОВА. Уделить внимание литературе – значит уделить внимание будущему и духовности		60
Чарос АБДУЛЛАЕВА. Лингвокультурная сущность фразеологических единиц (ФЕ) с цветообозначением и их национально-культурная специфика в английском, русском и узбекском языках		61
Светлана ЯРЦЕВА. Комплексный подход к обучению чтению	ЯЗЫКОЗНАНИЕ	62
Урал УСМАНОВ, Замира УСМАНОВА. Сопоставительный анализ компонентного состава неполных предложений с нулевым сказуемым		65
Ирода СИДДИКОВА. Общелингвистические и лексикографические проблемы синонимии в разностепенных языках		68
Раъно ТУРДИЕВА. Усвоение глагольно-именных словосочетаний с временными отношениями	ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	69
Ноиба ЮДАШЕВА. Контекст художественно-документальной прозы Светланы Алексиевич	НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	71
Евгений МАЛИНОВСКИЙ, Ирина ТКЕБУЧАВА. Замечания о старых и новых крылатых фразах в русском языке	ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ	73
Умида ПУЛАТОВА. Обучение основам письменной речи студентов-юристов		77
Манзура МИРСОЛИЕВА. Формирование читательских интересов на уроках литературы в условиях цифровизации образования	ПАМЯТНЫЕ ДАТЫ	78
Евгений БАСКАКОВ. «Здесь вы увидите кусочек восточной сказки...»		80

ADABIYOT, MA'RIFAT VA MADANIYAT MASKANI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-may kuni Adiblar xiyoboniga tashrif buyurib, bir guruh ijodkor-ziyolilar bilan uchrashdi.



Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyoboni o'zgacha qiyofada. Ilgari bu yerda sanoqli adiblarimizning haykallarini ko'rgan bo'lsangiz, endilikda esa Adiblar xiyoboni g'oyaviy-badiiy jihatdan yanada boyigan. Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy, To'lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli namoyandalar xotirasiga bag'ishlangan yangi yodgorlik majmualari ham qad rostladi. Hazrat Navoiy bobomizning muhtasham haykali atrofida 20 dan ziyod atoqli shoir va adiblarining haykallari yaxlit me'moriy va badiiy kompozitsiyada, mantiqiy yechim asosida joylashtirilgan. Bu yerdagi

Yozuvchilar uyushmasi binosi ham hamohanglik kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbari xiyobonda amalga oshirilgan ishlar va yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirar ekan, "Bu joy xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbiga adabiyotni, u orqali, ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatni olib kiradigan tabarruk dargoh bo'lishi lozim", – deb ta'kidladi. Jumladan, adiblarimizning asarlarini xorijiy tillarda nashr etishda Yozuvchilar uyushmasi tashabbuskor bo'lishi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan birgalikda o'zbek adabiyotining eng sara namunalarini turli tillarga tarjima qilib, nashr etishi zarurligi qayd etildi. Har bir adib haykali qoshida ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha oliy o'quv yurtlariga tavsiyalar berildi. Shuningdek, Prezidentimiz xiyobon bilangina cheklanib qolmasdan, adiblar ijodini chuqur o'rganish, ularning ibratli umr yo'llari haqida kitoblar va filmlar yaratish, yangi asarlar yozish muhimligi, xususan, "Adiblar xiyoboni" deb nomlangan internet portali tashkil etish taklifini bildirdi. Mumtoz va zamonaviy asarlarning elektron nusxalari, yozuvchi va adabiyotshunoslarning mahorat saboqlari jamlanadigan portal o'zbek, ingliz va ruz tillarida faoliyat ko'rsatsa, undan xorijliklar ham foydalanish imkoniyati yaratilishini ta'kidladi.


Shundan so'ng, prezident Adiblar xiyoboni yonida tashkil etilgan yangi Toshkent shahri muzeyi bilan ta-nishdi.



Yunusobod tumanidagi 302-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Munavvar Murodova o'quvchilar qalbiga yo'l topib, ularning o'z iqtidorini namoyish qilishlariga ko'maklashib kelayotgan o'qituvchilardan. U bugungi kunda ham o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida "Yosh adabiyotchilar" to'garagini masofaviy shaklda olib bormoqda.

2019–2020-o'quv yili yakunlandi

Xabaringiz bor, yurtimizda karantin joriy etilishi munosabati bilan darslar masofaviy shaklda olib borildi. Online-maktab loyihasi doirasida jami 3900 dan ziyod videodarslar olin-di, ular uchta telekanal va internet tarmog'i orqali namoyish etildi. Yaqinda ushbu loyihaning yakuniga bag'ishlangan tadbir Toshkentdagi Prezident maktabi binosida bo'lib o'tdi. Unda Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatov tomonidan loyihaning ikkinchi bosqichida ishtirok etgan tashabbuskor va ijodkor o'qituvchilarning 13 nafari "Xalq ta'limi fidoyisi", 31 nafari "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, 92 nafar fidoyi o'qituvchi, shuningdek O'zMTRK xodimlari faxriy yorliq va tashakkurnoma bilan taqdirlandi.



Muxlisa Do'stmuhamedova tayyorladi.



Nizomiddin MAHMUDOV,

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori,
filologiya fanlari doktori, professor

ILMIY MATN VA TERMIN

Kishilik jamiyati o'zini tanigan qadimul-ayyomdan anglab yetgan oddiy va oliy haqiqat shuki, odam tamaddun taomiliga sohib bo'lmog'i uchun olam taomilining sinoatlaridan boxabar bo'lmog'i lozim. Olam taomilining inkishofi esa ilm-fan atalmish murakkab va muntazam faoliyat mahsulidir. Shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini fan taraqqiyotidan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan tarixiy nutqida shunday degan edi: **"Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan ko'plab yangi tushuncha, so'z va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarining o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi"**¹. Ana shu dolzarb vazifaning ijrosi doirasida o'zbek tilidagi ilmiy matn tarkibida terminning o'rni va takomili muammosi tadqiqi ayriча ahamiyat kasb etadi. Shubhasizki, ilmiy matn va termin tanosibi masalasi ayni paytda o'rta ta'limda ham, oliy ta'limda ham jiddiy ahamiyatga molik.

Avvalo, "matn" ("tekst") terminining mazmuniy talqiniga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. Chunki ilmiy amaliyotda ba'zan uning mazmuniy mohiyatini faqat yozma nutq bilan cheklash ko'zga tashlanadi. Buni o'zbek tilshunosligida ham kuzatish mumkin. O'zbek tilining izohli lug'atida "matn" so'zining quyidagi ikki ma'nosi izohlangan: "Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi"².

Albatta, lug'atda bu so'zning terminologik ma'nosi nazarda tutilmagandir, ammo uni inobatga olish joiz edi. Matn tilshunosligiga oid ayrim tadqiqotlarda ham ba'zan "...matn nutqiy hodisaning yozilgan ("bosma harf orqali aks etgan") parchasidir", "Nutq" o'zining yozma shaklida "matn" atamasiga teng keladi", "Har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasining mohiyatini ifoda etadi"³ qabilidagi munozarali fikrlarni o'qish mumkin. Shuningdek, rus va boshqa tilshunosliklarda ham shunday holat ko'zga tashlanadi. Masalan, rus tilshunosi I.R.Galperinning talqinicha, matn ("tekst") yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir.⁴ Ammo dunyoda matn lingvistikasi muammolari bilan shug'ullangan mutaxassislarning aksariyati matnning yozma ham, og'zaki ham bo'laverishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bu tilshunoslarning tadqiqotlarini jiddiy tahlil qilgan M.Yo'ldoshev matn talqini bo'yicha quyidagi haqqoniy xulosaga kelgan: "...Matnni gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur, mazmuniy va kom-

munikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik sifatida, til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq"⁵.

Ilmiy matnni, odatda, terminlarsiz, muayyan ilmiy sohaga mansub terminlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har qanday kishiga, xususan, nomutaxassisga ham besh qo'lday ma'lumki, termin aynan ilmiy matnda o'zining bor bo'yi, butun mohiyati, unga ibtidoan maxsus bo'lgan xususiyat va imkoniyatlarini baralla namoyon etadi. Shuning uchun ham deyarli barcha tilshunosliklarda keng e'tirof etilgan qarashlarga ko'ra "yuksak darajadagi terminlashganlik (terminlar bilan to'yintirilganlik) ilmiy uslubning xarakterli belgisi bo'lib, termin – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga oid tushunchani ifodalaydigan so'z yoki so'z birikmasidir"⁶.

Termin muammolari bilan bog'liq ishlarning deyarli barchasida termin mohiyatiga daxldor belgilardan biri sifatida uning bir ma'noliligi hamisha qayd etiladi. Terminning bu xususiyati, tabiiyki, termin mansub bo'lgan sistema tarkibida o'zini namoyon etadi. Ammo termin o'zi mansub bo'lgan sistemadan tashqarida mazkur xususiyatini to'laligicha namoyon eta olmaydi. Shuning uchun ham ayrim mutaxassislar terminlarning ko'p ma'nolilik xususiyatini ham kasb etadigan real nutqiy sharoitlarni hisobga olgan holda ularga xos bo'lgan bir ma'nolilik belgisiga egaligini mutlaq holat deb qaramaslik maqsadga muvofiqligini qayd etar ekan, "terminologik leksikaning ayni shu xususiyati ko'p hollarda ularning maxsus sohalardan tashqarida tasviriy vositalar tizimiga jalb qilinishiga imkon berishi"ni ta'kidlash muhimligini aytadilar, terminning bir ma'noliligi va emotsional-ekspressivlikdan mahrumligi faqat maxsus tizim ichidagina ekanligini ta'kidlaydilar.⁷

Ta'kidlash joizki, terminlar, avvalo, ilmiy uslubga xos bo'lishiga qaramasdan, ular boshqa uslublarga ko'chi-shi ham mumkin, xususan, badiiy matnda ham faoliyat ko'rsatishi ko'p kuzatiladigan hodisadir. Ma'lumki, badiiy uslub alohida va o'ziga xos uslub hisoblansa-da, uning o'ziga xosligi tildagi boshqa vazifaviy uslublarning ham unda bemalol harakatda bo'laverishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham mutaxassislar badiiy nutqning ko'p uslublilikini alohida ta'kidlaydilar, bunda ilmiy va badiiy uslublarning o'zaro hamkorligi, bir-biriga o'tishi holatlarini tahlil qiladilar.⁸ O'zbek tilshunosligida terminologik leksikaning badiiy nutqdagi o'rni masalasini ilmiy tadqiq etish boshqa tilshunosliklarga qaraganda ancha ilgari boshlangan, 1984-yilda o'zbek tilshunosi H.Shamsiddinov bu muammoni nomzodlik dissertatsiyasi doirasida batafsil o'rgangan.⁹ Keyingi yillarda boshqa, xususan, rus tilshunosligida ham bu yo'nalishdagi tadqiqotlar yuzaga keldi.¹⁰

Ilmiy uslub va badiiy uslub o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, badiiy matnda turli terminlarning qo'llanishi va bunda ularning salmoqli badiiy-estetik qimmat kasb etishida yaqqol namoyon bo'ladi. Ana shunga ko'ra tadqiqotchilar

ilmiy til unsurlarining, terminlarning poetik so'z san'atiga olib kirilishi mutlaqo tabiiyligi, badiiy nutq o'z mohiyatiga muvofiq polistilistikligi, unda benihoya xilma-xil lisoniy vositalar sintezlana olishi mumkinligiga e'tiborni qarata-dilar.¹¹ Aytish mumkinki, badiiy matnda ilmiy terminlar ijodkorning turli badiiy-estetik niyatlariga muvofiq tarzda alohida qimmat (qahramon nutqini individuallashtirish, nutqiy xarakter yaratish, kinoya-yumor kabi) kasb qiladi. Quyidagi misolda tahlilsiz ham bu holatni kuzatish mumkin: *Jism-u jonimga desang, begona bo'lsin xastalik, Ishq zavq-u dardi birlan xastahol bo'lmoq kerak. Qalbga istarsan shifo gar, bo'l yomon so'zdan yiroq, Korvalol ichmoq kerakmas, kar va lol bo'lmoq kerak.* (E.Vohidov, "Qit'a").

Albatta, badiiy matnda ilmiy terminlar muammosi alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi, mustaqil, ko'lami lingvo-poetik va lingvokulturologik tadqiqot uchun mavzu bo'ladi.

Aytib o'tilganiday, terminning asosiy yashash va faoliyat maydoni ilmiy matndir, u ana shu maydonda tanosib va takomil topadi. Terminlarning ilmiy matndagi tanosibi haqida gapirganda, avvalo, tabiiy-aniiq fanlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibidagi terminlarning miqdoriy salmog'ini e'tibordan soqit qilmaslik lozim, tabiiyki, tabiiy-aniiq fanlardagi ilmiy tushunchalarning konkret-predmetlik xususiyatiga ko'proq egaligi, ijtimoiy-gumanitar fanlardagi tushunchalarning esa anchayin mavhumlik-umumiylik xususiyatiga ko'proq sohibligi, ularda ruhiy-ma'naviy jihatning ustuvorligini inobatga olmoq joiz. Shuning uchun ham ijtimoiy-gumanitar mavzudagi matnlarga qaraganda tabiiy-aniiq fanlar mavzularidagi matnlarda terminlar miqdori sezilarli darajada ortiq. Aytish mumkinki, bu ikki asosiy ilmiy fikr yo'nalishida terminlar miqdoran bir-biriga mutanosib emas.

Fan taraqqiy etib borar ekan, undagi ilmiy qarashlar o'zgaradi, takomil topadi, yangi tushunchalar, demakki, yangi terminlar paydo bo'ladi. Umuman, fan taraqqiyoti jarayonlarida yangi terminlar vujudga keladi, mavjudlari yangi qarashlar va metodlarga muvofiq takomillashadi yoki ayrimlari qo'llanishdan butunlay chiqib ketadi. Bunday jarayonlarni, hech bir istisnosiz, barcha fanlarda kuzatish mumkin. Masalan, atoqli o'zbek tilshunosi akademik A.Hojiyevning mazkur jarayonlarning sinchkov tadqiqotchisi sifatidagi quyidagi qaydlari alohida e'tiborga molik: "Bevosita o'zbek tili materiallaridan kelib chiqilsa, "yordamchi so'z" termini tarkibidagi "so'z" biron-bir hodisani qayd etish imkoniga ega emas. Chunki *ko'makchi, bog'lovchi, yuklama* deb ataluvchi til birliklariga xos vazifada faqat so'z emas, balki ifoda jihatidan affiks (qo'shimcha) ko'rinishida bo'lgan birliklar ham qo'llaniladi. O'zbek tilshunosligida bu fakt tan olingan va ular *ko'makchi affiks (qo'shimcha), bog'lovchi affiks (qo'shimcha), yuklama affiks (qo'shimcha)* terminlari bilan yuritiladi. Masalan, *-cha ko'makchi affiksi, -ki (-kim) bog'lovchi affiksi, -ku (bilasan-ku)* yuklama affiksi va boshqalar. Shunday ekan, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama haqida gap borganida, bu til birliklarining har ikki turi, ya'ni ifoda jihatiga ko'ra so'z va affiks shaklidagi turi hisobga olinishi shart. Shu bilan birga bu ikki holat uchun umumiy bo'ladigan, ya'ni "so'z" so'zi qo'llanilmaydigan terminni topish kerak bo'ladi. Qolaversa, bu uch til birligini ifodalovchi terminlarning "so'z" so'zsisiz (*ko'makchi, bog'lovchi, yuklama* tarzida) qo'llanishi ma'lum, ya'ni ularni "so'z" bilan qo'llash (*ko'makchi so'z* kabi qo'llash) talab etilmaydi. Bu fakt ham uchala til birligining umumiy xususiyatini ifodalay

oladigan ("so'z" so'zsisiz) termin topish va iste'molga kiritish shartligini ko'rsatadi"¹².

Mazkur qaydda terminning tushuncha mohiyati bilan tanosibidagi noqislik va uni bartaraf etish zaruriyati ta'kidlangan bo'lsa, olimning quyidagi qaydlarida bir tushuncha uchun ikki ("sath" va "bosqich") termin qo'llanishining nojoizligiga e'tibor qaratilgan: "O'zbek tilshunosligida "til (qurilishi) sathlari", "til (qurilishi) bosqichlari" terminlari qo'llanilayotgani ma'lum. Har ikkala termin aynan bir til hodisasiga nisbatan qo'llanadi. E'tibor bering: "Tilning qimmat jihatidan bir xil birliklarining yig'indisi lingvistik sath deb yuritiladi. Masalan, fonologik sath, morfem sath kabi" (A.Nurmonov va boshqalar). "Har bir til birligiga monand ravishda til qurilishining bosqichlari ajratiladi... Til qurilishi o'ta murakkab bo'lib, ular o'zaro bog'liq bir qancha bosqichlardan iborat. Til qurilishining biror bosqichini ajratish uchun uning o'ziga xos til birligi mavjud bo'lishi lozim" (Sh.Rahmatullayev). Sh.Rahmatullayev *sath* so'zi "o'zaro bog'liq sathlar" tushunchasini ifodalashga qodir emas" deb, uning o'rnida *bosqich* so'zini qo'llashni ma'qul ko'radi. Lekin bu so'z, bizningcha, nazarda tutilgan til hodisasini umuman qayd eta olmaydi"¹³.

Termin muammosi tadqiqotchilarining aksariyati fikriga ko'ra terminga falsafiy-gnoseologik yondashuvni e'tiborga olganda, terminlarning bilish faoliyati natijalarini qayd yetish, terminning yangi bilimlarni kashf etishda ishtirok yetish qobiliyati kabi belgilarni nazarda tutish maqsadga muvofiq. Zotan, termin – bilish, dunyo qonuniyatlarini anglab yetish natijasi, "fikr qaymog'i, mag'zining nomidir"¹⁴. O'tgan asrlar rus faylasufi P.A.Florenskiyning: "Fanning mohiyati terminologiyani tuzish yoki, aniqrog'i, joy-joyiga qo'yishdan iborat... Har qanday fan terminlar tizimidir. Shuning uchun terminlar hayoti fan tarixining o'zidir", degan gaplarida azaliy haqiqat o'z tajassumini topgan"¹⁵.

Terminlar taraqqiyoti tarixini fan tarixidan ajratib tasavvur etib bo'lmaydi, terminlarning tegishli tushuncha bilan rost tanosibi, ularning muntazam takomili har qanday fanning ilgariylash tamoyillari bilan uyqash. Buni barcha fanlardagi o'sish va o'zgarishlarda ko'rish mumkin. O'tgan asrning boshlarida bir qator dolzarb sohalar qatorida o'zbek tilshunosligi sohasida ham chinakam kashshoflik qilgan Abdurauf Fitratning termin va til ilmiga daxldor mulohazalari alohida diqqatga sazovor. Uning dastlabki nashri 1924-yilda amalga oshirilgan "O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba. Ikkinchi kitob: Nahv" asaridagi "O'qug'uchilarga" qismida aytilgan quyidagi fikrlar e'tiborga molik: "Biz til qoidalari ham uning atamallari (istilohlar) to'g'rusida ishlashning birinchi paytidamiz. Shuning uchun tilimizning qoidalari bu maydonga qo'yib, atamallari sobit bir holga keltirib olg'animiz yo'q. Bu to'g'ruda til muallimlarimiz ora birlashkan bir yo'l hanuz yo'qdir. Yoki boshlang'ich ishlarning hammasida ham shu holni ko'rmay chora yo'qdir. Tilimizning butun qoidalari aniqlab, atamallari maydong'a qo'yimoq uchun yana biroz tirishmagimiz, bir-birimizga ko'mak qilishimiz lozim... Ishonamanki, butun o'zbek muallim, muharrirlari (mualliflari) bundan keyin tilimizni tekshirarlar. Bizning kitoblarimizni muhokama qilib o'qurlar. Bunlarda qoidalar, atamalar, usullar to'g'rusida fikr yurgizilar; fikrlarini bizlarga ham yozarlar. Bizlar ularning fikrlari uzra yana ishlarmiz; yana tirishamiz. Mana shundan keyin tilimizning qoidalari, atamallari to'g'rusida foydali bir "ish" ko'rinishgan

bo'ladir. Mana undan keyin tilimizning qoidalari, atamaları sobit bir holg'a qo'yilgan bo'ladir"¹⁶. Bugungi o'zbek tilshunosligida dastlab Fitrat qo'llagan (yoki yasagan) "kesim", "ega", "kirish so'z", "olmosh", "qo'shma fe'l" kabi bir qator terminlar ishlatiladi. Ayni paytda Fitrat tomonidan qayd etilgan terminlar shakllanishining boshlang'ich pallasida qo'llangan ayrim terminlar tilshunosligimiz taraqqiyotining bugungi pallasida o'zgartirildi. Masalan, Fitratda: "unsiz" (142-bet) – bugun: "undosh"; Fitratda: "bosim" (145-bet) – bugun: "urg'u"; Fitratda: "sira son" (151-bet) – bugun: "tartib son"; Fitratda: "hol" (153-bet) – bugun: "ravish"; Fitratda: "turish belgilari" (177-bet) – bugun: "tinish belgilari"; Fitratda: "to'ldirg'ich so'zlar" (181-bet) – bugun: "ikkinchi darajali bo'laklar"; Fitratda: "kelishkanlik" (196-bet) – bugun: "moslashuv"; Fitratda: "eksik gap" (202-bet) – bugun: "to'liqsiz gap" va hokazo. Fitrat qo'llagan terminlarning bir qatori bugun yanada farqli shakllarda ishlatiladi. Tilshunoslik fanining o'sha davrdagi holati bilan mazkur fanning bugungi darajasi qiyoslanganda, terminlarning takomil darajasi til ilmidagi taraqqiyotning ko'lami va sifatidan, tilshunoslikdagi ilmiy qarashlarning nechog'liq yangilanib borayotganidan xolis guvohlik beradi.

Bugungi globallashtirilgan dunyoda fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyo tillarining deyarli barchasida ana shu taraqqiyotga muvofiq ravishda maxsus terminlarning miqdoran o'sib borayotganligi ham sezilarlidir.¹⁶ Shuning uchun ham boshqa tilshunosliklarda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham terminologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Terminologiya, xususan, turli bilim sohalariga oid terminlarni tartibga solish, terminning ilmiy matndagi tanosibi va takomili tamoyillarini tayin etish mazkur sharoitda yanada dolzarblik kasb etib bormoqda.

"Terminologiya" terminining o'zini olib ko'raylik. Mazkur termin, tadqiqotchilarning ko'rsatishlaricha, dastlab G'arbda XVIII asrlarda paydo bo'lgan, xususan, "terminologiya" so'zi Germaniyada birinchi marta professor Shyuts tomonidan 1786-yilda qo'llangan, ingliz tilida esa Katta Oksford lug'atidagi ma'lumotga ko'ra birinchi marta 1801-yilda qayd etilgan.¹⁷ Bu so'z termin sifatida bir necha tushuncha ifodasi uchun istifoda etilgan. Rus terminshunosi S.V.Grinevning qayd etishicha, rus tilshunosligida "terminologiya" termini yaqin uchta tushunchani ifodalash uchun qo'llanilgan: 1) "muayyan bilim sohasining terminlar tizimi"; 2) "tildagi terminlarning yaxlit jami"; 3) "terminlarni o'rganuvchi fan"; rus tilshunosligida 1989-yildan muayyan bilim sohasiga oid maxsus so'zlarning jamini "terminologiya" deb nomlash, terminlarni o'rganadigan fan nomini esa terminshunoslik ("терминоведение") deb atash barqarorlashdi.¹⁸ O'zbek tilshunosligida ham "terminologiya" va "terminshunoslik" terminlarini ana shu tarzda farqli tushunchalar ifodasi uchun qo'llash maqsadga muvofiq.

Shuni ham aytish kerakki, rivojlangan ilmiy terminologiya faqat 60 tacha tilda mavjud ekanligi va bu tillardagi terminologiya 300 ga yaqin kasbiy-predmet maydonini o'z ichiga olishi e'tirof etiladi¹⁹, holbuki, yer yuzida yetti mingga yaqin til borligi rasman qayd etilgan. Albatta, o'zbek tili ana shunday ilmiy terminologiyasi rivojlangan tillar sirasidan haqli ravishda joy olganligi sir emas. Ayni paytda o'zbek tilshunosligida ilmiy matnda terminning faol harakati va muntazam takomili jarayonlaridagi o'ziga xosliklar, terminning tushuncha ifodasi bilan uyg'unligi va ilmiy fikr bilan tanosibi tamoyillarining teran tadqiqi borasida izlanishlarga hali ehtiyoj katta.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2019-yil 22-oktabr.

²O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 557-bet.

³Hakimov M.X. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. n-di ...diss. – Toshkent, 1993. 17–18-betlar.

⁴Гальперин И.П. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – С. 18.

⁵M.Yo'ldoshev Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 57-bet.

⁶Владимирова Т.Л. Язык и стиль научного текста. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2010. – С. 8.

⁷Соловьева З.В. Проникновение терминологической лексики в общезыковое употребление (к вопросу о взаимодействии научного и публицистического стилей современного английского языка) / Функциональный стиль научной прозы. – Москва: Наука, 1980. – С. 165.

⁸Чаковская М.С. Взаимодействие стилей научной и художественной литературы. – Москва: Высшая школа, 1990. – С. 17–95.

⁹Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984.

¹⁰Немыка А.А. Метаязык лингвистики: научное и художественное представление: Дис. ... докт. филол. наук. – Орёл, 2015; Демидович Т.В. Семантико-стилистический и лингвокультурологический аспекты изучения военной лексики (на материале художественной литературы о Великой Отечественной войне): Дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015.

¹¹Баринаева Е. Е. Научный термин в современной художественной литературе (А.Битов, Н.Байтов, Л. Улицкая) // Критика и семиотика, 2015. Вып. 15. – С. 197–207.

¹²A.Hojiyev O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. 18-bet.

¹³O'sha manba. 13–14-betlar.

¹⁴Рябова Е.А. Теоретические аспекты изучения терминов / Вестник Московского государственного областного университета. Серия «Лингвистика». N2. – М.: Изд-во МГОУ, 2009. – С. 87.

¹⁵Кухно И.Ю. Терминология – семиотическая система "второго порядка" // Язык. Словесность. Культура, 2014. №4. – С. 41–55.

¹⁶A.Fitrat Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. 175–176-betlar. (Fitratga keyingi havolalarda matnda faqat ayni manbaning sahifasi ko'rsatiladi).

¹⁷Амитрова М.В., Гусарова Ю.В. и др. Специальная терминология и различные подходы к её классификации / XXI век: итоги прошлого и проблемы настоящего плюс. Серия: социально-гуманитарные науки. N01(23)/2015. Т. 2. – Пенза, ПензГТУ, 2015. – С. 179.

¹⁸Кухно И.Ю. Ko'rsatilgan maqola. 42–43-betlar.

¹⁹Гринева С.В. Введение в терминоведение. – Москва: Московский лицей, 1993.



Nusratullo JUMAXO'JA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori

DAVLAT TILINING NUFUZI VA MAVQEYI:

uni tubdan oshirishda qanday dolzarb muammo va to'siqlar mavjud?

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

ONA TILIMIZGA DAVLAT TILI MAQOMI
BERILISHI MUSTAQILLIKNING ILK G'A-
LABASI SIFATIDA QO'LGA KIRITILGANDI.
ZERO, MILLIY TILNING YUKSAK MAQOMGA
ERISHISHI, XALQNING ERKI, HUQUQI VA,
ALBATTA, DAVLAT MUSTAQILLIGI UCHUN
KURASH TARIXDA TUG' RAMZI SIFATIDA
MUHURLANADI.



ISH YURITISH QANDAY MAQOMDA?

O'zbek tili davlat tili maqomida bo'lgani-
dan keyin ish yuritish qanday maqomda
bo'lardi, davlat tili maqomida bo'ladi-da,
dersiz, hoynahoy. Ammo shu paytgacha
bunday bo'lmadi. Buning sababi ham
qonun ijrosi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganiga
borib taqaladi.

Hozirgacha ham ish yuritish hujjatlarining ko'pchiligi
o'zbek tiliga ko'chgani yo'q. Yaqingacha hamma hujjatlar
yuqoridan rus tilida keladi, deya shikoyat qilishardi idoraviy
hamkasblar. 15–20 yil mobaynida hujjatlarni o'zbek tilida ras-
miylashtirib olib borsak, rus-tiliga o'girib olib kelinglar, deb
qaytarishyapti, der edilar. Xo'sh, o'rta bo'g'indagi muhtaram
rahbarlarimizning bunday talab qo'yishlariga biror qonuniy
asos bormidi? Afsuski, bor edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi "O'zbekiston Res-
publikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunining yangi tahririni
amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi qarorining dastlabki mod-
dalari quyidagicha:

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

1. Yangi tahrirdagi "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Res-
publikasining Qonuni (9- va 10-moddalaridan tashqari) e'lon
qilingan kundan amalga kiritilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston
Respublikasi Qonunining 9- va 10-moddalari lotin yozuviga
asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tilgan paytdan, ya'ni
2005-yilning 1-sentabridan e'tiboran kuchga kiradi".

Anglashilayotirki, hamma gap Qonunning 9–10-moddala-
riga borib taqalmoqda. Xo'sh, u moddalarda nima deyilgan?

Mana, o'sha moddalar matni:

"9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida
ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga
tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat
tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anju-
manning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va
jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika
va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning
ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan
bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin".

Bugungi kunda ushbu moddalarni qayta mutolaa qilib,
mag'zini chaqib ko'rib, ularning amalga kiritilishini oz emas,
naqd o'n yil orqaga surishga nima zarurat bor ekan, asli shun-
doq Qonun e'lon qilingan kundan kuchga kiritib yuboraversa
bo'ladigan moddalar ekan-ku, deb o'ylab qolasiz. Haqiqatan
ham shunday. Ehtimolki, o'shanda Qonun kuchliroq, qat'iyat-
liroq, ustuvorroq bo'lardi.

Qonunni kuchga kiritish tartibi to'g'risidagi qarorda belgi-
langan mazkur moddalar amalini o'n yil orqaga surish muhla-
ti, aslida, davlat tilida ish yurita olmaydigan ayrim rahbarlarga
bu sohada malaka hosil qilishlari uchun berilgan qo'shimcha
imkoniyat bo'lsa, ajab emas. Lekin bu – o'n yilgacha davlat
tilida ish yuritishni o'rganmaslik, bilmaslik, Qonunga rioya qil-
maslik mumkin, degani emas edi. Aftidan, o'shanday shaxslar
yillar mobaynida hujjat ishlari tizimini rus tilida saqlashda, quyi
idoralardan hujjatlarni rus tilida talab qilishda shuni dastak
qilib oldilar va o'zlarining o'zbek tilini bilmasliklarini shu bilan
xaspo'shlab keldilar. Asl mohiyatda bu qonun hujjati matnini
suiiste'mol qilishdan boshqa narsa emas. O'n yilgacha dav-
lat tilini bilmaslik, shuncha vaqt rus tilidagi ish yuritish tizimini
saqlash mumkin, deb hech qayerda yozilmagan edi.

Xo'sh, bu borada endigi ahvol qanaqa?

Qonunan vaziyat yaxshi tomonga o'zgarishi kerak edi, le-
kin...

Darvoqe, Qonunga 2004-yili kiritilgan qo'shimcha-o'zgar-
tishlarning ikkinchi qismi ana shu ijobiy tomonga o'zgarishga
qaratilgan edi. Zotan, davlat tilida ish yuritish tizimiga amal
qilishni lotin yozuviga to'liq o'tish muddatiga doimiy ravishda
bog'lab qo'yib bo'lmaydi-ku. Qonunga kiritilgan qo'shimcha
va o'zgartishlarning ikkinchi qismida mana nima deyilgan:

"VIII. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil
21-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining
"Davlat tili haqida"gi Qonunining yangi tahririni amalga kiri-

tish to'g'risida"gi Qarorining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1995-yil. 258-modda) 2-bandidagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tilgan paytdan, ya'ni" degan so'zlar chiqarib tashlansin".

Lekin bu qo'shimcha va o'zgartishlar keng doiradagi fuqarolarga yetib bormaydi-da. Oliy Majlis axborotnomasini qidrib topib, tegishli moddani aniqlab, tegishli so'zlarni undan chiqarib tashlab o'qib ko'radigan odamlar topilmaydikan? Balki topilar, biroq kamdan kam. Topilganda ham, o'qib masalaning mohiyatini tushunib olishi dargumon.

Xo'sh, qonunlardagi bu kabi yangiliklarni ommaga kim singdiradi? Huquqshunoslar, qonun sharhlari, dersiz?

Shu o'zgarishlarning mohiyatini o'tgan o'n besh yil davomida biror joyda biror huquqshunos ochib berganini hargiz ko'rmadik. 2004-yilda nashr etilgan Qonun sharhida esa bu o'zgarishni sharhlash nari tursin, hatto Qonunga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartishlar tilga ham olinmagan. Sharhlar 1999-yildagi 1-nashrda qanday bo'lsa, 2-nashrda ham shunday turibdi. (Qarang: "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuniga sharhlar". – Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2004.)

E'tibor bering, "Sharhlar" 2004-yil 10-oktabrda bosishga ruxsat etilgan, "Qo'shimcha va o'zgartishlar" esa 2004-yil 30-aprelda e'lon qilingan. Orada besh oy vaqt bo'lgan. Nazarimizda, "Sharhlar" muallifi yuridik fanlar doktori, professor G'afur Abdumajidov yangi e'lon qilingan "Qo'shimcha va o'zgartishlar"ni umuman ko'rmagan bo'lsa kerak. Ko'rganida, nashr jarayonida, albatta, inobatga olgan bo'lardi.

Tegishli tahrirdan so'ng, mazkur Qaror moddasi quyidagicha o'zgaradi: "Belgilab qo'yilsinki, "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9- va 10-moddalari 2005-yilning 1-sentabridan e'tiboran kuchga kiradi".

Demak, anglashiladiki, endilikda davlat tilida ish yuritish tizimiga to'liq o'tildi. Endi o'zbek tilidagi hujjatlarni qabul qilmaslikka yoki hujjatlarni rus tilida tayyorlab jo'natishni talab qilishga Qonun hech kimga huquq bermaydi. Nihoyat, "Davlat tili haqida"gi Qonunning barcha moddalari to'la va uzil-kesil kuchga kirdi. Gap Qonunning amalga oshirishidagi tugallikni ham ta'minlashda qoldi. Lekin, afsuski, **mana oradan yana 15 yil o'tib ketdi hamki, Qonun moddalari to'la-tugal amalga oshmayapti. Hamon o'zbek va rus tillarida hujjat yuritish va yozuv qo'shhokimiyatchiligi davom etmoqda.**

Bu borada taklifimiz shuki, butun mamlakat miqyosida – yuqoridan pastgacha va pastdan yuqorigacha – bir xilda – davlat tilida ish yuritishi qonunan qat'iyalashtirilishi, xalqaro va diplomatik munosabatlar miqyosida esa maxsus me'yoriy qonun-qoidalar joriy etilishi lozim.

YOZUV QO'SHHOKIMIYATCHILIGI QACHONGACHA?

Ma'lumki, "qo'shhokimiyatchilik" termini asli tarix sohasida qo'llangan va u jarayon taqozosiga ko'ra yozuvga ham ko'chib qoldi. Tarixdan bilamizki, qo'shhokimiyatchilik hukm surgan davlatlar doimo inqirozga yuz tutgan. **Qo'shhokimiyatchilik jamiyatni tubdan yemiradigan illatdir. Yozuv qo'shhokimiyatchiligi ham jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim vositalardan biri – savodxonlikni izdan chiqardi.**

Ilgari matbuot va nashriyot sohaslarida, ish yuritish tizimida imloviy xatolar deyarli uchramas edi. Bugungi kunda xatosiz hujjat, gazeta-jurnal yoinki kitobni topish amrimahol. Hatto o'qituvchilar, boshqa fan mutaxassislarigina emas – ona tili va adabiyot muallimlari ham xatosiz yoza olmaydigan bo'lib qoldilar. Buning sababi yozuv qo'shhokimiyatchiligining juda uzoq muddat davom etganligi hamda o'zbek-lotin alifbosi va imlo qoidalarida hanuz chalkashliklar, takomiliga yetmagan qusurlar borligidir.

Amaliyotda kazatiladiki, malaka oshirishga kelgan o'qituvchilar yozuv taxtasiga yozayotganlarida ba'zan beixtiyor lotindan kirillga yoki kirilldan lotinga o'tib ketganlarini bilmay qoladilar. Bir yili malaka oshirish tahsilidagi o'qituvchilardan ular doimiy foydalanib kelgan darslikdagi matn asosida lotin yozuvi bo'yicha diktant olishga to'g'ri keldi. Ushbu sinov malaka oshirish instituti rektori buyrug'i bilan maxsus tuzilgan komissiya tomonidan amalga oshirildi. 275 so'zdan iborat diktant matnini 121 tinglovchidan birortasi "5" bahoga yoza olmasdi. Respublika Ta'lim markazidan olingan "Diktantni baholash mezonlari" asosida tekshirilganida o'qituvchilardan 23 nafari – "4", 24 nafari – "3", 27 nafari – "2", 47 nafari – "1" bahoga loyiq diktant yozganligi ma'lum bo'ldi. Baholash mezoniga ko'ra xatolar miqdori 15 tadan oshsa, "1" baho qo'yiladi. Holbuki, 30 dan ortiq xatoga yo'l qo'ygan tinglovchilar ham bo'ldi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, tinglovchilarning eng katta qismi diktantni "1" bahoga yozgan. **O'qituvchining ahvoli shu bo'lsa, o'quvchining ahvoli, oddiy fuqaroning savodxonligi qanday bo'larkin?**

AMALIY TAKLIF-MULOHAZALAR

Yaqindan beri g'alati bir tajriba boshlandi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o'qituvchilari vazirlik va yana boshqa idoralarga ular tuzgan hujjat matnlarini o'qib, xatosini tuzatishga yuboriladigan bo'ldi. Bu – davlatning yuqori idoralarda ishlaydigan xodimlar savodsizligini ochiq-oydin tan olish emasmi? Bu – uyat emasmi? Bu – huquqsizlik, huquqbuzarlik emasmi? Bu – o'qituvchi xalqiga zulm va zo'ravonlik emasmi?

Bir mahallar – sho'ro davrida o'qituvchilar, ilmiy xodimlar har yili 60 kun paxta terimiga, bundan tashqari, yana 40 turdagi qishloq xo'jalik ishlariga – jami 110 kunlab majburiy hasharga jalb etilgan. Oxiri, ko'pchilik imzosi bilan matbuotda "Hashar majburiymi?" sarlavhali maqola chop ettirib zulmdan qutulgan. Axir, professor-o'qituvchining o'z yuklamasi bor. Kundalik o'qitish vazifasidan tashqari u tinimsiz ilmiy izlanish va tadqiqot bilan shug'ullanishi taqozo etiladi.

Bugun ham internet tarmoqlaridan to'yinib oziqlanadigan zamonaviy talabaga dars o'tish oson emas. Zahmatkash o'qituvchi kirillda ta'lim olgan avlod uchun og'ir bo'lgan lotinda yozilgan tonnalab daftarlarni ko'zlarini teshilguday bo'lib tekshirishga majbur. Qolaversa, lotin yozuvi haqidagi qonun yoki kirill alifbosidagi savodxonlik talabi barchaga barobar emasmi? Bunaqada yuqori idoralardagi xodimlar boqimandalik kasaliga chalinib qoladilar, ularning ishlarini doim kimdir tekshirib berishi kerak. Nazarimizda, **savodsizlikni tugatish kurslarini, eng avvalo, yuqori idoralarda tashkil etish lozim. Toki ular o'z vazifalarini o'zlarini bajarish darajasida savodxon bo'lsinlar.**

Prezident Farmonida Davlat tilini rivojlantirish departamentining vazifalari belgilab berilgan. Shulardan biri **"lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini to'liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish"**dir. Bu borada yozuv qo'shhokimiyatchiligiga barham berish asosiy vazifadir.

Davlat va jamiyat yagona yozuv amaliyotiga to'liq va uzil-kesil o'tmas ekan, umumxalq savodxonligini to'liq tiklash imkonsizdir. **Muammoning yechimi maxsus, qat'iy qarorni taqozo etadi. Yozuv qo'shhokimiyatchiligiga qat'iyan barham berish lozim.** Kirill va lotin yozuvi qo'shhokimiyatchiligi izchil davom etar ekan, pasayib ketgan savodxonlikni ko'tarish imkonsizdir.

Davlat tilini rivojlantirish departamentining tuzgan Konsepsiyasida o'zbek-lotin yozuvini tobora rivojlantirish haqida gap ketadi. Bu murossozlik ruhiyati bilan aytilgan dudmal fikrdir.

Qachonki lotinga yondosh kirill yozuvi keng miqyosda amal qilar ekan, lotin yozuvi amaliyotini to'la ta'minlash mumkin emas. Buni bilib bilmaslikka, ko'rib ko'rmaslikka olish yetar.(!)

Yangi o'zbek-lotin yozuvida to'la va uzil-kesil o'tish muhlatini aniq belgilab, bu haqda qat'iy qaror qabul qilish lozim. Shundagina Davlat tili yozuvi haqidagi Qonun qat'iy kuchga kiradi va amalga oshadi. Yoki kirill bilan lotin yozuvi qaysi doiralarda yondosh qo'llanishini chegaralab, me'yorlashtirib, uni Qonunda ifodalash lozim.

Shuningdek, Farmonda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga "Davlat tili haqida"gi Qonunni bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Ana shu vazifa doirasida nazarda tutilishi kerakki, tarixiy jarayon taqozosi bilan "Davlat tili haqida"gi Qonun va "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun alohida-alohida qabul qilingan. Endilikda ushbu qonunlarni birlashtirish vaqti keldi. Chunki ularning har ikkalasi ham davlat tili haqidagi qonundur. Mazkur qonunlar o'zaro muvofiqlashtirilgan holatda qayta ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bunda qonun ham kuchayadi, ham uning xalqqa ta'sir kuchi ortadi.

DAVLAT TILI NUFUZIDA YOSHLARNING O'RNI

Davlat tili nufuzini tubdan oshirishning yoshlar bilan ham bog'liq qator muammolari bor. Hozirgi yoshlar "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingan davrdagi yoxud XXI asr bo'sag'asidagi yoshlar emas. Men umrbod yoshlarga ta'lim berish bilan shug'ullanayotgan bir mutaxassis sifatida yoshlarimizning kuch-g'ayrati, shijoati, uddaburonligi, bilim zaxirasining boyligi va imkoniyatlarining cheksizligini tan olgan holda ayrimlarining davlat tili – ona tiliga, Istiqloq bergan ne'matlarga loqayd, beparvo munosabatidan qoniqmayman. Nazarimda, yoshlarning davlat tiliga e'tiborini kuchaytirish lozim. Ularning mustaqillik va davlat tili uchun kurash jarayonlarini yaxshi bilishlari, "Davlat tili haqida"gi Qonunni moddama-modda o'zlashtirishini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Hayotda oson erishilgan narsaning qadri bo'lmas ekan. Hozirgi yoshlar mustaqillik va davlat tili huquqiga juda oson erishganlar. Ularning ko'pchiligi mustaqillik davrida tug'ilgan. Shuning uchun katta kurashlar evaziga erishilgan mustaqillik ne'matlarining qadriga yetmaydi.

Darslarda yo'qlama qilar ekanman, hamon aksariyat ism-familiyalar sho'ro davridagiday davlat tili va savodxonlik nuqtayi nazaridan e'tiborsiz yozilganidan afsuslanib ketaman. Ayniqsa, milliy oriyat va g'ururimiz sha'niga nisbatan haqoratomuz darajada yozilganlari uchrasa, egasini turg'izib, sababini so'rayman. Bilimli va biyron talabalar: "Hujjatlarimizda shunday yozilgan", – deb turaverishadi. Axir, hujjatlardagi xatolarni ota-onalari tuzatishmagan bo'lsa, loaqal ona tili va adabiyot mutaxassisi bo'lishga intilayotgan talabalar "Davlat tili haqida"gi Qonun bergan huquqdan foydalanib o'z ism-familiyalarini tuzatirib, yangi hujjatlar olishlari mumkin-ku.

Buning uchun, **avvalo, huquqiy madaniyat, qolaversa, "Iola tuxmicha g'ayrat, pilla qurticha himmat" (Navoiy) – hafsala kerak, xolos.**

Yo'q, muhtaram navqiron fuqarolarimiz hujjatlarni yangilash talay ovoragarchilik va sarson-sargardonliklarni talab etishini bahona qilishadi. Aslida, unday emas. Bu ishni ortiqcha qiyinchiliksiz uddalagan fuqarolar ko'p. Masalan, men 1996-yili o'zim tug'ilib o'sgan G'ijduvon shahri FHDYO bo'limiga murojaat etib, ismim, ota ismim va familiyamni o'zgartirib olganman. Albatta, bu juda oson kechmagan. Kamina huquqini tanigan til-adabiyotchi sifatida FHDYO bo'limi

mudirasi, huquqshunos O.Nazarova bilan biroz bahslashib, uni talab qilayotgan haqqimga iqror etib, huquqimga erishishga muvaffaq bo'lganman. Esdalik uchun saqlab qo'yganim G'ijduvon shahri FHDYO bo'limining 1996-yil 31-dekabrda bayonnomasida ism-familiyam "Davlat tili haqida"gi Qonunning 15-moddasiga asosan asliga to'g'ri ravishda, milliy shaklda tuzatilganligi qayd etilgan. Asos sifatida mening shaxsiy arizam ko'rsatilgan. Buning uchun bor-yo'g'i 1 soat vaqtim ketgan, o'sha vaqtning puli bilan 1 so'm-u 38 tiyin xarajat qilganman, xolos. Evaziga FHDYO bo'limi menga ism-familiyam milliy shaklda to'g'ri yozilgan yangi tug'ilganlik haqidagi guvohnoma va pasport taqdim etgan.

Bu – hali "Davlat tili haqida"gi Qonun to'la kuchga kirmagan va huquqshunoslar ushbu Qonunning hamma moddalarini qanday joriy etishni tushunib yetmagan davrlar edi. Qonun qabul qilinganiga 30 yil to'lgan endilikda uning barcha moddalari shak-shubhasiz joriy etilishiga ishonchimiz komil bo'lishi lozim, nazarimizda. Shunga binoan, har bir fuqaro ism-familiyasini hujjatlarida osongina tuzatirib olishi mumkin.

Xo'sh, fuqarolarga beriladigan yangi hujjatlarda ism-familiyalarning "Davlat tili haqida"gi Qonunga muvofiq to'g'ri milliy shakllarda yozilishini qanday tashkil etish mumkin?

Ish yuritish va hujjat ishlarimizdagi minglab xatolar tashkilotlardagi mutaxassislar huquqiy va imloviy savodxonligi talab darajasida emasligi tufayli kelib chiqmoqda. **Aholiga Tug'ilganlik haqidagi, Nikoh to'g'risidagi guvohnomalarni, Fuqarolik pasportini beradigan tashkilotlarda davlat tili va savodxonlikka e'tiborni kuchaytirish lozim.(!)**

Har bir nom – milliy boyligimiz. Ularni muhofaza qilish ko'proq shu tashkilotlarda ishlaydigan xodimlarning madaniy savoyasiga bog'liq. Bunday tashkilotlar maxsus lug'atlar bilan ta'minlanishi va xodimlar har bir ism-familiyani to'g'ri yozishda shunday lug'atlarga tayanishlari lozim.

To'g'ri, ayrim ota-onalar sulolaviy, lekin noto'g'ri yozib kelingan nomlarni o'z avlodlarida qanday bo'lsa – shunday davom ettirishni istashlari mumkin. Biroq FHDYO xodimlari ularga davlat tili talablarini to'g'ri tushuntirib, ism-familiyaning hujjatda to'g'ri yozilishiga erishishlari muhim.

Barcha oliy o'quv yurtlariga kirishda inshoni birinchi imtihon sifatida qo'yish ham davlat tili nufuzini ko'tarishda asosiy omil bo'lishi mumkin. Chunki **insho talabgorning savodxonligi, til bilimi, tafakkur qobiliyati, nutq madaniyati, fikrini nuqsonsiz va aniq bayon eta olish malakasi, dunyoqarashi, fikr doirasi haqida keng tushuncha beradi. Shu bilan birga, insho talabgorning davlat tilini nechog'liq o'zlashtirganligi to'g'risida ham mezon bo'la oladi.** Birinchi sinov insho bo'lsa, o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar ham davlat tilini mukammal o'zlashtirishga e'tiborli bo'lib qoladilar. Negaki, davlat tili bilimi va malakasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Barcha tashkilotlarda ta'sis etilayotgan davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha direktor maslahatchisi lavozimi va hamma oliy o'quv yurtlarida ochilgan yangi "O'zbek tili va adabiyoti" kafedralariga **munosib, layoqatli kadrlar ishga olinishiga erishmoq lozim.** Chunki bunday tajriba mustaqillikning dastlabki yillarida ham jamiyatning boshidan o'tgan. O'shanda munosiblar qatorida tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik oqibatida shtatlar noloyiq kadrlar bilan to'ldirilgan. Hamma shtatlarga yetadigan loyiq kadrlar ham yo'q aslida. Shu bois davlat tilini o'qitish, joriy etish talab darajasida rivojlanmagan. Shu **tarix yana takrorlanishidan xavotir yo'q** emas.

Saodat KAMBAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

NUTQ O'STIRISHDA TIZIMLI YONDASHUV

Adabiyot o'qitishda o'quvchilarning "o'z fikrini savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; adabiy til me'yorlariga rioya qilish, uslubiy rang-baranglikdan foydalanish kabi tayanch kompetensiyalarini shakllantirish"¹ vazifalarining belgilanishi yozma nutqning grammatika, imlo, punktuatsion va og'zaki nutqning orfoepik jihatdan to'g'ri tuzilishini o'zlashtirishga doir maqsadli yondashuvlarni talab etadi. Zero, nutq va tafakkurni uyg'un rivojlantirish masalasi o'quv materiallari mazmunini takomillashtirishga chambarchas bog'liq.

Fikrimizcha, adabiy ta'limda topshiriqlarning kutilgandek natija berishi uchun sujet, kompozitsiya, obrazlilik, badiiy to'qima kabi nazariy tushunchalar qatori matn qurilishiga doir bilimlarni soddadan murakkabga tamoyili asosida shakllantirish ham talab etiladi.

Ta'lim bosqichlarida nutq va tafakkurni o'stirish jarayoni qanday mexanizmga tayanadi? Aynan 4-sinfdan 5-sinfga o'tilganda o'quvchilar nutqida uchraydigan: mavzuning to'liq yoritilmasligi; so'zlarning o'rnida qo'llanmasligi; gapda so'zlar, matnda gaplarning o'zaro bog'lanmasligi; reja tuzish yoki sarlavhaning to'g'ri tanlanmasligi; matn qismlari va ular o'rtasidagi aloqadorlikka doir bilimlarning kamligi (sarlavha, epigraf, reja, kirish, asosiy qism, xulosa kabi); darslik mualliflari fikrlari bilan cheklanish holatlari bilimlardagi bo'shliqlarni to'ldirishga doir chora-tadbirlarni taqozo etadi. Vaholanki, tafakkur va nutq o'stirishga doir topshiriqlar boshlang'ich "Ona tili" va "O'qish" darsliklarida yetarli darajada aks etgan.

O'quvchilarning fikr ifodasida, asosan, nutqiy (lug'aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy va sintaktik-uslubiy) xatolar ko'p uchrashi nazarda tutilsa, ularni bartaraf etish yuzasidan tizimli ish olib borilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, lug'aviy-uslubiy xatolar quyidagi mazmundagi korreksion ishlarga ehtiyoj tug'diradi:

1. Gap yoki matnda so'zlarni takror qo'llamaslik.

Bunda fikrga mos so'z tanlash va ularni o'rnida ishlatishga ahamiyat qaratish; nutqda ko'p va faol ishlatiladigan so'zlarga murojaat qilishdan chekinish; so'zlarning ma'nodosklaridan foydalanish; takror keladigan so'zlar o'rniga olmoshlarni qo'llash yuzasidan tushunchalar berish mumkin. Masalan:

Bahor keldi. U (bahor) o'z tarovati bilan barchaga xushnudlik ulashmoqda.

2. So'zlarni aniq ma'nosida ishlatish. Buning uchun o'quvchilar so'z boyligini oshirish maqsadida lug'at daftarlari yuritishni yo'lga qo'yish; daftarga so'zlar anglatadigan ma'nolarini muntazam qayd ettirib borishga odatlantirish; so'z ma'nolarini farqlashga doir turli

grammatik o'yinlar tashkil etish mumkin. So'z ma'nosi ustida ishlashda uning leksik ma'nosi (so'zning o'zigagina xos atash ma'nosi: o'rik – *mevali daraxt* va *meva* ma'nosini anglatishi); grammatik ma'nosi (so'zlarning ma'lum bir umumiy xususiyatiga ko'ra turkumlarga bo'linishi (*qizil* – sifat, *shirin* – sifat, *baland* – sifat); shu turkumgagina xos bo'lgan grammatik ma'nolarni ifodalovchi shakllarni olishi (*bolalarni* – ot so'z turkumiga xos bo'lib, ko'plik va kelishik ma'nolariga egaligi)ga doir mashqlar ko'zda tutiladi.

3. Shevaga xos so'zlardan foydalanmaslik.

Adabiy til me'yorlariga amal qilish uchun qulay nutqiy sharoit yaratish; o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomonidan tahlil qilish; matndagi so'zlarning ma'no qirralarini tushuntirish yuzasidan ishlar olib borilishi zarur. Masalan, adabiy tilda *do'ppi*, *sigir*, *beshik* kabi so'zlar Buxoro shevasida *kallapo'sh*, *inak*, *gavora* tarzida ishlatilishi va h.k.

4. Morfologik-uslubiy xatolar so'z o'zgartiruvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni to'g'ri qo'llashni; **sintaktik-uslubiy xatolar** esa so'z birikmasi va gap tuzishga doir mashqlar tizimini takomillashtirishni; **tipik-kompozitsion xatolar** rejaning matnga mos holda tuzilishini, voqea-hodisalarni ifodalashda izchillikka amal qilinishini talab etadi. Dalillarni tartibli keltirish, rejali ish tutish, matnni qanday boshlash, davom ettirish va tugatish zarurligini tasavvur qilish, materiallarni o'z o'rniga joylashtira olish kompozitsion xatolarga barham beradi. Voqea-hodisalar tasvirida so'z, so'z birikmasi, zarur lavha yoki dalillarni keltirishni unutmaslik mantiqiy izchillikka xizmat qiladi.

O'quvchilarda mazmuniy, mantiqiy va kompozitsion bog'liqlik yuzasidan dastlabki bilimlarni shakllantirish jarayoni xatboshi va mustaqil gaplarni bog'lovchi leksik-grammatik vosita (ko'rsatish, III shaxsdagi kishilik olmoshlari kabi)larning qo'llanishi *mazmuniy aloqadorlik*; gaplar, xatboshilar orasidagi mantiqiy munosabatlarning funksional-sintaktik vositalar orqali ifodalanishi *mantiqiy bog'liqlik*, shuningdek, sintaktik qurilmalar (*ma'lumki*, *ta'kidlash joizki*, *yuqorida aytilganidek* kabi) yordamida *kompozitsion bog'liqlik* mohiyatini tushuntirishdan boshlanadi.

Boshlang'ich savod o'rgatish davrida grammatik-orfografik va orfoepik bilimlarni amaliy o'zlashtirish bilan bog'liq yondashuvlar mavjud. Jumladan, **gap ustida ishlash** yo'nalishida quyidagi mashq turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Gap chizmasini doskada tasvirlash va izohlash.
2. Tavsiya etilgan chizmaga mos gap tuzish.

3. Rasm asosida tuzilgan hikoyadagi gap chizmasini doskada aks ettirish.

4. Matndan berilgan chizmaga oid gaplarni ajratish va izohlash.

5. Matndagi har bir gap nusxasini chizdirish. Bunda dastlab ikki-uchta, so'ngra to'rtta yoki beshta gapli matn tanlanadi. Tuzilgan hikoya yoki ertak matni o'qituvchi tomonidan aytib turiladi, o'quvchilar esa gap chizmasini doskaga yozadi. Masalan:

Osmanni qora bulut qopladi.



6. So'zlar yordamida gapni kengaytirish va uni chizmada ifodalash.

Yuqoridagi kabi faoliyat turlari imloviy bilimlarni o'zlashtirish, gap tuzish, hikoya yoki insho, bayon matnida gaplarning mazmunan bog'liqligini tushunish hamda gap chegarasini aniqlashga tayyorlab boradi.

So'z ustida ishlash o'quvchilarni adabiy-orfoepik talaffuz va to'g'ri o'qishga o'rgatish; har bir so'z ma'nosini tushuntirish; muntazam ravishda lug'at boyligini oshirish; so'zni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llash; so'zlarni imlo xatolarisiz yozishga odatlantirish bilan chambarchas bog'liq. Mazkur jarayonda muayyan rasm, narsa-buyum yoxud voqea-hodisaning o'zidan foydalanilib, aytilayotgan nom "so'z" hisoblanishi haqida ma'lumot beriladi. Bunday usul bolada "so'z" tushunchasi xususida tasavvur uyg'otadi. Shuning barobarida so'z tovushlardan, gap so'z yoki so'z birikmalaridan, matn gaplardan tashkil topishi, so'z bo'g'inlarga bo'linishi yuzasidan ham tegishli tushunchalar shakllantiriladi. So'z ustida ishlash jarayonida bir xil qo'shimchali yoki asosdosh so'zlar; ohangdosh so'zlar; ma'nodosh so'zlar; shakldosh so'zlar; zid ma'noli so'zlar; ko'p ma'noli so'zlar topish hamda berilgan so'zlarni qatnashtirib gap tuzish kabi og'zaki mashq turlari qo'l keladi.

Qayd etish joizki, aynan ijodiy va mantiqiy xarakterdagi topshiriqlar ona tili darslarida nutqiy va lingvistik; adabiyot darslarida adabiy-nutqiy va tahlil kompetensiyalari rivojini ham nazarda tutadi. Zero, "nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi"².

Quyidagi rivojlantiruvchi mashqlarni muntazam o'tkazib borish ijodiy ishlarda uchraydigan nutqiy xatolarni bartaraf etishda samaralidir:

1. Lug'at ishi. Nutq va tafakkurni uyg'un holda o'stirishda orfografik, ensiklopedik, etimologik, omonimik, sinonimik, antonimik, ideografik lug'atlardan foydalanish so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, ya'ni ma'nodoshlar, shakldoshlar, bir ma'nosi bilan farqlanadigan so'zlarni to'g'ri qo'llash, shuningdek, nutqiy g'alizlik va zerikishga sabab bo'ladigan takrorlarni bartaraf etadi. Tilshunos olim A.Sobirovning ta'kidlashicha, tafakkurni o'stirishda ideografik lug'atdan foydalanish "so'zlarni bir-biriga solishtirish, qiyoslash asosida ularning har biriga xos umumiy yoki xususiy belgilarini aniqlashda yordam beradi"³.

Ideografiya "bir umumiy mavzu va g'oya atrofiga birlashgan, uyg'unlashgan so'zlar majmuyi, yig'indisi"dir⁴. Masalan, *suv* umumiy mavzusini *ariq*, *jilg'a*, *irmoq*, *soy*, *ko'l*, *daryo*, *dengiz*, *okean* kabi so'zlar guruhi tashkil etsa, ular qatorini oqishi, qirg'oqqa egaligi, to'lqinlanish yoki turg'unligiga ko'ra umumlashtirish yoki farqlash mumkin. O'quvchilarga mazkur so'zlar *oqmoq* va *turmoq* fe'llari bilan semantik-sintaktik aloqa hosil qilishi tushuntirilishi zarur. Bunda "Mosini toping" usulidan foydalanish ma'qul. Jumladan:

1.da to'fon ko'tarildi. 2. suv jildirab oqardi.

Foydalanish uchun so'zlar: *ariq*, *soy*, *ko'l*, *jilg'a*, *daryo*, *dengiz*.

Lug'at ishini intellektual o'yinlar tarzida ham yo'lga qo'yish mumkin. Bunda so'z birikmalarini bir so'z bilan yoki aksincha ifodalash vazifasi beriladi. Masalan, *bilim dargohi* – *maktab*, *tug'ilib o'sgan maskan* – *vatan* yoki *fasllar kelinchagi*, *yasharish fasli* – *bahor*, *ko'klam* kabi.

2. So'z turkumlariga xos xususiyatlarni aniqlash. Bunda agar predmetning nomi bo'lmasa, odamlar bir-birlari bilan qanday aloqaga kirishishi, so'z turkumlari nimani ifodalashi, qanday so'roqlarga javob bo'lishi yoki qanday o'zgarishi ustida savol-javoblar o'tkaziladi va misollar keltiriladi. Zarur hollarda so'z turkumlariga xos xususiyatlar jadval va chizmalar yoki grammatik o'yinlar orqali tahlil qilinadi. Masalan:

1. *U kelishiklarda turlanadi (ot).*

2. *U gapda kesim vazifasida keladi (ot, fe'l) va h.k.*

3. Mustaqil ijodiy ishlar muayyan mavzuda material to'plash va ularni tartibga keltirish; mavzuga oid rasmlar; mavzuni yoritishga doir leksik birliklar ustida ishlash; matn rejasini tuzish (asarning umumiy mazmunini topish, butunni bo'lakka ajratish); reja asosida qayta hikoyalash; ishni shakllantirish hamda xato-kamchiliklarini tuzatish bo'yicha tizimli ishlarni talab qiladi.

Xulosa qilganda, til nazariyasi, grammatika, leksikologiya va stilistika elementlari, shuningdek, adabiyot nazariyasiga oid bilimlarni tadirijiy o'zlashtirishga doir yondashuvlar o'quvchilar nutqi hamda tafakkurini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – Toshkent, 2017, 14 (774)-son. 32-bet.

²K.Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. 304-bet.

³E.Begmatov. Hozirgi o'zbek tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. 116-6et.

⁴A.Sobirov. Ona tili darslarida ideografik lug'atdan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi, 2003. 4-son.

Valijon QODIROV,
pedagogika fanlari doktori;

Yayraxon UMAROVA,
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

ONA TILIDAN FANGA OID UMUMIY KOMPETENSIYALAR TIZIMIDA PRAGMATIKA MASALALARI

Ta'lim-tarbiya jarayonida samarali, sifatli natijaga erishmoq uchun oldindan tarbiyalanuvchilarga qanday kompetensiyalar singdirilishini oydinlashtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sinflar kesimida ta'limning ongliklik, uzviylik va uzluksizlik, oddiydan murakkabga rivojlanib borish kabi tamoyillariga asoslangan holda belgilanadi, amalga oshiriladi.

Ushbu maqolada Ona tili ta'limida o'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan umumiy tayanch kompetensiyalarning ahamiyati, mazmun-mohiyati haqida so'z ketadi. Respublikaning qator viloyatlarida bo'lib, filolog o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar, seminar-treninglarda aksar muallimlar bu kompetensiyalarning mohiyati, til ta'limigagina taalluqli jihatlari, ularni shakllantirish yo'llari haqida yetarli tushunchaga ega emasliklari ma'lum bo'lib qoldi. Shu bois o'zimizning kuzatishlarimiz, izlanishlarimizdan kelib chiqib, bu boradagi qarashlarimizni bayon qilishga jazm etdik.

Boshqa predmetlar qatori Ona tili uchun fanga oid *umumiy kompetensiyalar tizimida*, avvalo, kommunikativ kompetensiyaga tilga olinadi. Bu kompetensiya ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqot madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Kommunikatsiya jarayonida pragmatik layoqat muhim sanaladi, negaki kishi hayotining har kuni, har soat va daqiqasida kirishiladigan muloqotning muhiti, kommunikati va maqsadiga ko'ra eng samarali muqobil variantini topa bilish, til vositalaridan unumli foydalana olish kabi talablar ko'ndalang turadi.

Pragmatik kommunikativ kompetensiya, avvalo, o'quvchilar ongida so'z (til, muloqot)ning ana shunday imkoniyati, kuchi va oqibati haqida tasavvurni shakllantirishdir. Saylov jarayonlaridagi davlat rahbarlari, deputatlarining chiqishlari pirovard natijaga qanday ta'siri bo'lganini yoki o'ylamay aytilgan gap inson taqdirida nechog'lik pushaymonliklarga sabab bo'lishini ko'plab misollar bilan tasdiqlash mumkin.

Pragmatik kommunikativ kompetensiya, shuningdek, o'quvchilarga muloqot muhitini his qilish, ulardagi o'zlari muvaqqat doxil bo'lib turgan bu muhit talab qiladigan uslubni to'g'ri tanlay bilish malakasidir. O'quvchilar jamiyat hayotini kuzatar ekanlar, kommunikativ vaziyatlarga ko'ra u yoki bu sotsiumning ijtimoiy roli o'zgarishi bilan nutqi ham muvofiq tarzda o'zgaralik kasb etishiga guvoh bo'ladi. Masalan, o'z o'qituvchilarining hayotdagi ijtimoiy roliga ko'ra nutqlarining quyidagi shakllarda bo'lishini ko'rganlar: 1. Darsni tushuntirish jarayonida ilmiy nutq uslubidan foydalanadi. 2. Turli yig'inlarda rasmiy yoki publitsistik uslublarga murojaat qiladi. 3. Maktabdan, darsdan tashqari bo'ladigan kommunikativ vaziyatlarda kundalik-maishiy uslubni qo'llaydi [3: 24]. Ayni paytda guvoh bo'ladi, muallimlari har qanday vaziyatda ham o'z kasbiga xos bo'lgan ijtimoiy doira chegarasida so'zlaydi [4: 142]. U kundalik-maishiy uslubni qo'llaganda ham o'qituvchi ekanligi bilinib turadi.

Pragmatik kommunikativ kompetensiya muloqot jarayoni ishtirokchilari bo'lmish kommunikant va kommunikantning millati, yoshi, ijtimoiy roli (mavqeyi), jinsi kabi omillarni hisobga olgan holda muloqot madaniyatiga rioya qilishidir. Masalan,

ruslarda ota-onasiga sensirab murojaat qilish odatiy hol bo'lgan holda o'zbek mentalitetiga ko'ra ona-onasi tugul begona bo'lgan o'zidan katta millatdoshlarini sensirash ham ulkan madaniyatsizlik sanaladi.

Pragmatik kommunikativ kompetensiya sotsiumning o'zi uchun odatiy bo'lgan muhitdan boshqa yangi muhitda ham u yerdagi ijtimoiy markerni nozik ilg'agan holda kirishuvchanlik, ijtimoiy moslashuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishidir. Shunday kishilar borki, yangi muhitda "mezbon"lar bilan kirishib ketolmay, begonasirab yuradi (o'tiradi), o'zini noqulay sezadi. Aksincha, sotsiumlar borki, besh-o'n daqiqada muhitni "o'ziniki" qilib oladi, ular yangi jamoaga kelgan bo'lsalar ham kommunikativlik layoqati bois samarali faoliyat ko'rsata biladilar.

Ona tili uchun fanga oid umumiy kompetensiyalardan biri axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi bo'lib, u media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topish, qayta ishlash, ulardan samarali foydalanish, media muloqot layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu kompetensiyaning pragmatikasi media-ta'limni yo'lga qo'yish va media-madaniyatni tarbiyalash orqali shakllantiriladi. Bu ikki omil shaxsning ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, video, kino, pressa, internet matbuoti v.b.) orqali rivojlanishini ta'minlaydi.

Pragmalingvistikaning amerikalik yirik vakili H.Grays qarashiga ko'ra kommunikativ faoliyat o'zaro hamkorlik (bizning mavzumizga ko'ra media hamkorlik) asosida tashkil qilinadi. Hamkorlik hosil bo'lishi uchun axborot almashinuvida to'rtta: *miqdor, sifat, mavzuga oidlik, muomala tarzi* tamoyillariga amal qilinadi [5: 183–198]. Pragmatik maqsadga ko'ra tarbiyalanuvchilar uchun *miqdor tamoyili* olinayotgan yoki uzatilyotgan ma'lumot, axborotning miqdorini belgilash (ba'zan chegaralash)ni bildiradi. Bunda kommunikant va kommunikant uchun almashuvdagi axborot talab darajasida bo'lishi, shuningdek, ehtiyojdan ortiqcha ma'lumotni olish (berish) ga urinmaslik talab qilinadi. Mavhumlikka sabab bo'ladigan qisqalik tushunmovchilikka olib borsa, axborot uzatishda ko'p so'zlilik fikr tarqoqligiga sabab bo'ladi. Axborotlar bilan ishlash pragmatik kompetensiyasida *sifat tamoyili* alohida o'rin tutadi. Bunda tarbiyalanuvchilar ma'lumotlarning haqqoniyligiga erishish bilan bog'liq layoqatga ega bo'lishlari diqqat markaziga qo'yiladi. Yolg'on axborotlardan qocha bilish, ularning domiga tushib qolmaslik, haqiqati, to'g'riligi aniq bo'lmagan axborotlarni uzatishdan vaqtida voz kecha bilish mazkur tamoyil shartlari sanaladi. Ongli fuqaro o'ziga yetgan axborotning haqqoniyligiga mas'ulligini his qiladi, yolg'on va gumonli axborotlar tarqalishini oldini oladi.

Mavzuga oidlik tamoyili kommunikatsiya jarayoni ishtirokchilarini mavzu obyekt doirasidan chiqmaslikka da'vat etadi. Bu tamoyilga rioya qilmaslik birinchi va ikkinchi tamoyillardan chekinishga olib kelishi mumkinligi hayotda ko'p kuzatiladi. Telefonda so'zlashish, internet orqali yozishmalarda mazkur tamoyilga rioya qilish kommunikant, avvalo, o'zini, qolaversa, suhbatdoshini hurmat qilishini namoyon qiladi. Kommunikatsiya jarayonining ishtirokchilari so'zlashuv yoki yozishmalarida fikr ifodalashda voz kecha va kommunikantni hisobga olgan holda tushunarli uslubga intilishlari bu tamo-

ylning asosini tashkil qiladi. Bunda kommunikant kommunikant uchun notanish, tushunishi mushkul soʻz va iboralarni iloji boricha ishlatmasligi, ishlatgan taqdirda oʻz oʻrnida uni izohlab ketishi; fikr ifodasida mavhumlik, chuchmallikka yoʻl qoʻymasligi; bayonning loʻnda va qisqa boʻlishi; nutq qurilishida fikr izchilligi, mantiqiy aloqadorlik va ketma-ketlik relevantlikni taʼminlaydi [6: 25].

Umumiy kompetensiyalar tizimidagi oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi doimiy ravishda oʻzini oʻzi jismoniy, maʼnaviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil qaror qabul qila olish, oʻqib-oʻrganish kompetensiyasini egallashni nazarda tutadi. Ona tili taʼlimida esa buni tarbiyalanuvchilarning spotan hamda maxsus tashkil etilgan taʼlim orqali olingan bilim, egallangan koʻnikma va malakalarni oʻzlarida shakllangan hayotiy tajribalar asosida oʻzini oʻzi rivojlantirishlarida ifodalash mumkin. Ona tili fanida oʻquvchilarning ovoz tembri, akustika, soʻzlash intonatsiyasi kabi oʻzining fiziologik imkoniyatlari ustida ishlashlari, ularni takomillashtirilishlari hamda vaqti kelganda ulardan unumli va oʻrinli foydalanishlari tarzida tushunish va tushuntirish mumkin. Ona tiliga oid qoʻshimcha maʼlumotlar, oʻz tilining imkoniyatlari haqida kengroq tushuncha beruvchi kitoblarni mustaqil oʻqib, oʻrganish orqali maʼnaviy, ruhiy yuksalish kuzatiladi. Oʻquvchi koʻz oʻngida tilga taalluqli oʻzining jismoniy (fiziologik) imkoniyatlarining kashf etilishi, maʼnaviy-ruhiy takomilga yoʻnaltirgan qoʻshimcha bilim, maʼlumotlar uning intellektual va kreativ kamolotiga ham turtki beradi, oxir-oqibat erkin fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan (yaʼni pragmatik qobiliyatga ega) shaxs tarbiyasiga yoʻl ochadi.

Umumiy tayanch kompetensiyalar sirasidagi ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi oʻzi yashayotgan jamiyat muammolariga daxldorlik, fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, ijtimoiy muloqot va huquqiy madaniyatga ega boʻlish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ona tili predmeti nuqtayi nazaridan jamiyat muammolariga daxldorlik ona tilining ijtimoiy nufuzi muammolariga eʼtiborli boʻlish, uning jamiyatda oʻziga mos yuqori mavqeda oʻrin tutishiga jonkuyarlik tuygʻusi bilan yashashdir. Ayni paytda bu kompetensiya tarkibida ijtimoiy muloqot madaniyati tushunchasi ham borki, pragmatik aspektda alohida oʻrin tutadi. Muloqot madaniyatining shaxs faoliyati (u xoh kommunikant, xoh kommunikant boʻlsin) hamda jamiyatdagi faolligiga bevosita taʼsiri bor.

Pragmalingvist J. Lich bu borada quyidagi olti qoida muhim ekanligini taʼkidlaydi:

xushmuomalalik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlari sarfini kamaytir, uning foydasini koʻpaytirishga harakat qil);

himmat, olijanoblik qoidasi (oʻz foydangni kamroq koʻzla, barcha sarfini oʻz zimlangga ol);

maʼqullash, tahsin qoidasi (oʻzgalarni yomonlama, gʻiybat qilma, koyima);

kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (oʻz-oʻzingni maqtashni keskin kamaytir);

rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);

xush koʻrish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrixoh, oqkoʻngilli boʻl) [7: 104–142].

Oʻzbek tilshunosligida pragmalingvistika muammolari bilan jiddiy shugʻullangan Sh. Safarovning taʼkidlashicha, “Dastlabki ikki qoidani taʼriflashda muallif qoʻllagan savdo sohasiga oid “sarf”, “xarajat” atamalarini taxminan “qulaylik” va “noqulaylik” tushunchalariga toʻgʻri keladi. Soʻzlovchi olijanoblik tamoyiliga amal qilayotib, tinglovchi uchun qulaylik yaratishga va iloji boricha noqulaylik holatiga yoʻl qoʻymaslikka harakat qiladi” [6: 104–142]. Xulosa shuki, kishi hatto muloqot jarayonida boshqalarga noqulaylik tugʻdirishdan qochar

ekan, unda jamiyat aʼzolarining barcha huquqlariga hurmat bilan qarashni oʻz masʼuliyati, burchi deb biladigan maʼnaviy pragmatik kompetensiyasi shakllanadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya ham umumiy tayanch kompetensiyalardan biri boʻlib, u Vatanga sadoqatli, insonga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga eʼtiqodli boʻlish, badiiy va sanʼat asarlarini tushunish, orasta kiyinish, sogʻlom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Zohiran qaraganda bu oʻrinda sanalgan maʼnaviy sifatlar oʻquvchilarga Ona tili oʻqitish asnosida dars materiallari orqali singdiriladi degan koʻzqarash tushuniladi. Bu toʻgʻri, albatta. Darsda qoida va taʼriflarni asoslash uchun keltiriladigan jumlar, mashgʻulot davomida bajariladigan topshiriq va mashqlar ushbu maqsadga yoʻnaltirilishi lozim. Pragmatik aspektda qaraladigan bu sifatlarning botiniy jihati bevosita ona tiliga munosabat bilan bogʻliqdir. Bunda nutq madaniyati malakasiga erishgan, ona tiliga oliy qadriyat sifatida munosabatda boʻladigan, muomalada chetdan boʻladigan salbiy taʼsirlarga kommunikativ immunitetli, bir soʻz bilan aytganda, muloqotda pragmatik kompetentlikka ega shaxs tarbiyalanadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy reja tuza olish, diagramma, chizma va modellarni oʻqish, fanga oid innovatsion texnologiyalardan foydalanish layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu kompetensiya orqali oʻquvchi maqsadi, manfaati va imkoniyatidan kelib chiqib, kunlik, haftalik shaxsiy reja tuzishni oʻrganadi, fanga oid diagramma, chizma va jadvallar tuzadi, shartli belgilar orqali tushuncha, voqelikni umumlashtirish, ifodalash layoqatini qoʻliga kiritadi. Masalan, oʻquvchilar gap boʻlaklarini, ularning ostiga tegishli chiziqlar bilan belgilashni oʻrgangandan soʻng gaplar modelini shu chiziq (chizmalar) orqali ifodalashni oʻrganadilar. Masalan, aniqlovchi+ega+toʻldiruvchi+hol+kesim (masalan, *Kichik singlim masalani tezda hal qildi*) modelidagi gap chizmada quyidagicha belgilanadi:

Tajribalarda 5-sinfidan boshlab oʻquvchilar bu kabi chizmalarda hech qiyinchiliksiz ishlay olishlari kuzatildi. Ayni paytda oʻzlari ham turli variatsiyalarda modellar yaratib, oʻzaro almashgan holda ularni moddiylashtirgan holda jumlar tuza-dilar. Sintaksisni tizimli kursda (8-9-sinfdan) oʻrganilgan ekan, sintaktik birliklarni modellashtirish bir muncha murakkablik kasb etadi va koʻproq izohlash, taʼrif, tavsif qilish topshiriqlarini ifoda qiladi. Oʻquvchilarga tushunishda yengillik tugʻdirish uchun gap boʻlaklarini ularning bosh harflari bilan belgilab olinadi:

Kesim – K: K_f (feʼl kesim), K_o (ot kesim);

Ega – E (ifodalashiga koʻra: E_{ot} yoki E_{olm} , E_{sif} yoki E_{son} , $E_{n.n.}$ v.h) va

E_b (birikma bilan ifodalangan ega);

Aniqlovchi – A: A_s (sifatlovchi aniqlovchi), A_q (qaratqich aniqlovchi);

Hol – H (maʼno turiga koʻra: H_o , $H_{o'}$, H_{d-m} , H_r , H_s , H_{sh});

Toʻldiruvchi – T: T^* (vositali toʻldiruvchi), T^- (vositasiz toʻldiruvchi).

Oʻqituvchi bu shartli belgilar orqali sodda yoki qoʻshma gaplarni ularda ishtirok etadigan boʻlaklarni maqsadga koʻra kiritgan holda koʻplab variatsiyalarda ifodalashi va oʻquvchilarga taqdim etishi mumkin. Masalan, oʻqituvchi oʻquvchilarga quyidagicha ifodalar vositasida gap tuzish va ularni izohlash topshirigʻini beradi:

$H E T^+ H_o K_f$

$A_p E - A_s K_o$

$E K_o$

Topshiriqqa koʻra oʻquvchilar ifodalarga mos keladigan gaplar tuzadilar, soʻng ularni izohlaydilar:

Darsdan so'ng Elyor masalani sinfdayoq bajarib qo'ydi. Izoh: Kesim bajarib qo'ydi – ko'makchi fe'l bilan ifodalangan, ega – Elyor (ot), payt holi – darsdan so'ng (qachon? so'rog'iga javob bo'ladi), to'ldiruvchi – masalani (tushum kelishigida bo'lgani uchun vositali), o'rin holi sinfdayoq (qayerda?). Payt va o'rin hollari gapning boshida ham, oxirida ham kelishi mumkin. Odatdagi tartibga ko'ra kesim gapning oxirida, boshqa bo'laklar undan oldin kelgan. Sodda yoyiq gap, chunki kengaytiruvchi (ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etgan).

Salimning onasi – mohir tikuvchi. Izoh: Egadan keyin tire qo'yilganidan ma'lum bo'ldiki, ot-kesim bog'lamasiz ishlatilishi kerak. Chunki ega bilan bog'lamalari ot-kesim orasida tire ishlatilmaydi.

Maskanim gulbog' edi (gulbog'dir, gulbog' bo'ldi). Izoh: Egadan keyin tire qo'yilmaganidan ma'lum bo'ldiki, ot-kesim bog'lamasiz ishlatilishi kerak. Chunki ega bilan bog'lamalari ot-kesim orasida tire ishlatiladi.

Bu ifoda qolipiga *Maskanim go'zal* yoki *Maskanim bisyor* kabi jumlar ham to'g'ri keladi. Izoh: Egadan keyin kelayotgan ot-kesim sifat yoki ravish bilan izohlanasa, ularda bog'lama bo'lmasa ham tire qo'yilmaydi.

Shuningdek, *Onam ham shifokor, Onam esa shifokor* kabi jumlar ham bu ifoda qolipiga mos tushadi. Izoh: Ega bilan bog'lamasiz ot-kesim orasida *ham, esa* so'zlari ishlatilsa, tire qo'yilmaydi.

Ko'rinadiki, xuddi matematika fanida bo'lgani kabi bir model (formula)ni bir yoki birdan ortiq qoida (usul)ni tatbiq etgan holda hal etish mumkin. Ular vositasida ham yozma, ham og'zaki nutqda savodli tarzda jumlar tuziladi, shuningdek, bu kabi jumlar tizimi orqali matnlar yaratiladi.

Xulosa qilish mumkinki, pragmatika boshqa fanlar kabi Ona tili predmetini o'qitishda fanga oid va umumiy tayanch kompetensiyalarning amaliyotga, hayotga yaroqliligini ta'minlovchi tayanch nuqtadir.

Marjona JUMANOVA,

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi 111- umumiy o'rta ta'lim maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

BADIIY ADABIYOTDA PLEONAZM HODISASINING QO'LLANILISHI

Bizga ma'lumki, badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Adabiyotshunoslikda ushbu tushuncha turli nomlar bilan yuritiladi: figuralar, sintaktik figuralar, stilistik figuralar, tilning poetik vositalari, tilning badiiy-tasviriy vositalari, tasviriy vositalar, ifoda-tasviriy vositalar va boshqalar. Avvalo, badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi (obrazlilik), ayni paytda his-tuyg'ularga yo'g'rilgan (emotsionallik)dirki, shu tasvir orqali muayyan o'y-fikr, his-kechinma ham ifoda etiladi. Ya'ni bitta vositaning o'zi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi.

Badiiy tasvir va ifoda vositalari tildan foydalanishda muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab umumodatiy normadan og'ish (ya'ni, til unsurlari odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabat va boshqalarda qo'llash) natijasida yuzaga keladi va tasvirning jonli, ifodaning ta'sirli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida: fonetik (alliteratsiya, assonans), morfologik (asindeton, polisindeton), leksik (arxaizm, dialektizm, jargon), semantik (troplar), sintaktik (inversiya, so'z takrori, sintaktik parallelizm, ellipsis, xiazm) sathlarda kuzatilishi mumkin.

Badiiy tasvir va ifoda vositalaridan bo'lmish pleonazm hodisasi ham o'ziga xos alohida jihatlari bilan ajralib turadi. Pleonazm (yunoncha "pleonasmos" – ortiqchalik) – ko'psozlik; bir xil yoki sinonimik til birliklarining semantik jihatdan takror holda qo'llanishidir. Masalan, "bosh-oyoq sarpo" birikmasidagi forsha "sarpo" so'zi ham "bosh-oyoq" ma'nosini ifodalaydi. Pleonazm aslida stilistik figuralar sirasiga kiritiladi, lekin me'yordan birozgina chekinish uni uslubiy kamchilikka aylantiradi. Fikrni kuchaytirib ifodalovchi vosita sifatida so'zlashuv nutqida (masalan, "o'z ko'zim bilan ko'rdim"), folklor asarlarida ("Qora siyoh qoshlari... Qaro-qaro sochlari...") keng qo'llanadi.

G'afur G'ulomning she'ridan olingan quyidagi she'riy parchada me'yor bir qadar buzilgan, shu sababli unda ortiqchalik seziladi, pleonazm uslubiy kamchilikka aylanadi:

Qo'sh chiqdi

MTS qo'rasidan,

"Formol", Chelyabin,

Xarkov traktorlari,

Bir emas, qator ryad-ryad,

Yakka emas qo'sh chiqdi, qo'sh chiqdi.

Bu o'rinda butun boshli she'riy band birgina "traktorlar qator-qator bo'lib chiqdi" degan fikrni ifoda etadi. Albatta, shoir qishloqda texnikaning ko'payganidan benihoya quvonganini izhor etmoqchi, lekin me'yor saqlanmagani uchun ifoda va mazmun o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi.

Pleonazmning me'yorni saqlagan holda qo'llanishi ifodaning ta'sirli va ohangdor bo'lishiga xizmat qiladi:

Karvon xoki turob – tevarak sarob,

Qayoqqa ketarmiz, ey dil, qayoqqa?

Eshqobil Shukurning ushbu misralarida yuqoridagi holat ko'zga tashlanadi.

Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening" qissasidan olingan quyidagi parchalarda ham pleonazm hodisasi ko'zga tashlanadi:

"...cheksiz-chegarasiz, tep-tekis zamin. Cho'l. Na uy, na odam, na giyoh, na qimirlagan jon. Moviy osmon yopinchiq. Havolarda oppoq sog'inchga qorishgan hijron qo'shig'i taraladi:

Gavhar ekay desam, gulxonang qani?..

Yashab o'tay desam, koshonang qani?..

Koshonang qani?.. Gulxonang qani?.. Qani... qani... qani-i-i?..

"– Nega bunchalik yaxshisiz?! Bilmaysizmi? Men bilan: men yaxshi ko'rganim uchun shunchalar yaxshisiz!.. Yo, boshqachami?.. U holda o'zingiz ayting, nega bunchalar yaxshisiz?"

Ushbu parchalarda qo'llanilgan pleonazm hodisasi his-tuyg'ularga yo'g'rilgan emotsionallik va shu orqali muayyan o'y-fikr, hissiy kechinmalar, boshqa narsalarga ishora qilish, tag ma'nolar ham ko'zga tashlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pleonazm hodisasini qo'llash jarayonida muallif muayyan mazmunni to'laqonli ifodalab bera olishi va bu bilan birga mutolaa qiluvchida emotsionallikni kuchaytirishi mumkin. Me'yordan birozgina chekinish esa pleonazm hodisasini uslubiy kamchilikka aylantirishi ham mumkin.

SHEKSPIRDAN NAVOIYGA: MUTAFAKKIR IJODIGA YANGICHA YONDASHUV

Mumtoz so'z san'atining durdona asarlari, ulardagi go'zal badiiy an'analar, ko'ngilni tozartiruvchi tuyg'ularning betakror talqinlari bugungi yoshlarni kamolga yetkazishda muhim manba hisoblanadi. Ammo, afsuski, mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishdagi bizga ma'lum va noma'lum muammolar, to'siqlar ayrim holatlarda o'quvchi va o'qituvchilarni Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi buyuklar san'atining qaynar buloqlaridan to'yintirishga bo'lgan qiziqishni susaytiradi.

Navoiy asarlari tilini tushunish, uning tasvir san'atidagi betakror xosliklarni talab darajasida anglay olish nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar, ayniqsa, yosh, tajribasiz pedagoglar uchun ham jiddiy muammo ekanligi hech kimga sir emas. Mazkur muammo **birinchidan**, Navoiy so'z san'ati, tasvir vositalariga xos xususiyat, shoir ijodida badiiy san'atlarning qo'llanilishi, bir so'zning bir qancha ma'nolarda aks etganligi; **ikkinchidan**, Navoiy asarlari bitilgan aruz nazariyasi va poetikasi haqida faqat tor doiradagi mutaxassislargina yetarli bilimga ega bo'lib, maktab o'qituvchilarida bu masala qator qiyinchiliklarni tug'dirayotganligi; **uchinchidan**, Navoiy asarlarida ko'plab forsiy va arabiy so'zlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Navoiy yashab ijod qilgan davr xususiyatlarini tushunish ham mutafakkir ijodini anglashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida qayd etilgan sabablar qatorida yana bizga noma'lum boshqa omillar o'quvchilarni Navoiy shaxsi va ijodiga yaqinlashtirishda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda, oqibatda umumiy o'rta ta'limda Navoiy asarlarini yuzaki, chuqur anglovlarsiz, faqat kirish testlari uchungina o'rganish allaqachon "yoqimsiz an'ana"ga aylanib bo'lganligi bugun hammamizga ma'lum haqiqat.

Qizig'i shundaki, o'tgan asrning 90-yillarida ingliz adabiyotining asoschisi Uilyam Spekspir asarlarini o'qitishda ham yuqoridagi muammolarga duch kelingan. Maktab o'quvchi va o'qituvchilari, ota-onalar Shekspir asarlarining o'qitilishiga salbiy munosabat bildirganlar va ularni darsliklardan olib tashlash taklifi bilan chiqqanlar. Angliyaning milliy yozuvchisiga bildirilgan subyektiv munosabatlarining ortib borishi uni umumiy o'rta ta'limda o'qitilishi bilan bog'liq jiddiy tadqiqotlarning yaratilishiga turtki bo'ldi. Yuzaga kelgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'quvchilarni Spekspir ijodini o'rganishga faolligi, rag'batini oshirish, qator ijodiy usullarni ishlab chiqish, shoir va dramaturg adabiy merosini o'rganishdagi asosiy to'siqlar va muammolarga barham berishga qaratilgan. Muntazam olib borilgan tadqiqotlar Shekspir ijodidagi mavzular bola tili va ruhiyatiga moslashtirilib, shoir asarlari maktabdan emas, hatto bog'cha yoshidan o'rgatish zarurligiga rag'bat berdi.

Ta'lim muassasalarida Navoiy ijodiy merosini o'qitishga mo'ljallangan materiallar, manbalar, jumladan, o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalarining ko'pchiligi

"quruq g'oya"ga (bu G'arb ilmi va pedagogikasida "dry idea") asoslanadi. Aniqroq qilib aytganda, o'rganuvchilarning real hayotiy vaziyatlaridan, hayotiy tajribalaridan uzoq, tasavvur olamiga begona, ma'naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qilmaydigan g'oyalar bola ongiga singmaydi va oqibatda "quruq g'oyalar yig'indisiga" aylanadi. Navoiy asarlarini bugungi hayot bilan parallel ravishda tahlil qilish uchun, eng avvalo, Navoiy yoxud Shekspir davridagi ijtimoiy va psixologik vaziyatlarni o'rganish muhim hisoblanadi.

Ko'plab G'arb metodist olimlari har qanday o'qib tushinish jarayoni bu – matndan olingan ma'lumotni o'rganuvchiga ma'lum bo'lgan ma'lumot bilan integratsiya qilish" degan xulosaga keladi.² Kognitiv nazariyada "sxema" (inglizcha "schema") tushunchasi mavjud bo'lib, bu tushuncha inson xotirasidagi ma'lumotlar yig'indisidan iborat. Inson yangi ma'lumotlarni qabul qilayotganda o'zida avvaldan mavjud sxemalar bilan muqoyasa qiladi va ana shu sxemaga mos tushgan yangi ma'lumotlarni nisbatan yaxshiroq va osonroq o'zlashtiradi.³

Demak, kognitiv nazariyaning muhim asoslaridan biri bo'lgan, o'quvchilarning yangi matnni idrok qilish jarayonlarini osonlashtiradigan "o'quvchida avvaldan mavjud sxemalarni faollashtirish" tamoyili nafaqat mumtoz, balki har qanday zamon va makonda yaratilgan badiiy asar matnini turli rakurslarda tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qishdan oldingi topshiriqlar, matnni tushunishga yo'naltiruvchi savollar, matndagi notanish so'zlarni oldindan o'rgatish, boshqa fanlardagi (masalan, tibbiyot, tarix, geografiya) muayyan badiiy matnga aloqador ma'lumotlar yoki faktlarni o'quvchilarga eslatish va hokazolar sxemani faollashtirishda tayanch yondashuvlardan bo'lib xizmat qiladi.

Inglizabon mamlakatlarning 9-sinf dasturiga kiritilgan Shekspirning "Romeo va Jullyeta" fojiasini samarali o'rganishda tarix darslaridan o'zlashtirgan bilimlari va o'quvchilarning hayotiy tajribasi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shekspir davridagi teatr va zamonaviy teatrnin umumiy va xususiy jihatlari haqidagi fikrlar, Shekspir yashab ijod etgan davrga xos tarixiy, madaniy, etnik xususiyatlar, shoir asarlari tilining grammatik qurilishi, lug'atining vizual ko'rinishlari integratsiyasi "Romeo va Jullyeta" asarini tushunishga olib boruvchi samarali strategiyalar hisoblanadi.⁴ Dramani o'rgatishda "Muhabbat kuchlimi yoki nafrat?" kabi asar matniga yo'naltiruvchi, o'quvchilar ongida mavjud sxemalarni faollashtiruvchi savollar muhokama markazida bo'ladi va har bir qo'yilgan masala ijodkor asari asl matni orqali tushuntiriladi.⁵

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori bosqich adabiyot darsliklariga avval Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni kiritilgan edi. Doston falsafiy mushohadaga boy, mazmun-mohiyat jihatidan o'quvchilar tushunishi murak-

kab asar sifatida o'qituvchilar va soha mutaxassislari o'rtasida jiddiy muhokamalarga sabab bo'ldi va aloqibab darslikdan olib tashlandi. "Murakkab asar" o'rniga "nisbatan sodda" "Saddi Iskandariy" dostoni kiritildi. Vaholanki, Navoiy ijodiga yaqinlashish, yoshlar ruhiyatida mutafakkir ijodidagi nafis xususiyatlar uning "sodda" yoki "murakkab" asarlari orqali emas, butun bir ijodi foni (yosh xususiyatini hisobga olgan holda, albatta) orqali singdirish har jihatdan to'g'ri va adolatli qaror, deb o'ylaymiz. Ya'ni uzluksiz ta'limda Navoiy o'qitish bilan bog'liq muammolarga adabiyot darsliklaridagi shoir asarlari, xususan, "Layli va Majnun"ni "Saddi Iskandariy"ga almashtirish bilan yechim topolmaymiz. Eng muhim masala o'rganuvchini Navoiy ijodiga, shaxsiga va san'atiga imkon qadar "silliq" va "o'ta tabiiy" olib kirish, yanayam aniqroq qilib aytgach, Navoiyga borar yo'lni to'g'ri belgilay olish bilan bog'liq.

Xalqaro tajribaga ega mutaxassislardan biri Komil Jalilov G'arb metodist olimlari tadqiqotlari asosida o'qish jarayonini uch guruh (interfaol, konstruktiv, strategik)ga ajratadi.⁶

Interfaol jarayon "o'quvchining avvaldan mavjud bilimlar yig'indisiga bog'liq bo'lib, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, puxta bilimi matnni anglashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Navoiy yoki Shekspir asarlarida qo'llanilgan so'zlarni kontekstdan tashqarida, mustaqil so'z sifatidagi ma'nolarni tushuna olmasa, tasviriy vositalar haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa, tabiiyki, badiiy matnni to'laligicha tushunish imkoni bo'lmaydi.

Masalan, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidan olingan:

*Parvonani ishq etmasa mast,
Urg'aymu o'zini o'tqa payvast? –*

baytidagi "parvona"ning kuyib kul bo'lishini bilsa ham o'zini olovga, o'tga uraverishi o'quvchi tasavvurida jonlanmasa, dostonning asliyatini bir yoqda tursin, uning tabdil varianti holida ham Navoiy aytmoqchi bo'lgan fikrni idrok qilish yoki Majnunning ishqqa grifor bo'lishdagi ruhiy holatini chuqur tushunish mushkul.

Demak, Navoiy asarlari lug'atini o'quvchi tasavvuri olamidani tashqarida quruq yod olish emas, balki ularni rasmlar, grafalar, illustratsiyalar, suratlar ya'ni voqelikni tashqi belgilar orqali idrok etish (Visual-Spatial) Navoiy asarlarini asliyatda tushunishda anchayin yengillik beradi. Bu tajriba bugun ingliz tili mamlakatlarda Shekspir ijodini hatto bog'cha yoshidan o'rgatishda ijobiy nati-

jalar berganligini bu yo'nalishda amalga oshirilgan qator nashrlarning o'ziyiq tasdiqlaydi.⁷

Demak, umumo'rta ta'limda Alisher Navoiy asarlarini vizual yondashuv, multimediali lug'atlar orqali o'rgatish ijobiy natijalar beradi.

Alisher Navoiy asarlarini integratsiyalash orqali ham o'rganuvchida avvaldan ma'lum yoki tanish ma'lumotlar sxemasini faollashtirish yaxshi natija beradi. Chunki mutafakkir asarlarida, jumladan, "Xamsa" dostonlaridagi muayyan voqelik tasviri, asar qahramonlari ruhiy holatlari bilan bog'liq tashbehlar, she'riy san'atlar bevosita tibbiyot, din, tarix, biologiya, geografiya, folklor, kimyo, psixologiya va yana boshqa fanlar bilan bog'liq tasvirlangan ko'plab o'rinlarni uchratish mumkin.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonidagi asosiy qahramonlarning vatani sifatida Chin (hozirgi Xitoy) davlati tasvirlanadi. Miloddan uch ming yil avval yaratilgan Chin mamlakati Navoiyning badiiy-g'oyaviy konsepsiyasiga qay darajada xizmat qiladi? Chin Navoiy davrida geografik va mintaqaviy jihatdan qanday ahamiyatli davlat edi? Chin mamlakati bilan bog'liq qanday afsonalar Navoiy asarlari sujeti uchun tayanich nuqta bo'lib xizmat qilgan?

Asar sujeti, uning mazmun-mohiyatini tushunishga qaratilgan yuqoridagi savollar oddiy tuyulsa-da, Navoiy asarlarida aks etgan katta-kichik motivlar yoki detallar badiiy asar umumiy konsepsiyasining integratsiyasi orqali tushunish imkonini beradi. Badiiy asar mohiyatiga an'anaviy usullar orqali emas, balki boshqa fanlar orqali kirib borish kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan sxemani faollashtirish va o'quvchilarni matnni tushunishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, yuqoridagi kabi savollarni o'rta tashlash o'quvchilarda asarni o'qishga bo'lgan rag'batni kuchaytiradi. Bunday matnga yo'naltiruvchi savollarning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, "o'rganuvchilar asar bilan tanishgandan keyin ham ularga qaytib, o'quvchilarning asarni o'qish natijasida bu savollarga munosabati o'zgargan o'zgarmaganligini qiyoslash mumkin, bu esa ularda refleksiya (o'z tajribasi haqida chuqur mulohaza yuritish) ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi"⁸.

Farzandlarimizni kichik yoshidan Alisher Navoiy asarlariga qiziqtirish bilan ularda Vatanga, millatga, buyuk ajdodlarga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik kabi tuyg'ularni quruq g'oyalardan uzoqroq uslublarda shakllantirish, eng muhimi, ularni globallashtirish jarayonlarining salbiy oqibatlaridan, ommaviy madaniyatning yot g'oyalardan himoya qilish hammamizning burchimizdir.

¹Bu o'rinda biz "hammasi" degan fikrni aytishdan yiroqmiz.

²Grabe William. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. Cambridge University Press, 2009.

³Slavin Robert. Educational Psychology: Theory and Practice. 8th edition. Pearson Education Limited, 2006. P. 23

⁴Leah Sutton Teaching Shakespeare in the Secondary English Classroom Engaging the "flat unraisèd spirits". Toronto University Press, Canada, 2016; P.

⁵Allen Janet et al. MacDougal Littel Literature. Grade 9. MacDougal Little, 2008.

⁶K.Jalilov Badiiy matn bilan ishlashning zamonaviy tamoyillari va ularning adabiyot o'qitishga ta'siri. Adabiyot fanini zamonaviy o'qitish masalalari. – Toshkent, 2017. 47–52-betlar.

⁷Our favorite videos for teaching Shakespeare. Weareteachers.com.; Romeo and Juliet Kit. By William Shakespeare. Classroom Complete Press. London, 2012; 10 Creative ways to have learning fun Shakespeare. teachingshakespeare.com ea x.k.

⁸K.Jalilov O'quvchilarni Navoiy asarlarini tushunishga tayyorlash strategiyalari. "Alisher Navoiy va XX asr" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent, 2017. 234–236-betlar.



Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi Tabiiy fanlarga
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

“DUNYO DEGAN SHUNDAYIN ANGLAB BO'LMAS SIR EKAN”

Mavzu: Abdulla Oripov she'riyati. “Birinch muhabbatim”, “Qo'riqxon” she'rlari.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: Abdulla Oripov she'riyati mavzu-mohiyatini yoritish, she'riy san'at turlari bilan tanishtirish;

b) tarbiyaviy maqsad: Abdulla Oripov she'riyatida aks ettirilgan insoniylik, ezgulik, mehr-oqibat kabi tuyg'ularni o'quvchilar ongiga singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda she'riyatga havas uyg'otish, tabiat go'zalliklari, inson go'zalliklarini asrashga, qadrlashga bo'lgan tuyg'ularini rivojlantirish.

Dars materiallari va jihozlari: Abdulla Oripov ijodiga oid audio, video tasmlar, mavzuga doir referat va bukletlar, shoirning she'riy to'plamlari, slayd, proyektor, kompyuter, o'rganilgan she'rlardan namunalar, atamalar va tushunchalar yozilgan kartochkalar.

Dars turi: guruhlarda ishlash, noan'anaviy. Darsda qo'llaniladigan usullar: “BBB” “Video topishmoq”, “Ikki yoqlama kundalik”, “Arra”, “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara”, “Asalari boli”, “Bahr-u bayt”, “Davra suhbat”, “Ijodiy izlanish”, “O'rin almashtirish”, “Lola sayli”.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi va ularni darsga jalb qilib, ishchi muhit yaratiladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash: O'quvchilar ikki guruhga ajratiladi. Guruh a'zolari bajargan ishlar “Oftobjon”, “Oymomo”, “Yulduzxon” shaklidagi kartochkalar yordamida baholab boriladi. Abdulla Oripov hayoti va ijodi bo'yicha uyga berilgan vazifalarni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklari “BBB” metodi orqali aniqlanadi. Har bir guruh a'zosi bittadan oq qog'oz olib jadval chizadilar. Jadvalga “Bilaman”, “Bilishni xohlayman”, “Bilib oldim” kataklari chiziladi. Shoir hayotidan bilgan ma'lumotlarni 1-katakka, nimani bilishni xohlasa 2-katakka yozib, bir-birlari bilan o'z ishlarini almashadilar. Har bir guruh a'zosi 2-katakda so'ralgan ma'lumotning javobini yozib, egalariga qaytaradi. 3-katak esa sinfdoshlaridan olgan yangi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. O'quvchilar ishlari yig'ib olingach keltirilgan ma'lumotlar va javoblarga qarab kartochkalar tarqatiladi.

Guruhlar yodlagan she'rlari asosida “Bahr-u bayt” uyushtiriladi. “Bahr-u bayt” aytish navbati slaydda A.Navoiy tilidan ham beriladi. Bunda “Video topishmoq” metodini qo'llab, shoir baytining ma'nosi va A. Oripov ijodidan ham bu baytga hamohang mazmundagi misralarni tahlil qilish topshirig'i beriladi. Masalan, slaydda berilgan bayt:

“So'zki, ma'nosida ishq o'ti nishoni bo'lmag'ay,
Bir taharruksiz badan onglaki, joni bo'lmag'ay”

1-guruh:

Hazrat Alisher Navoiy bu baytida agar so'zda ishq bo'lmasa, uni jonsiz jismga qiyoslash mumkinligini ko'ratib bergan.

2-guruh:

Abdulla Oripovning “Birinch muhabbatim” she'ri inson qalbidagi ana shunday bebaho ma'naviy javhar bo'lgan hisni bayon qiladi.

1-guruh:

O'llohga muhabbat tushunchasining ifodasi shoirmi o'z salafari, ya'ni mumtoz o'zbek shoirlarining estetik olami bilan bog'lashga yordam beradi.

2-guruh:

Ushbu betakror she'r odamga “hamisha bir sirga asir”likni eslatib turadi; bunday go'zal his-tuyg'uga nisbatan hech kim beparvo bo'la olmaydi.

Yuqoridagi metodlardan foydalanish o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash va o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantiradi.

Uyga vazifani o'qituvchi o'quvchilar fikrini to'ldirib, o'z fikrlari bilan xulosalaydi.

III. Yangu mavzu bayoni.

Aziz bolajonlar, bugun darsimizni Abdulla Oripovning buloqdek tiniq, oftobdek qaynoq, purviqor tog'lardek sermazmun ijodiga bag'ishlaymiz. O'z zamonasidagi qiyinchiliklarga qaramay matonat bilan yashab o'tgan shoirning hayot yo'li barchamizga namuna bo'la oladi. Nohaqlik va adolatsizliklar shoir qaddini bukmadi. Aksincha, uning halol mehnati, insoniy go'zalliklarni madh etgan she'rlari yillar o'tgan sayin qadrlanib, sayqallanib boraverdi.

Keling, e'tiboringizni ekranga qaratib, “Birinch muhabbatim”, “Qo'riqxon” she'rlarini tinglaysiz. She'rlarda sof qalb, pok niyatli, toza yurakli odam hamisha qadri ekanligi, bunday insonni asrash kerakligi uqtiliradi. Endi esa, ekranda namoyish etiladigan qo'riqxon va unda qo'riqlanayotgan jonivorlarni ko'rib, qalbimizda qo'riqxon yaratishni tasavvur qilamiz. O'z qalbimizda asrashimiz lozim bo'lgan tuyg'ular haqida bahslashamiz. “Davra suhbat”i qurib, shoirning ushbu she'rlari orqali nima demoqchi ekanligini tahlil qilamiz.

Bu metod natijasida kommunikativ ijtimoiy faol fuqarolik hamda axborot bilan ishlash kompetensiyasi rivojlanadi.

IV. Darsni mustahkamlash.

Guruhlar o'qituvchi yordamida tahlilni davom ettiradilar. She'rlar mazmuni bosqichma-bosqich tahlil qilinadi.

Bu jarayondan keyin o'quvchilar daftarlariga “Ikki yoqlama kundalik” metodini amalga oshiradilar. Buning uchun daftar varag'i ikki qismga, ustun holatida ajratiladi. Birinch ustunga she'rlardan namunalarini darslikdan ko'chirib yozadilar, ikkinchi ustunga o'quvchilar mustaqil fikrlari, baholarini yozadilar. Masalan:

Iymonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi.

Insoniy fazilatlarning barchasini o'zida mujassam etgan imon tushunchasini asrash hamma zamonlarda ham eng dolzarb masaladir. Vijdon, “ezgu, latif hislar” ham himoyaga muhtojligi bejizga uqtililmagan. Qachonlardir bo'lgan Qor odamlar hozirda borligiga shubhalanganimizdek, kelajak avlod imon, vijdon kabi latif hislar dunyoni ushlab turganligiga ishonmay qolishmasin.

Keyingi jarayonda “Lola sayli” metodini qoʻllab, darslikda berilgan shoir sheʼrlaridan ritorik soʻroq gaplarni qidirish va ajratib yozish boʻyicha “Kim koʻp lola terdi?” musobaqasi uyushtiriladi. Masalan:

1-guruh:

*Qani ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bagʻrimni, ohang.
Nechun kerak boʻldi, senga koʻz yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha gʻam!*

2-guruh:

*Qaylardan kelmoqda bu oh-u faryod.
Kim u yigʻlayotgan, Navoiymikin,
Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!*

1-guruh:

*Nahotki dunyoda shuncha gʻam bordir...
Agar shu “Munojot” rost boʻlsa agar.*

2-guruh:

*Kuyi shunday boʻlsa, gʻamning oʻziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod!*

Sheʼrlar mazmuni oʻrganilgach, keyingi bosqichda sheʼriy sanʼat turlari tahlil qilinadi.

Guruhlar oʻqituvchi yordamida sheʼriy sanʼat turlari boʻyicha tahlilni “arra” usulida ketma-ketlikda bajaradi.

1-guruh: Epifora – sheʼr misralari oxirida tovush, soʻz va iboralar takrorlanishi:

*Yoʻlin yoʻqotsa odam – muhabbatga suyangay.
Gʻussaga botsa odam – muhabbatga suyangay.
Chorasiz qotsa odam – muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim.
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.*

2-guruh: Tanosub – bir-biriga bogʻliq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi soʻzlarni qoʻllash:

*Yoʻlin yoʻqotsa odam,
Gʻussaga botsa odam,
Chorasiz qotsa odam.*

1-guruh: Tajziya-Bayt – misralarning har birini ikki boʻlakka ajratib, birinchi boʻlakni ham, ikkinchi boʻlakni ham oʻzaro qoʻfiyalash sanʼati:

*Yoʻlin yoʻqotsa odam – muhabbatga suyangay.
Gʻussaga botsa odam – muhabbatga suyangay.
Chorasiz qotsa odam – muhabbatga suyangay.*

2-guruh: Sifatlash – narsa va hodisalarga belgi, xususiyatni tavsiflovchi soʻz qoʻllash:

*Erta xazon gul kabi sargʻayib soʻlganim yoʻq.
Erta xazon gul kabi soʻzlari sifatlash.*

1-guruh: Intoq – nutqsiz narsalar nutq egasi sifatida tasvirlanadi:

*Eshilib, toʻlgʻonib ingranadi kuy,
Asrlar gʻamini soʻylar “Munojot”.
Agar aldama shu sovuq simlar.*



2-guruh: Istiora – soʻz maʼnolari koʻchishi, yaʼni soʻzni oʻz maʼnosida emas, boshqa maʼnoda qoʻllash:

*Ezgu, latif hislar boʻlmasin tahqir,
Bulbulni boyqushga topshirmang zinhor.*

Guruhlar badiiy sanʼat turlarini topish boʻyicha musobaqani tugatgach ballar beriladi.

Keyingi topshiriq “Oʻrin almashtirish” deb nomlanadi. Bunda shoirning sheʼrlaridan birini uning nomidagi harflar bilan boshlanuvchi satrlarga (sheʼr mazmunini oʻzgartirmasdan, baʼzi soʻzlarni zaruratga qarab oʻzgartirish mumkin) almashtiriladi.

Oʻqituvchi misol tariqasida koʻrsatib beradi, oʻquvchilar shu tarzda topshiriqni bajaradilar.

Namuna: “Birinchi muhabbatim” sheʼri bilan koʻrsatib beriladi.

*Ayri ham tushdi baʼzan qalb bilan, imon bilan,
Birinchi muhabbatim, birinchi muhabbatim.
Dunyo degan shundayin anglab boʻlmas sir ekan,
U gohida keng ekan, tuynuksiz qasr ekan.
Lekin inson hamisha bir sirga asir ekan,
Lek senga suyangayman, birinchi muhabbatim,
Avval Olohim mening, birinchi muhabbatim.*

Har bir satr bosh harflari oʻqilganda Abdulla soʻzi kelib chiqishi oʻquvchilarga koʻrsatib beriladi.

Oʻquvchilar bilan birgalikda “Yurtim shamoli” sheʼridan shoirning familiyasiga mos satrlar bilan boshlanuvchi sheʼr hosil qilinadi.

Namuna:

*O, yurtim shamoli, yurtim shamoli,
Ruhimning boʻlgin sen mangu xayoli.
Illo boʻlmasin hech bogʻlar zavoli,
Payti kelsa chorlar oliy bir jamol,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli,
Vale, Abdullaning boqiy kamoli.*

Guruhlarda shoir sheʼrlari bilan shu tariqa topshiriq asosida musobaqa davom ettiriladi.

Yuqoridagi metodlar milliy va umummadaniy, nutqiy, oʻzini oʻzi rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

VI. Baholash.

Guruhlar ballari “Asalari boli” metodida aniqlanadi. Guruh sardorlari guruh aʼzolaridan olgan kartochkalarini yigʻib taqdim etadilar. Ballar natijasida oʻrinlari aniqlanadi. Faol oʻquvchilarga ragʻbat kartochkalari topshiriladi. Oʻquvchilar bajargan yozma va ogʻzaki javoblar uchun alohida baholar chiqariladi va yuzaga kelgan savollarga javob beriladi.

VI. Uygʻa vazifa.

Oʻrganilgan mavzu yuzasidan savollarga javoblar tayyorlash, dars jarayonida bajarilgan Abdulla Oripov ismi yoki familiyasidagi harflar bilan shoir sheʼrlari asosida, sheʼr yozish qobiliyati bor oʻquvchilar uchun esa mustaqil sheʼr yozish topshirigʻi beriladi.

SONLARNING MA'NO GURUHLARI

(6-sinf, IV chorak)

Darsning maqsadi:

a) **ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga sonning ma'no guruhlari haqida ma'lumot berish, nutqda ulardan o'rinli foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish;

b) **tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarga ma'naviy va estetik tarbiya berish, ularda insoniy fazilatlarini rivojlantirish, milliy qadriyatlariga hurmat hissini o'stirish;

d) **rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati va savodxonligini oshirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Blits-so'rov", "Kim zukko va topqir?"

Darsda foydalaniladigan jihozlar: mavzuga oid tarqatmalar, ko'rgazmalar, kompyuter, videoprojektor, turli rangdagi sharchalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashgach, davomat aniqlanadi, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa shaklida olib borilishi e'lon qilinib, o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi: "Tartib sonlar", "Miqdor sonlar".

Dars davomida guruhlar ishtiroklariga ko'ra qizil (a'lo), yashil (yaxshi), sariq (qoniqarli) rangli kartochkalar bilan baholalanib borishi aytiladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzu yuzasidan qisqacha savol-javobdan keyin o'quvchilar topshiriq matnidagi sonlarni ma'nosiga ko'ra guruhlaydi va ular ishtirokida gaplar tuzadi. So'ng ekranda uyga vazifa sifatida berildan 403-mashqdagi tarjimayi hol namunasi ko'rsatiladi. O'quvchilar o'zlari yozib kelgan uy ishlarini ekranga qarab tekshirib olishadi. Guruh sardorlari guruhida kimlar uy ishini bajarmaganligini ma'lum qiladi.


III. Yangi mavzu bayoni.

Darsning ushbu bosqichi 404-mashqni og'zaki bajarish bilan boshlanadi. Har bir guruh bittadan gapni o'qib, gaplarda ishtirok etgan sonlarni taqqoslaydi. Ularning o'rtasidagi farqlarni tushuntiradi. To'g'ri javob bergan guruhga rag'bat kartochkasi topshiriladi.

So'ng slaydlar yordamida yangi mavzu tushuntiriladi:

Sonlar narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- 1) miqdor sonlar;
- 2) tartib sonlar.



Yangi mavzu tushuntirilgach, o'qituvchi sonlarning ma'no guruhlaridan birining nomi va qoidasini aytadi, guruhlar esa misollar keltiradi. Tez va to'g'ri javob bergan guruh rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadi:

O'qituvchi: Son-sanoqni bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi. Sanoq sonlar yozuvda ko'pincha arab raqami bilan yoziladi. Masalan: ikki, uch, besh, yigirma kabi.

"Tartib sonlar" guruhi: Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber! (Maqol)

"Miqdor sonlar" guruhi: Yetti o'lchab, bir kes. (Maqol)

O'qituvchi: Narsalarning miqdorini donalab ifodalaydigan sonlar dona sonlar deyiladi. Ular **-ta** qo'shimchasi yordamida yasaladi. Bu qo'shimcha urg'u olmaydi.

"Tartib sonlar" guruhi: Prezidentimiz yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha ilgari surgan tashabbuslar ijrosini ta'minlash maqsadida maktabimizda "Bir farzandga uch kitob" aksiyasi o'tkazildi.

"Miqdor sonlar" guruhi: Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni besh dostonidan iborat.

O'qituvchi: Narsalarning miqdorini chamalab ko'rsatadigan sonlar chama sonlar deyiladi. Ular **-tacha, -lab, -larcha** qo'shimchalari bilan yasaladi.

"Tartib sonlar" guruhi: Barvasta, yoshi ellikka borib qolgan bo'lsa ham, qomati sambitdek tik.

"Miqdor sonlar" guruhi: Ichkaridan yoshi yetmishlardan oshgan nuroniy bir chol chiqib keldi.

O'qituvchi: Narsalarning miqdorini jamlab ko'rsatadigan sonlar jamlovchi sonlar deyiladi. Ular **-ov, -alla, -ovlon** qo'shimchalari yordamida yasaladi.

"Tartib sonlar" guruhi:

To'rtovlon tugal bo'lsa,

Ko'kdagini undirar.

Oltovlon ola bo'lsa,

Og'zidagin oldirar.

"Miqdor sonlar" guruhi: Beshovlon bir bo'lib yovni yengdi. (Ertakdan)

O'qituvchi: Narsalarning miqdorini taqsimlab ko'rsatadigan sonlar taqsim sonlar deyiladi. Ular **-tadan** qo'shimchasi yordamida yasaladi.

"Tartib sonlar" guruhi: Laylak har yili uchtdan bola ochar ekan.

"Miqdor sonlar" guruhi: Ular ikkitadan bo'lib saf tortishdi.

O'qituvchi: Butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlar kasr son deyiladi.

"Tartib sonlar" guruhi: O'quvchilar vazifani bajargunicha yarim soat vaqt o'tdi.

"Miqdor sonlar" guruhi: Rejaning uchdan ikki qismi bajarildi.

O'qituvchi: Narsalarning ketma-ketlik tartibini bildiradigan sonlar tartib sonlar deyiladi. Ular **-(i)nchi** qo'shimchasi yordamida yasaladi. Masalan, Prezidentimizning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surgan tashabbuslarining birinchisi – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Davom ettiring!

“**Tartib sonlar**” guruhi: 2-tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. 3-tashabbus esa aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishga yo'naltirilgan.

“**Miqdor sonlar**” guruhi: 4-tashabbus – kitobxonlikni keng targ'ib qilish. 5-tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashdan iborat.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzu mushqlar bajarish asosida mustahkamlanadi.

405-mashq topshirig'iga ko'ra o'quvchilar nuqtalar o'rniga berilgan sonlardan mosini qo'yib berilgan gaplarni ko'chiradilar. **406-mashq**dagi boshqotirma guruhlar tomonidan “**Kim zukko va topqir?**” texnologiyasidan foydalanib bajariladi.

So'ng S.Mamadaliyev ijrosidagi “Raqamlar” qo'shig'ining videoroligi namoyish etiladi va guruhlardan she'rdagi sonlarni topish so'raladi. Guruhlar javoblariga ko'ra rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadilar.

V. O'quvchilarni baholash va rag'batlantirish.

Rag'bat kartochkalari hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi. Faol qatnashgan o'quvchilar va g'olib guruh a'zolari rag'batlantiriladi. Barcha o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

1. **409-mashq.** Avval miqdor sonlar, keyin tartib sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirish.

2. Adabiyot darsida o'tilayotgan Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridan olingan parchadan sonlarning ma'no turlariga misollar topib yozib kelish.

Sotiboldi ODILOV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti
O'zbek tili kafedrasida katta o'qituvchisi

TASVIRIY IFODA MAVZUSINI O'RGANISH

(5-sinf, IV chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga tasviriy ifoda haqida tushuncha berish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda turli soha va kasblarga hurmat tuyg'usini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirib, mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar: axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, matematik savodxonlik, nutqiy, lingvistik.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: “O'z o'rnini top”, “Kim birinchi?”, “Aqliy hujum”.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, savolnomalar, slydlar, tarqatma materiallar, rag'bat kartochkalari, kompyuter, ekran.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi, sinf xonasining tozaligi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa tarzida tashkil etilishi e'lon qilinib, guruhlariga ajratiladi: “**Qo'shma so'z**”, “**Ibora**”, “**So'z birikmasi**”.

Guruhlarning darsda ishtiroki “Ofarin!” (5 ball), “Barakalla” (4 ball), “Rahmat!” (3 ball) rag'bat kartochkalari bilan taqdirlanib borishi aytiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Dars o'tgan mashg'ulotda o'rganilgan “Iboralarning qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqi” mavzusini so'rash va takrorlash bilan boshlanadi. Uyga vazifa sifatida berilgan 545-mashq hamda o'tgan mashg'ulotda ishlangan mashqlar yuzasidan “**O'z o'rnini top**” didaktik o'yinini o'tkazish orqali o'quvchilarning mavzuni qanday o'zlashtirganliklari aniqlab olinadi. O'yin sharti: mashqlar tarkibidan olingan *Ko'ksaroy, shifobaxsh, sayr qilish, iliq so'z, yeng shimarib, ko'z ochib yumguncha, ipning uzunligi, otquloq, shu payt, yordam so'rashdi, uchinchi odam, yuragi tor, pichog'ini uzatdi, boshi osmonga yetdi, mallarang qumtepalar, og'zi qulog'ida* birliklari (so'z birikmalari, iboralar, qo'shma so'zlar)ni berilgan jadvalga joylashtirish.

Jadval vatman qo'g'ozga chizilib, doskaga ilib qo'yiladi va har bir guruh o'zlariga tegishli bo'lgan birliklarni jadvalga (o'z o'rniga) joylashtiradilar. Har bir guruh o'z nomiga tegishli atamaning mohiyatini izohlaydi. Topshiriq o'quvchilar tomonidan quyidagicha bajariladi:

Qo'shma so'zlar	So'z birikmalari	Iboralar
Ko'ksaroy, shifobaxsh, sayr qilish, yengil qiladi, otquloq, shu payt, yordam so'rashdi	Iliq so'z, ipning uzunligi, uchinchi odam, pichog'ini uzatdi, mallarang qumtepalar	Yeng shimarib, ko'z ochib yumguncha, og'zi qulog'ida, boshi osmonga yetdi, yuragi tor

Guruhlar javoblariga ko'ra rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadilar.

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu bo'yicha berilgan topshiriqda o'rmon podshosi, ko'zimning nuri, bilim manbai, zangori kema kabi so'z birikmalarining ma'nosini izohlash talab etilgan. O'quvchilar ularning ma'nosini aniqlashga harakat qiladilar. Agar o'quvchilar qiynalsa, ularga quyidagi yo'naltiruvchi savollar beriladi: 1. Ertaklarda qaysi hayvon o'rmon podshosi sifatida tilga olinadi?

2. Ota-ona uchun kim ko'zning nuriga teng hisoblanadi?

3. Biz bilimlarni qaysi manbadan o'rganamiz?

4. Ma'lumki, paxta qo'l mehnati yordamida yig'ishtirib olinadi. Ayting-chi, paxtani yig'ib olishda dehqonlarga yana nima ko'maklashadi?

Shu savollar yordamida *sher, farzand, kitob, paxta terish mashinasi* kabi so'zlar aniqlanadi. Galdagi vazifa o'quvchilar bilan hamkorlikda tasviriy ifodaning ta'rifini keltirib chiqarish. Bu ishni amalga oshirish uchun ham kichik suhbat tashkil qilish lozim bo'ladi. Bunda o'quvchilarga quyidagi savollarni berish o'rinni bo'ladi:

1. Biz tanishgan birikmalarining ma'nosi nimaga teng kelyapti?

2. So'zlar orqali narsa va hodisalar tasvirlanyapti. Shu narsa va hodisalar so'z birikmalari orqali ifodalanganda boshqa biror harsa va hodisaga o'xshatilyaptimi?

3. Barakalla, o'quvchilar, ular boshqa narsa va hodisaga o'xshatib tasvirlab ifodalangan ekan. Aytinglarchi, biz tanishgan so'z birikmalari o'zlarini ifodalayotgan narsa va hodisalarning ikkinchi nomi bo'la oladimi?

4. So'zlar o'rniga yuqoridagi kabi so'z birikmalarini qo'llash qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz?

5. Sizlar ham shunga o'xshash misollarni bilasizmi?

Suhbat yakunlangach, tasviriy ifodaning qoidasi keltirib chiqariladi va nutqdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Biror narsa va hodisani boshqa narsa va hodisaga o'xshatish orqali tasvirlab ifodalashga tasviriy ifoda deyiladi. Tasviriy ifodalar narsa va hodisaning ikkinchi nomi hisoblanadi.

Tasviriy ifodalar nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslikdagi 544-mashqda tasviriy ifodalarni yozish va ularga izoh berish topshirig'i berilgan. Mashqni bajarish uchun sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi va "Kim birinchi?" o'yinida ishtirok etadi. O'qituvchi tomonidan mashqda berilgan tasviriy ifodalar uch nuxxada yozilib, doskaga ilib qo'yiladi. Guruh a'zolari tezlik bilan tasviriy ifodalarga mos so'zlarni yozishlari talab etiladi. Birinchi bo'lib bajargan guruh a'zolari rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadi. Topshiriq o'quvchilar tomonidan quyidagicha bajariladi:


Tasviriy ifodalar	Izohi
Mo'yqalam sohibi	Rassom
Salomatlik posbonlari	Shifokorlar
Charm qo'lqop ustalari	Boksyorlar
G'azal mulkinging sultoni	Alisher Navoiy
Hayotimiz qomusi	Konstitutsiya

545 va 546-mashqlar og'zaki bajarilib, ulardagi tasviriy ifodalarning ma'nosi izohlanadi:

Zangori ekran	Televizor
Oq oltin ijodkorlari	Paxtakorlar
Baraka urug'i	Chigit
Yaylov bahodirlari	cho'ponlar

Qanotli do'stlar	Qushlar
Qora oltin	Neft

547-mashqda *kumush tola, o'rmon malikasi, aql gimnastikasi, oltin boshqoq* tasviriy ifodalarga izoh berish va ular ishtirokida gaplar tuzish vazifasi berilgan. Bu mashqni bajarishda slaydlardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga quyidagi rasmlar namoyish qilinadi va ular rasmlarga qarab tasviriy ifodani aniqlaydilar, gaplar tuzadilar.



Galdagi vazifa muammoli savollar bilan ishlash bo'ladi. Buning uchun tanishilgan tasviriy ifodalarga tayangan holda guruhlariga "Aqliy hujum" usulidan foydalanib muammoli savollarni beriladi.

"Qo'shma so'z" guruhiga: O'quvchilar, aql gimnastikasi tasviriy ifodasi shaxmatni ham, matematika fanini ham bildirar ekan. Biz bu hodisani qanday izohlashimiz mumkin?

Guruh javobi: Shakldoshlik hodisasi tasviriy ifodaga ham xos ekan. Demak, aql gimnastikasi tasviriy ifodasini shakldosh tasviriy ifoda desak to'g'ri bo'ladi.

"Ibora" guruhiga: 545-mashq orqali televizor so'zi o'rnida zangori ekran tasviriy ifodasi ishlatilishini bilib oldik. Ayting-chi, televizor so'zi o'rnida yana qanday tasviriy ifoda ishlatiladi? Biz buni tildagi qaysi hodisa bilan izohlaymiz?

Guruh javobi: Televizor o'rnida oinai jahon tasviriy ifodasi ham ishlatiladi. Demak, tasviriy ifodada ham ma'nodoshlik hodisasi uchrar ekan.

"So'z birikmasi" guruhiga: Biz o'tgan darsimizda ibora mavzusi bilan tanishgan edik. Ibora bilan tasviriy ifoda bir-biriga o'xshaydimi?

Guruh javobi: Ibora ham, tasviriy ifoda ham so'z birikmasi shaklida bo'lar ekan, shu bilan birga ular bir so'roqqa javob bo'lishi bilan ham bir-biriga o'xshaydi.

Shundan so'ng darslikdagi savol va topshiriqlar bilan ishlanib, o'quvchilarning tasviriy ifoda yuzasidan olgan bilimlari aniqlanadi va mustahkamlanadi. Dars so'ngida bugungi mashg'ulotda o'rganilgan tasviriy ifodalarning lug'atini tuzish maqsadga muvofiq. Lug'at alifbo tarzida tuziladi. O'quvchilar lug'atni daftarlariga yozib oladilar.

V. Baholash va rag'batlantirish.

Guruhlar tomonidan to'plangan ballar umumlashtirilib, g'olib guruh e'lon qilinadi. Darsda ishtirokiga ko'ra barcha o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

548-mashqni bajarish va mashqdagi tasviriy ifodalarga mos rasmlar chizib kelish.

“**Tartib sonlar**” guruhi: 2-tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. 3-tashabbus esa aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishga yo'naltirilgan.

“**Miqdor sonlar**” guruhi: 4-tashabbus – kitobxonlikni keng targ'ib qilish. 5-tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashdan iborat.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzu mushqlar bajarish asosida mustahkamlanadi.

405-mashq topshirig'iga ko'ra o'quvchilar nuqtalar o'rniga berilgan sonlardan mosini qo'yib berilgan gaplarni ko'chiradilar. **406-mashq**dagi boshqotirma guruhlar tomonidan “**Kim zukko va topqir?**” texnologiyasidan foydalanib bajariladi.

So'ng S.Mamadaliyev ijrosidagi “Raqamlar” qo'shig'ining videoroligi namoyish etiladi va guruhlardan she'rdagi sonlarni topish so'raladi. Guruhlar javoblariga ko'ra rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadilar.

V. O'quvchilarni baholash va rag'batlantirish.

Rag'bat kartochkalari hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi. Faol qatnashgan o'quvchilar va g'olib guruh a'zolari rag'batlantiriladi. Barcha o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

1. **409-mashq.** Avval miqdor sonlar, keyin tartib sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirish.

2. Adabiyot darsida o'tilayotgan Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridan olingan parchadan sonlarning ma'no turlariga misollar topib yozib kelish.

Sotiboldi ODILOV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti
O'zbek tili kafedrasida katta o'qituvchisi

TASVIRIY IFODA MAVZUSINI O'RGANISH

(5-sinf, IV chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga tasviriy ifoda haqida tushuncha berish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda turli soha va kasblarga hurmat tuyg'usini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirib; mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar: axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, matematik savodxonlik, nutqiy, lingvistik.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: “O'z o'rmini top”, “Kim birinchi?”, “Aqliy hujum”.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, savolnomalar, slaydlar, tarqatma materiallar, rag'bat kartochkalari, kompyuter, ekran.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi, sinf xonasining tozaligi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa tarzida tashkil etilishi e'lon qilinib, guruhlarga ajratiladi: “**Qo'shma so'z**”, “**Ibora**”, “**So'z birikmasi**”.

Guruhlarning darsda ishtiroki “Ofarin!” (5 ball), “Barakalla” (4 ball), “Rahmat!” (3 ball) rag'bat kartochkalari bilan taqdirlanib borishi aytiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Dars o'tgan mashg'ulotda o'rganilgan “Iboralarning qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqi” mavzusini so'rash va takrorlash bilan boshlanadi. Uyga vazifa sifatida berilgan 545-mashq hamda o'tgan mashg'ulotda ishlangan mashqlar yuzasidan “**O'z o'rmini top**” didaktik o'yinini o'tkazish orqali o'quvchilarning mavzuni qanday o'zlashtirganliklari aniqlab olinadi. O'yin sharti: mashqlar tarkibidan olingan *Ko'ksaroy, shifobaxsh, sayr qilish, iliq so'z, yeng shimarib, ko'z ochib yumguncha, ipning uzunligi, otquloq, shu payt, yordam so'rashdi, uchinchi odam, yuragi tor, pichog'ini uzatdi, boshi osmonga yetdi, mallarang qumtepalar, og'zi qulog'ida* birliklari (so'z birikmalari, iboralar, qo'shma so'zlar)ni berilgan jadvalga joylashtirish.

Jadval vatman qo'g'ozga chizilib, doskaga ilib qo'yiladi va har bir guruh o'zlariga tegishli bo'lgan birliklarni jadvalga (o'z o'rniga) joylashtiradilar. Har bir guruh o'z nomiga tegishli atamaning mohiyatini izohlaydi. Topshiriq o'quvchilar tomonidan quyidagicha bajariladi:

Qo'shma so'zlar	So'z birikmalari	Iboralar
Ko'ksaroy, shifobaxsh, sayr qilish, yengil qiladi, otquloq, shu payt, yordam so'rashdi	Iliq so'z, ipning uzunligi, uchinchi odam, pichog'ini uzatdi, mallarang qumtepalar	Yeng shimarib, ko'z ochib yumguncha, og'zi qulog'ida, boshi osmonga yetdi, yuragi tor

Guruhtar javoblariga ko'ra rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadilar.

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu bo'yicha berilgan topshiriqda o'rmon podshosi, ko'zimning nuri, bilim manbai, zangori kema kabi so'z birikmalarining ma'nosini izohlash talab etilgan. O'quvchilar ularning ma'nosini aniqlashga harakat qiladilar. Agar o'quvchilar qiynalsa, ularga quyidagi yo'naltiruvchi savollar beriladi: 1. Ertaklarda qaysi hayvon o'rmon podshosi sifatida tilga olinadi?

2. Ota-ona uchun kim ko'zning nuriga teng hisoblanadi?

3. Biz bilimlarni qaysi manbadan o'rganamiz?

4. Ma'lumki, paxta qo'l mehnati yordamida yig'ishtirib olinadi. Ayting-chi, paxtani yig'ib olishda dehqonlarga yana nima ko'maklashadi?

Shu savollar yordamida *sher, farzand, kitob, paxta terish mashinasi* kabi so'zlar aniqlanadi. Galdagi vazifa o'quvchilar bilan hamkorlikda tasviriy ifodaning ta'rifini keltirib chiqarish. Bu ishni amalga oshirish uchun ham kichik suhbat tashkil qilish lozim bo'ladi. Bunda o'quvchilarga quyidagi savollarni berish o'rinli bo'ladi:

1. Biz tanishgan birikmalarining ma'nosi nimaga teng kel-yapti?

2. So'zlar orqali narsa va hodisalar tasvirlanyapti. Shu narsa va hodisalar so'z birikmalari orqali ifodalanganda boshqa biror harsa va hodisaga o'xshatilyaptimi?

3. Barakalla, o'quvchilar, ular boshqa narsa va hodisaga o'xshatib tasvirlab ifodalangan ekan. Aytinglarchi, biz tanishgan so'z birikmalari o'zlari ifodalayotgan narsa va hodisalarning ikkinchi nomi bo'la oladimi?

4. So'zlar o'rniga yuqoridagi kabi so'z birikmalarini qo'llash qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz?

5. Sizlar ham shunga o'xshash misollarni bilasizmi?

Suhbat yakunlangach, tasviriy ifodaning qoidasi keltirib chiqariladi va nutqdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Biror narsa va hodisani boshqa narsa va hodisaga o'xshatish orqali tasvirlab ifodalashga tasviriy ifoda deyiladi. Tasviriy ifodalar narsa va hodisaning ikkinchi nomi hisoblanadi.

Tasviriy ifodalar nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslikdagi 544-mashqda tasviriy ifodalarni yozish va ularga izoh berish topshirig'i berilgan. Mashqni bajarish uchun sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi va "Kim birinchi?" o'yinida ishtirok etadi. O'qituvchi tomonidan mashqda berilgan tasviriy ifodalar uch nusxada yozilib, doskaga ilib qo'yiladi. Guruh a'zolari tezlik bilan tasviriy ifodalarga mos so'zlarni yozishlari talab etiladi. Birinchi bo'lib bajargan guruh a'zolari rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadi. Topshiriq o'quvchilar tomonidan quyidagicha bajariladi:


Tasviriy ifodalar	Izohi
Mo'yqalam sohibi	Rassom
Salomatlik posbonlari	Shifokorlar
Charm qo'lqop ustalari	Boksyorlar
G'azal mulkingning sultoni	Alisher Navoiy
Hayotimiz qomusi	Konstitutsiya

545 va 546-mashqlar og'zaki bajarilib, ulardagi tasviriy ifodalarning ma'nosi izohlanadi:

Zangori ekran	Televizor
Oq oltin ijodkorlari	Paxtakorlar
Baraka urug'i	Chigit
Yaylov bahodirlari	cho'ponlar

Qanotli do'stlar	Qushlar
Qora oltin	Neft

547-mashqda *kumush tola, o'rmon malikasi, aql gimnastikasi, oltin boshqoq* tasviriy ifodalarga izoh berish va ular ishtirokida gaplar tuzish vazifasi berilgan. Bu mashqni bajarishda slaydlardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga quyidagi rasmlar namoyish qilinadi va ular rasmlarga qarab tasviriy ifodani aniqlaydilar, gaplar tuzadilar.



Galdagi vazifa muammoli savollar bilan ishlash bo'ladi. Buning uchun tanishilgan tasviriy ifodalarga tayangan holda guruhtarga "Aqliy hujum" usulidan foydalanib muammoli savollarni beriladi.

"Qo'shma so'z" guruhiga: O'quvchilar, aql gimnastikasi tasviriy ifodasi shaxmatni ham, matematika fanini ham bildirar ekan. Biz bu hodisani qanday izohlashimiz mumkin?

Guruh javobi: Shakkdoshlik hodisasi tasviriy ifodaga ham xos ekan. Demak, aql gimnastikasi tasviriy ifodasini shakkdosh tasviriy ifoda desak to'g'ri bo'ladi.

"Ibora" guruhiga: 545-mashq orqali televizor so'zi o'rinda zangori ekran tasviriy ifodasi ishlatilishini bilib oldik. Ayting-chi, televizor so'zi o'rinda yana qanday tasviriy ifoda ishlatiladi? Biz buni tildagi qaysi hodisa bilan izohlaymiz?

Guruh javobi: Televizor o'rinda oinai jahon tasviriy ifodasi ham ishlatiladi. Demak, tasviriy ifodada ham ma'nodoshlik hodisasi uchrar ekan.

"So'z birikmasi" guruhiga: Biz o'tgan darsimizda ibora mavzusi bilan tanishgan edik. Ibora bilan tasviriy ifoda bir-biriga o'xshaydimi?

Guruh javobi: Ibora ham, tasviriy ifoda ham so'z birikmasi shaklida bo'lar ekan, shu bilan birga ular bir so'roqqa javob bo'lishi bilan ham bir-biriga o'xshaydi.

Shundan so'ng darslikdagi savol va topshiriqlar bilan ishlanib, o'quvchilarning tasviriy ifoda yuzasidan olgan bilimlari aniqlanadi va mustahkamlanadi. Dars so'ngida bugungi mashg'ulotda o'rganilgan tasviriy ifodalarning lug'atini tuzish maqsadga muvofiq. Lug'at alifbo tarzida tuziladi. O'quvchilar lug'atni daftarlariga yozib oladilar.

V. Baholash va rag'batlantirish.

Guruhlar tomonidan to'plangan ballar umumlashtirilib, g'olib guruh e'lon qilinadi. Darsda ishtirokiga ko'ra barcha o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

548-mashqni bajarish va mashqdagi tasviriy ifodalarga mos rasmlar chizib kelish.

Nodira ABDULLAYEVA,

Namangan viloyati Uychi tumani

27-maktabning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

DARS SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI VOSITALAR

"Raqamli axborot" usuli

Bunda o'quvchilarga raqamlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalardagi raqamlar bilan bog'liq ona tili va adabiyot faniga oid ma'lumotlarni keltiradilar. Masalan, 5 raqamini olaylik, ona tili fani bilan bog'liq ma'lumotlar: gap bo'laklari 5 ta, fe'l nisbatlari 5 ta, mustaqil so'zlardan 5 tasi atash ma'nosiga ega va hokazo. Adabiyot fanidan: Muxammasning har bir bandi 5 qatordan iborat, "Xamsa" 5 dostonidan tashkil topgan asar. G'azallarning eng keng tarqalgani 5–7 baytdan iborat g'azallardir va hokazo. Bu usuldan takrorlash, mustahkamlash darslarida foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki bu usul orqali o'quvchilarda yillar davomida o'rganilgan bilimlarni umumlashtirish, yodda saqlash malakasi shakllanadi.

"Teskari test" usuli

Bu usulda o'quvchilardan testning javobini topish emas, belgilab qo'yilgan to'g'ri javobga mos keladigan savol o'ylab topish topshirig'i beriladi. Bu usulning foydali tomoni shundaki, bitta javob testga o'quvchilar o'z bilim va iqtidoridan kelib chiqib, bir nechta savol tuzishlari mumkin. Bu esa o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Teskari testga misol:

- A. G'azal mulkining sultoni
- B. Avliyolarning avliyosi
- C. Muqarrabi shohiy**
- D. Zullisonayn shoir.

Yuqoridagi testga o'quvchilar quyidagi savollarni tuzishi mumkin:

1-savol: Alisher Navoiyga berilgan oliy martaba nomini toping.

2-savol: Qaysi javobda Husayn Boyqaro tomonidan Alisher Navoiyga berilgan oliy martaba nomi keltirilgan?

3-savol: Podshohga bir masala yuzasidan ketma-ket 7 martagacha murojaat huquqini beruvchi oliy martaba nomi keltirilgan qatorni toping.

"Dorskani tozalash" usuli

Bu usul har bir darsda, har qanday sharoitda qo'llashga qulayligi bilan ajralib turadi. Dorskaga mavzuga doir qisqa ma'lumotlar yoziladi. O'quvchilar esa bu ma'lumotlarni aniqlashtiradilar, to'ldiradilar. To'ldirilgan ma'lumotlar esa o'qituvchi tomonidan o'chirib boriladi. Masalan: Said Ahmad hayoti va ijodiga doir quyidagi ma'lumotlar dorskaga yoziladi.

- 1. 1940-yil
- 2. 1943-yil
- 3. 1947-yil
- 4. 1953-yil
- 5. 1976-yil
- 6. "Qirq besh kun"
- 7. "O'zbekiston qahramoni"

Endi bu ma'lumotlar o'quvchilar ishtirokida quyidagicha to'ldiriladi. To'ldirilgan ma'lumotlar dorskadan o'qituvchi tomonidan o'chirib borilaveradi.

1. 1940-yil – Said Ahmadning "Tortiq" nomli dastlabki hikoyalar to'plami.

- 2. 1943-yil – Toshkent pedagogika institutini tamomladi.
- 3. 1947-yil – Said Ahmad "xalq dushmani" sifatida nohaq qamoqqa olindi.
- 4. 1953-yil – U oqlandi.
- 5. 1976-yil – "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasi yaratildi.
- 6. "Qirq besh kun" – "Ufq" trilogiyasining birinchi kitobi.
- 7. "O'zbekiston Qahramoni" – Said Ahmadga "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilgan.

"Qiyoslash" usuli

Qiyoslash usuli o'quvchilarni mustaqil fikr yuritish, mantiqiy xulosa chiqarishga undaydi. Qiyoslash asosida mushohada yuritish narsa-predmetlar, voqealar, jarayonlar, kishilar orasidagi umumiy o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarni belgilashga imkon berib, talabalarning fikrlash layoqati, o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga samarali ta'sir qiladi. Qiyoslash jarayonida FSMU texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi.

- F** ----- Fikr bering
- S** ----- Sababini ko'rsating
- M** ----- Misol keltiring
- U** ----- Umumlashtiring

O'quvchilarga "Dahshat" hikoyasi qahramoni Unsin va "Yovvoyi yo'rg'a" hikoyasi qahramoni Yo'rg'ani FSMU texnologiyasi asosida qiyoslash topshirig'i beriladi. O'quvchilar topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin.

F – Yovvoyi yo'rg'a ozodlik timsoli.

S – U o'z ozodligi erki yo'lida bir to'da insonlarning turli xil tuzoqlari hiyla-nayranglariga ro'baro' keldi. Lekin shunda ham u taslim bo'lmadi. O'z yo'lidan qaytmadi.

M – Asardan aynan yuqoridagilarga misol keltirsak.

Yovvayi yo'rg'a bor kuchini yig'ib ozodlik yolida jon jahdi bilan yonbag'ir bo'ylab yuqoriga talpindi.

Yana, yuqoriladi, badaniga botayotgan arqonga ham, uni to'xtatib, iziga qaytarish uchun uzilgan o'q ovozigacha ham parvo qilmadi, u ozodlikka talpindi. Yovvayi yo'rg'a yana, yana yuqoriladi, ana, tik qoyaga ko'tarildi. Qoyadan pastga–havoga sakradi, ikki yuz futcha uchib yurdi, yana, yana pastlab... toshga borib tushdi. U jonsiz sulayib qoldi, ammo... ozod bo'lib qoldi!

U – Demak, erk, ozodlik kabi ne'matlar nafaqat insonlar uchun, balki jonivorlar uchun ham hayot-mamot masalasi ekan. Yovvayi yo'rg'a tutunlikdagi hayotdan ko'ra ozod o'limni afzal ko'rdi.

F – Unsin o'z erki uchun kurashgan qiz.

S – U o'z erki ozodligi uchun Dodbodday zolim, qattiqqo'ld insonga ham tik boqib gapira oldi.

M – Asardan aynan yuqorida keltirilgan fikrga misol keltirsam: Javobimni bersangiz, bitta go'rga bitta emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelardim.

U – Qorong'u kechada qabristonga borish u yoqda tursin, u haqda o'ylash ham vahimali bo'lib turgan bir paytda bitta go'rga emas, o'nta go'rga pichoq sanchib kelishga undagan kuch ham, albatta, erkinlikka, ozodlikka bo'lgan intilishdir.

Muhayyo KENJAYEVA,

Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 3- ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Ma'lumki, ona tili darslarida o'yinlar o'quvchilarning diqqatini jamlash, amaliy salohiyatini namoyish etish, bilim va ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqiblar ustidan g'alaba qozonishga bo'lgan intilish va xohish o'quvchilarni faollashtiradi. Bunda o'yin nafaqat musobaqa bellashuvi, balki o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini namoyish etish vositasi bo'lib ham hisoblanadi.

O'yinlar asosiga qurilgan interfaol o'qitish usullari zamonaviy pedagogikaning eng samarali vositalaridan biri sifatida tan olinishi ham fikrimizga dalil bo'la oladi. Psixologlarning ta'kidlashicha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rni topish, o'z-o'zini boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

Tajriba shundan dalolat beradiki, har qanday o'yinda ishtirokchilarning malakasi va yoshidan qat'i nazar, ular o'ng'aysiz holatga tushib qoladilar. Shuning uchun o'yinni o'quv amaliyotiga tatbiq qilishdan avval quyidagi pedagogik-psixologik masalalarni hal etish, har bir o'quvchi quyidagilarni bilishi lozim:

- o'yinning maqsadi;
- o'yinning vazifasi;
- o'yinning rejadagi qaysi mavzuga taalluqliligi;
- avvalgi o'yinlarda shakllangan malaka va ko'nikmalarni keyingi o'yinlarda ham qo'llay olishni.

Shunday texnologik o'yinlar yaratish kerakki, u o'quvchilarda qiziqish uyg'otsin, ularning ehtiyojlarini qondirsin, ularga tez singadigan bo'lsin. Har bir o'qituvchi o'yinlardan foydalanayotganida tanlash imkoniyatiga ega, ya'ni u o'z o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishlari, bilimi va intilishlariga ko'ra o'yin tanlay oladi. O'yinni sevmaydigan bolaning o'zi yo'q. Shuning uchun ona tili darsida turli o'yinlardan foydalanish o'quvchilardan tezkorlik, sezgirlik, qat'iyat, o'zaro hurmat, nutqni rivojlantirish, fikrlash doirasini kengaytirish, hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida til materiallarini qo'llash malakalarini faollashtirish uchun:

- leksikologiya bo'limini o'rganishda: "Men boshlayman, sen davom ettir", "Mazmunan qarindosh, shaklan begona";
- morfologiya bo'limini o'rganishda: "Qaysi qanday yoziladi?", "So'zlar bo'yog'ini aniqlang";
- fonetika bo'limini o'rganishda: "Talaffuzdan adashmang", "Tovush juftlari bilan har bir so'zga ma'nodosh so'z top", "So'zni lug'atdan tez top";
- sintaksis bo'limini o'rganishda: "Topag'on", "Qolip bizdan, gapni sizdan", "So'zlar qator uyushdi, so'roqlari qovushdi" kabi o'yin turlaridan foydalanish mumkin.

Leksik o'yinlar o'quvchilarning lug'at boyligini boyitishga xizmat qiladi, yangi so'zlarni tez va oson eslab qolishga yordam beradi.

Grammatik o'yinlar muhim va zarur grammatik tuzilmalarni qo'llashni o'rgatish, rivojlantirish uchun o'tkaziladi.

Bunday o'yinlarda, ko'pincha, so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l) va egalik, kelishik qo'shimchalari olinadi.

Fonetik o'yinlar o'quvchilarning talaffuzini mashq qildirish va og'zaki nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Orfografik o'yinlardan yozuv, harf va harf birikmalarini to'g'ri qo'llay olishni o'rgatishda foydalaniladi.

"Mazmunan qarindosh, shaklan begona" o'yinini "Leksikologiya" bo'limidagi ma'nodosh so'zlar mavzusida namuna sifatida ko'rishimiz mumkin. O'yinni o'tkazish uchun sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi. Guruhlar nomlanib, ma'nodosh so'zlar, ya'ni sinonimlarga oid so'zlarni aytdilar. Bu so'zlar **nima?**, **qanday?**, **nima qildi?** so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar bo'lishi shart.

"Topqirlar"	"Zukkolar"	"Bilimdonlar"
Nima?	Qanday?	Nima qildi?
yuz	go'zal	gapirdi
bet	chiroyli	so'zladi
bashara	lobar	aytdi
chehra	barno	to'ng'illadi
azob	abjir	vafot etdi
uqubat	epchil	dunyodan ko'z yumdi
aziyat	chaqqon	olamdan o'tdi

Shu o'rinda o'quvchilar ma'nodosh so'zlarning uslubiy bahosiga ham ta'rif beradilar, chunki sinonimlarda uslubiy baho ikki xil bo'ladi:

1. Ijoby ma'noda – *jilmaymoq, tabassum qilmoq, gapirmoq, so'zlammoq.*

2. Salbiy ma'noda – *irjaymoq, tirjaymoq, to'ng'illamoq, ming'illamoq.*

3. Ijoby ma'noda – *chehra, yuz, oraz.*

4. Salbiy ma'noda – *aft, bashara, turq, bet.*

Kartochkalarda yozilgan ushbu so'zlar ishtirokida gaplar tuzish va ularning ma'nodosh so'zlarini aniqlash:

Qaramoq Yugurmoq So'zlammoq

Namuna: *Barcha o'quvchilar sport zalida yugurdi (chopdi). Nargiza kitobda berilgan ma'lumotlarga qaradi (ko'rib chiqd).*

Bo'lib o'tgan voqealarni barchaga so'zlab berdi (gapirdi).

"Mazmunan qarindosh, shaklan begona" o'yini orqali o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar to'ldiriladi, o'tilgan mavzular mustahkamlanadi. Ma'nodosh so'zlarning ifodalanish o'rni o'rganiladi. Bu o'yin o'quvchilarning ona tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Xullas, har bir darsda yuqoridagi kabi o'yinlardan foydalanish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi, ijodiy izlanishi, yangiliklarni o'ylab topishi kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. 111-bet.
Ona tili. 7-sinf. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
Ona tili. 5-sinf. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. 7-bet.

Bobomurod MIRSANOV,
TDIU Samarqand filiali katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

NEMIS TILIDA QO'SHMA OTLARNI VIZUAL METODLAR ORQALI O'RGATISH

Ma'lumki, nemis tili qo'shma otlarga boy bo'lib, bunday otlarning shakllanishi nemis tilida nisbatan tez-tez uchraydi. Qo'shma otlar ikki yoki undan ortiq otning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi va ularda rod balki ikkinchi otning rodi bilan belgilanadi. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma otlarda ikki yoki undan ortiq so'z o'zaro bog'lovchi elementisiz birikadi. Bog'lovchili bog'langan qo'shma otlar o'zaro -e, -(e)s, -er, -(e)n kabi bog'lovchi elementlar orqali bog'lanib keladi. [4: 127-128].







Chet tilini o'qitishning turli xil usullari o'quvchilarning turli darajalariga yaxshiroq moslashish va shu bilan muayyan maqsadli guruh uchun eng mos o'quv usulini tanlashga xizmat qiladi. Shu sababli bunday o'qitish usullari to'g'risidagi bilimlarni doimo yangilab turish yoki kengaytirish juda muhim [5: 85].

Nemis tili faninini o'qitishdagi vizual metodlar tarkibiga kiruvchi suratlar orqali mavzuni tushuntirish nemis tilini o'rganuvchilarining nemis tilida gapirish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, nemis tilida bilim, ko'nikma, malakalarini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rasmlar va chizmalar (vizual elementlar) o'quv va ish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Bu imkon qadar o'qishga yo'naltirilgan va o'quvchilar manfaatlarini hisobga olgan materiallar ish, ijtimoiy va mashq shaklida hamda o'qituvchining o'zgartgan roli bilan ochiq darslarga imkon beradi: ular endi vositachi emas, o'quv materiallari bo'lishi lozim. Grammatika qoida sifatida emas, balki kommunikativ kontekstda taqdim etiladi.










Suratlar nafaqat obyektlar, odamlar va tabiiy sharoitlarni, balki ko'plab kundalik vaziyatlarni ham ifodalashi mumkin. Tasvirning har doim akustik signalni kuzatib borishi miyani ushbu signalni yodlashga undaydi. Darsning keyingi qismida darhol ovoqli signal taklif qilinadi, uning ma'nosi allaqachon o'quvchi tomonidan o'zlashtirilganligi uchun uni tasvirning yordamisiz chaqirish mumkin. Pirovardida, lingvistik signal faol so'z birikmalariga o'zgaradi va shuning uchun nemis tilini o'rgatishda suratlardan vizual metod sifatida samarali foydalanish mumkin.

1. Aufgabe. Wie heißen die dargestellten Gegenstände? Schreiben Sie die entsprechenden Bezeichnungen unter die Fotos und ergänzen Sie jeweils den Artikel.

		
1. _____	2. _____	3. _____
	Schul-Radier-Bild - Brief-Schul-	Kugel-Notiz-Regen-Erd-Blei-
		-Rucksack -Gummi -Schirm -Kugel -Stift
		-Marke -Zirkel -Schreiber -Zettel
4. _____		

		
5. _____	6. _____	7. _____
		
8. _____	9. _____	10. _____

2. Aufgabe. Wie heißt der auf der Abbildung gezeigte Gegenstand. Kreuzen Sie bitte die richtige Lösung an.







		
1 a.) Leuchttift <input type="checkbox"/>	2 a.) Fächermappe <input type="checkbox"/>	3 a.) Briefkorb <input type="checkbox"/>
1 b.) Schulschere <input type="checkbox"/>	2 b.) Schulschere <input type="checkbox"/>	3 b.) Bastelkleber <input type="checkbox"/>
1 c.) Bastelkleber <input type="checkbox"/>	2 c.) Seminarblock <input type="checkbox"/>	3 c.) Seminarblock <input type="checkbox"/>
1 d.) Papierblock <input type="checkbox"/>	2 d.) Briefkorb <input type="checkbox"/>	3 d.) Fächermappe <input type="checkbox"/>
		
4 a.) Schulschere <input type="checkbox"/>	5 a.) Briefkorb <input type="checkbox"/>	6 a.) Fächermappe <input type="checkbox"/>
4 b.) Stifteetui <input type="checkbox"/>	5 b.) Papierblock <input type="checkbox"/>	6 b.) Bastelkleber <input type="checkbox"/>
4 c.) Fächermappe <input type="checkbox"/>	5 c.) Bastelkleber <input type="checkbox"/>	6 c.) Schulschere <input type="checkbox"/>
4 d.) Bastelkleber <input type="checkbox"/>	5 d.) Borstenpinsel <input type="checkbox"/>	6 d.) Seminarblock <input type="checkbox"/>
		
7 a.) Briefkorb <input type="checkbox"/>	8 a.) Leuchttift <input type="checkbox"/>	9 a.) Leuchttift <input type="checkbox"/>
7 b.) Schulschere <input type="checkbox"/>	8 b.) Brotdose <input type="checkbox"/>	9 b.) Bastelkleber <input type="checkbox"/>
7 c.) Seminarblock <input type="checkbox"/>	8 c.) Bastelkleber <input type="checkbox"/>	9 c.) Papierblock <input type="checkbox"/>
7 d.) Leuchttift <input type="checkbox"/>	8 d.) Briefkorb <input type="checkbox"/>	9 d.) Briefkorb <input type="checkbox"/>

		
10 a.) Leuchstift <input type="checkbox"/>	11 a.) Briefkorb <input type="checkbox"/>	12 a.) Leuchstift <input type="checkbox"/>
10 b.) Softpastellkreide <input type="checkbox"/>	11 b.) Seminarblock <input type="checkbox"/>	12 b.) Softpastellkreide <input type="checkbox"/>
10 c.) Deckfarbenkasten <input type="checkbox"/>	11 c.) Schulschere <input type="checkbox"/>	12 c.) Deckfarbenkasten <input type="checkbox"/>
10 d.) Briefkorb <input type="checkbox"/>	11 d.) Leuchstift <input type="checkbox"/>	12 d.) Schulschere <input type="checkbox"/>



3. Aufgabe. Wie heißen die abgebildeten Gegenstände? Die Bezeichnungen lassen sich aus den Silben im Schüttelkasten zusammensetzen. Es sind jedoch jeweils zusätzlich zwei Silben angegeben, die nicht benötigt werden.

		
bü - was - der - ser - bech - er	ner - vo - ka - bel - ord - heft	heft - kis - um - schen - schlag
1. _____	2. _____	3. _____
		
kak - kor - rek - rech - tur - stift	he - stifte - tei - köch - er	brief - ring - buch - hand
4. _____	5. _____	6. _____

		
ge - sam - un - mel - map - pe	knet - öff - ster - mas - se	dreh - klar - heft - sicht - folie
7. _____	8. _____	9. _____
		
kett - filz - pel - stift	ent - do - sen - spitz - grad - er	breit - kunst - druck - stoff - lineal
10. _____	11. _____	12. _____

Xullas, nemis tili fani bo'yicha o'quv faoliyati mazmuran to'liq yoritilishida nemis tilini samarali o'qitish bo'yicha yaratilgan metod va vositalarining o'rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Menschen, Kurs- und Arbeitsbuch, Max Huebervetlag, Ismaning, 2012.
2. Odil Rahmonov, Ro'zi Rahmonova. Deutsch-Uzbekisches Wörterbuch. Nemischa-o'zbekcha lug'at. – Toshkent: Akadernashr, 2017. 528-bet.
3. Rösler Dietmar. Deutsch als Fremdsprache. Metzler, Stuttgart, 1994. 280-bet.
4. S Saidov. Deutsche Grammatik in Übungen. O'zbekiston – Toshkent 2003. 400-bet.
5. Sklizmantaite Rasa. Methoden des Fremdsprachenunterrichts. Santalka: Filologija, Edukologija, 2006. Vilnius Gediminas Technical University. 14, Nr. 4. - S. 83-86.

Tahlil

Zamiraxon TO'XTABAYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ingliz tili fani o'qituvchisi

TIL TRANSFERENSIYASI VA UNING TURLARI

Odatda, til o'rganuvchining o'z ona tilidagi (L1-mother tongue) bilim va ko'nikmasi xorijiy tilni (L2-target language) egallashda unga yordam beradi yoki ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu holat, ayniqsa, til o'rganishning boshlang'ich jarayonlarida ko'p kuzatiladi. Har qanday muammoni yechishda oldingi tajriba va bilimga tayanish barcha insonga xos xususiyat bo'lib, qo'shimcha bir tilni o'rganish uchun ham shu tilni o'rganuvchi o'z ona tilidagi barcha bilimlarini ishga soladi. Grammatik qonun-qoidalar, gap tuzilishi va tovushlar

o'xshashligidan foydalanish bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu hodisa, ya'ni bir tildagi qonun-qoidalarni ikkinchi tilni o'rganishda qo'llash ilmiy adabiyotlarda **til transferensiyasi** (Language Transfer) deb nomlanadi. Ushbu atamani T.Odlin o'rganilayotgan til (Target Language) va avval o'zlashtirilgan til o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlar natijasida yuzaga keladigan ta'sir sifatida ta'riflaydi.

Til transferensiyasining ikki xil turi mavjud: ijobiy va salbiy transferensiya. Aniqroq aytganda, ona tilidagi bilim va ko'nik-

ma o'rganilayotgan tilni (*Target Language*) tezroq yoki osonroq o'zlashtirishga yordam bersa, bu ijobiy til transferensiyasi (*Positive Language Transfer*), agar xalaqit bersa, salbiy til transferensiyasi (*Negative Language Transfer*) hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "u" kishilik olmoshining rus tilida "он", "она", "оно" shakllari mavjudligi ko'pchilik rus tili o'rganuvchilari uchun og'zaki muloqot jarayonida qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Shu sababli ikkinchi holat **ona tili interferensiyasi** (*L1 Interference*) yoki **til interferensiyasi** (*Language Interference*) deb ham yuritiladi.

O'quvchi yangi bir tilni o'rganayotganida ona tilidagi bilimiga tayanadi. Ba'zi holatlarda bu tilni muvaffaqiyatli o'rganishga to'sqinlik qilishi mumkin. Brauning fikricha, bunda avval o'zlashtirilgan bilim yangisi bilan to'qnash keladi va bir-birini inkor etadi yoki xato yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Til transferensiyasini tilshunoslikning har bir sohasida kuzatish mumkin: fonetikada tovushlarning o'xshashligi talaffuzni osonlashtiradi va, aksincha, talaffuzdagi farqlar o'rganuvchi uchun ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi; sintaksisdagi o'xshashlik va farqlar ham til o'rganuvchiga gap tuzishda qo'l kelishi yoki xatolarga sabab bo'lishi mumkin.

Lottning fikriga ko'ra *L1 Interference*, ya'ni ona tili bir necha o'n yilliklar davomida *Target Language*da yuzaga keladigan xatolar manbaya sifatida qaralib kelindi. Ikki tilni taqqoslashga asoslangan **kontrastiv tahlil gipotezasi** 1950-yillarda tilshunoslik sohasining diqqat markazida bo'ldi. Chorak asr mobaynida bu gipotezaga tayanish ona tilining ta'siri yangi tilni o'rganishda asosiy to'siq, degan fikrni yuzaga keltirdi (Dulayb, Burt & Krashen, 1982). Brauning ta'kidlashicha, o'sha davrda bu noto'g'ri fikr shunday urfga kirgan ediki, xorijiy tilni o'rganishga ona tilining salbiy ta'siri bilan kurashish sifatida qarala boshlandi.

Lekin so'nggi yillarda amaliy tadqiqotlar natijasi o'laroq *Target Language*da muloqot qilishda yuzaga kelgan xatolarini (*Learner errors*) tahlil qilish yuqorida ta'kidlab o'tilgan qarash nuqsonli ekanligini isbotladi. Ikki til o'rtasidagi ta'sirdan (*Interlingual factors*) tashqari o'quvchi tilida xatolarini yuzaga keltiruvchi boshqa omillar (*Intralingual factors*) ham mavjud ekanligi adabiyotlarda keng yoritila boshlandi. O'ziga ishonchning pastligi, hayajon, turli xil pragmatik holatlar (*masalan, Pragmatic transfer, Learner Divergence*), o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar, noto'g'ri tushuncha berish kabilar *intralingual* xatolarga misol bo'la oladi. Ushbu omillar inobatga olinib, pedagogik mahorat bilan yondashilsa, zaruriy til o'qitish uslub va texnikalaridan foydalanib o'quvchilarga xatolar sababini anglab yetish va kelajakda ularning oldini olishga katta hissa qo'shish mumkin.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda asosiy e'tibor *intralingual* xatolarga qaratilganiga qaramay, ona tili interferensiyasi hanuzgacha chet yoki ikkinchi til o'rganish jarayonidagi muhim omil hisoblanib keladi. Ona tili interferensiyasi tufayli yuzaga kelgan xatolarini tahlil qilib, ularning asl mohiyatini tushuntirib berish uchun Klifford Prator (Braun, 2014) til transferensiyasi hodisasini qiyinchilik darajasiga ko'ra ingliz va ispan tillari misolida olti turga ajratadi. Quyida o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun bu turlar o'zbek (*Native Language*) va ingliz (*Target Language*) tillari misolida ifodalab berildi:

0-daraja Zero Transfer. Ikki til o'rtasida farq yoki kontrast mavjud bo'lmaydi. Bunda o'quvchi ona tilidagi tovushlar, grammatik strukturalar yoki leksik birliklardan ikkinchi tilda hech qanday qiyinchiliksiz foydalanadi. Bu holatga o'zbek va ingliz tilidagi o'xshash tovushlarning (/i/, /e/, /b/, /p/, /g/, /k/) talaffuz jarayoni yaqqol misol bo'la oladi;

1-daraja Coalescence. Ona tilidagi ikki element *Target Language*da bittaga aylanadi. Masalan, o'zbek tilidagi kishilik olmoshlari "sen" (birlik) va "siz" (ko'plik va hurmat ma'nosi) ingliz tilida bitta so'z – "you" ga aylanadi;

2-daraja Underdifferentiation. Ona tilidagi element *Target Language*da mavjud bo'lmaydi. Bunda tilni o'rganuvchi *Target Language*da muloqot qilayotganda shu elementni ishlatmaslikka harakat qilishi kerak. O'zbek tilida "ma'lumot" so'ziga "lar" qo'shimchasini qo'shish orqali ko'plik shaklida ishlatish mumkin. Lekin bu so'z ingliz tilida sanalmaydigan ot hisoblanadi. Shuning uchun "information" ("ma'lumot") so'ziga ko'plik ma'nosini beruvchi "-s/es" suffiksini qo'shib bo'lmaydi;

3-daraja Reinterpretation. Ona tilida mavjud element *Target Language*da yangi shakl oladi. Misol tariqasida ona tili o'zbek tili bo'lgan til o'rganuvchi ingliz tilida "later, fork, where" so'zlaridagi /r/ tovushini talaffuz qilishga qiynalishini keltirish mumkin;

4-daraja Overdifferentiation. Ona tilida yo'q bo'lgan element *Target Language*da mavjud bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi artikl "a/an" and "the" tushunchasi o'zbek tilida umuman mavjud emas. Bu holat artiklning tub mohiyatini tushunish va uni to'g'ri qo'llash jarayonini qiyinlashtiradi;

5-daraja Split. Ona tilidagi mavjud element *Target Language*da ikki yoki undan ko'proq elementga aylanadi. Bu o'rinda o'zbek tilidagi kishilik olmoshi "u" ingliz tilida "he, she, it" shaklini olishini misol qilish mumkin. Aksariyat hollarda o'quvchi bu olmoshlarni ishlatishda xatoga yo'l qo'yadi.

Braun ta'kidlab o'tganidek, **0-daraja Zero Transfer** to'liq o'xshashlikni ta'minlab, o'quvchiga til o'rganish jarayonini osonlashtirib bersa, **5-daraja Split** til interferensiyasi tufayli xatolar yuzaga kelishiga sabab bo'lib, o'rganish jarayonini murakkablashtiradi. O'quvchilarning *Target Language*da potensial xatolarining oldini olish uchun til mutaxassisleri yuqorida sanab o'tilgan til transferensiyasi turlarini e'tibor bilan o'rganib, zaruriy choralarni amalga oshirishi muhim. Shundagina bunday xato va kamchiliklar til o'rganuvchining miyasida qotib qolmaydi, ya'ni **fossilizatsiya** (*Fossilization*) jarayoni bartaraf etiladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, chet tilini o'zlashtirish jarayonida sodir bo'ladigan til transferensiya hodisasi tilshunoslar o'rtasida ko'p bahslarga sabab bo'lib kelgan. Shuningdek, tilshunoslik sohasidagi olimlar va tilni o'rgatuvchi mutaxassislar o'rtasida bu hodisaning ahamiyati haqida munozarali fikrlar hali ham mavjud. Lekin diqqat bilan til o'qitish va o'rganish jarayoniga e'tibor berilsa, til transferensiya ta'siriga tez-tez duch kelish mumkin. Buning ahamiyatini to'g'ri anglab yetgan har bir pedagog til transferensiyasining ijobiy va salbiy jihatlari to'g'ri yondashib, ijobiy ta'sirdan mohirona foydalanadi, salbiy ta'sirini esa turli xil pedagogik texnologiyalar yordamida bartaraf etishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Braun H.D. *Principles of Language Learning and Teaching* (6th ed). Nyu York: Pearson Education, 2014.
2. Dulay R., Burt M. & Krashen S. *Language Two*. Nyu York: Oxford University Press, 1982.
3. Lott D. Analyzing and counteracting errors, 1983. *ELT Journal*, vol. 37/3. P. 256–261.
4. Odlin T. *Language Transfer*. Kembrij, Angliya: Oxford University Press.

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

Xalq og'zaki ijodi yosh avlodning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish manbayi hisoblanadi. Uning ma'naviy qadriyatlarini tartib etishdagi ta'sir kuchi unda xalqning o'zligi, milliy xarakter xususiyatlarining ochib berilishi bilan xarakterlanadi va xalqning aqliy-axloqiy, badiiy-estetik, ma'naviy talab va ehtiyojlari, orzu-umidlari va ta'lim-tarbiya vositalari o'z ifodasini topgan. Xalq og'zaki ijodidagi har bir janr o'quvchilar ma'naviy olamini boyitishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Jumladan, xalq donishmandligining ilohiyot bilan bog'liq janri mif, ya'ni **asotirlarda** ezgulik va yovuzlik, adolat va razolat, nur va zulmat, boylik va faqirlik, go'zallik va bad-xulqlik haqidagi dastlabki kurashlar ilgari suriladi. Asotirlarning pedagogik ta'sir kuchi o'quvchida xalq og'zaki ijodining boshqa turlari bilan qorishiq holda tabiat va jamiyat qonunlarini o'rganishga ehtiyojni o'stiradi, dunyoqarashni kengaytiradi, ma'naviy qadriyatlarining paydo bo'lishi va shakllanishi haqidagi tasavvurlarni boyitadi.

Xalq ijodining qadimiy shakllaridan biri **afsonalar** real hayot haqiqatidan xabar beruvchi xayoliy uydirmalardir. Afsonalarning pedagogik ahamiyati umuminsoniy qadriyatlarini bo'rttirish vositasida o'quvchiga yetkazish, mardlik, jasurlik, halollikni ulug'lash, kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotidagi ijtimoiy, madaniy turmush tarzini ilmiy o'rganishda badiiy manba sifatida yordam berishdan iborat. "Luqmoni hakim", "Ibn Sino", "Alisher Navoiy", "Shirin qiz", "Iskandarning shohi bor" kabi afsonalarda azaldan Sharq xalqlari xarakteriga xos bo'lgan mardlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolat, erksevarlik kabi ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar fantastika qobig'ida o'quvchiga yetkaziladi.

Rivoyatlar esa mavjud hayot haqiqati haqida asosli ma'lumotlarga tayangan holda uydirmalar fonida umuminsoniy qadriyatlarini avlodlar avlodga yetkazadi. Ularda o'tmishda va kelajak uchun dolzarb bo'lgan insoniyat moddiy va ma'naviy qadriyatlari taraqqiyoti masalalari, ezgu orzu-umidlari, armonlar, quvonchlar o'z aksini topadi. Ibn Sino, Amir Temur, Saroymulkxonim, Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslar haqidagi rivoyatlarda ularning muhim fazilatlarini mubolag'alashtirish asosida pedagogik namuna asosiy vosita hisoblanadi.

Xalq pedagogikasida yana bir tarbiya usuli o'git, nasihat hisoblanadi. Bu usulning ifodasi **naqlarda** yaqqol ko'rinadi. "Odam bilan odam tirik", "Ko'rpanga qarab oyoq uzat", "Har kim ekanini o'radi" kabi naqlar asrlar davomida turmush tajribasida sinovdan o'tgan ma'naviy qadriyatlarini o'git, nasihat usulida tashviq va targ'ib etuvchi xalq donishmandligining muhim shaklidir. Naqlda yashirin sha'ma, kinoya umuminsoniy qadriyatlarini o'quvchi ongiga singdirish usuli sifatida uning axloqiy xatti-harakatini ma'naviy talab mezonidan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Marosim qo'shiqlari insonlarning tabiatga, voqelikka madaniy munosabatlarini bildiruvchi tasavvurlari, ishonchlari, orzu-umidlari, axloqiy qarashlari tufayli vujudga kelgan. Folklorshunos olim B.Sarimsoqovning tasnifiga ko'ra o'zbek marosim folklori mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlar turkumiga bo'linadi. Birinchi turkum marosimlar ham ikkiga: faqat mavsum bilan bog'liq marosimlar ("Sust xotin", "Choy momo", "Yas-yusun"), mavsumiy mehnat, ho'jalik yuritish

tarzi bilan bog'liq marosimlar ("Loy tutish", "Shoxmoylash", "Oblo baraka") kabi janrlarga bo'linadi.

Oilaviy-maishiy marosimlar folklori esa tematika-funksional xususiyatlariga ko'ra to'rt guruhga: so'zning magik qudratiga asoslanuvchi marosimlar (kinna, gulafsho, olqish, qarg'ish, afsun), bolalarning beshikdagi davri marosimlari (chilla, qochiriq, beshikka solish), to'y marosimlari (jar, yor-yor, o'lan, lapar, kelinsalom, kuyovsalom, to'y olqishlari, oyna ko'rsatar), motam marosimlari (yig'i-yo'qlov, motam yor-yori)dan iborat. Mavsumiy marosimlar qatoriga "Sada", "Navro'z" va "Mehrijon"ni ham kiritish mumkin.

Umuminsoniy qadriyatlarining mohiyati falsafa, axloq, din, badiiy to'qima unsurlarining mushtarak birligidagi **ertaklar** vositasida o'quvchi ma'naviy madaniyati saviyasiga ta'sir etadi. Ertaklarning asosiy g'oyaviy yo'nalishini adolat, jasurlik, qahramonlik, ezgulik, insonparvarlik, farovon hayot kabi ma'naviy qadriyatlar tashkil etadi. Bu qadriyatlar hayvonlar haqidagi ertaklarda majoz, sehrlilik ertaklarda fantastik uydirma, maishiy ertaklarda hayotiy uydirma asosida o'quvchi ongiga singdiriladi. Majoziy ertaklarda turli hayvonlar misolida umuminsoniy qadriyatlar mazmuniga zid qo'rqoqlik (quyon), makkorlik (tulki), vahshiylik, yirtqichlik (bo'ri, sher), ayyorlik (mushuk) keskin qoralanadi. Bu inkor insonlarga ham xos bunday sifatlarni keskin qoralashga yo'naltiriladi. O'quvchi badiiy mahorat bilan yaratilgan ertaklardan estetik zavq oladi.

Doston xalq ma'naviy qadriyatlarini qorishiq holda mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi shakllaridan biri bo'lib, unda folklor, musiqa, teatr, she'riyat kabi badiiy-estetik qadriyatlar butunlashtirilgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar baxshilar tomonidan badihago'ylik yo'li bilan tinglovchiga yetkaziladi, uning hissiy ta'sir kuchi orqali Sharq xalqlarining chatishib ketgan falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari, urf-odatlari, hayotiy turmush tarzi badiiy tafakkur qilinadi.

Dostonlardagi milliy g'urur tuyg'usi kuylovchi va tinglovchi o'rtasidagi badiiy-estetik muloqot vositasida ma'naviy muhit ta'sirida o'quvchi ongida shakllantiriladi.

O'quvchi milliy g'ururini shakllantirishga ta'sir etuvchi **latifalar** zamirida tarixiy voqealar, maishiy hodisalar yotadi. Hajm jihatdan ixcham, mazmunan lo'nda latifalarda ziyraklik, o'tkir hajv, hozirjavoblik asosiy tamoyil hisoblanadi. Latifalarning bosh qahramoni Nasriddin qiyofasi orqali donolik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, mehr-oqibat, saxiylik kabi yuksak qadriyatlar ulug'lanadi, nodonlik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, ochko'zlik, ishqoqmaslik kabi ma'naviy madaniyatga zid illatlar qoralanadi. Latifalarda o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirishda qo'llaniladigan qator pedagogik talablar olg'a suriladi.

O'quvchining tafakkur doirasini kengaytirish, dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'zbek xalq **topishmoqlari** jamiyatda, kishi hayotida sodir bo'ladigan voqea va hodisalarni pardali, kinoyali, yumoristik, savol tarzida muloqotda bo'ladigan kishiga yetkazish qudratiga ega. Har bir xalqning, millatning tarixiy taraqqiyoti bosqichiga ega odob-axloq mezonlari, yashash tarzi, urf-odatlari, an'analari, tabiiy yashash muhiti mavjud ekan, mana sha xoslik topishmoqlarda o'z aksini topadi.

Xalq tarbiyasida hamma vaqt muhim tarbiya usuli sifatida foydalanib kelinadigan **olqishlar** va **qarg'ishlar**, birinchidan, ma'naviy me'ros sifatida o'rganilsa, ikkinchi tomondan, shu xalqning ijtimoiy, maishiy, ma'naviy turmush tarzini ifodalovchi vosita tarzida ("Uying bug'doyga to'lgur", "Topganing to'yingga buyursin", "Omin, qadam yetdi balo yetmasin" kabilarda o'zbeklarning mehmondo'stligi, tinchliksevarligi ifodalangan), uchinchidan, tarbiyaning rag'batlantirish va qoralash usullari sifatida qimmatlidir. Olqishlar insoniyat uchun ma'qul bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni ma'qullash yoki inkor etish orqali o'quvchining ongi va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Xalq donishmandligining muhim shakli hisoblangan **askiya** ijtimoiy-maishiy va ma'naviy qadriyatlarni kulgi pardasi ichida tinglovchiga yetkazadi. Askiyada kulgi vositasida insonparvarlik g'oyalari, xalq ideali targ'ib etiladi, noaxloqiy sifatlar hajv ostiga olinadi.

Askiya faqat o'zbek xalqiga xos qadimiy san'at bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari hozirjavoblik, fikrning mukammalligi, zehn o'tkirligi hisoblanadi. Askiya turlari "payrov usuli", kichik icham savol-javob shaklidagi "Bo'lasizmi?", "O'xshatdim" va "Tutal", "Robiya" shakli, payrov rang-barangligi ("Handalak", "Imorat", "Qovun", "Savdo-sotiq" va hokazo), askiya aytuvchilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, nafosat, xalq turmushi va madaniyatiga munosabat, muhit va tabiatni bilish darajasi, badiiy mahorat, badiiy tasvir vositalari (istora, o'xshatish, ta'rif-tavsif, sifatlash), ifoda vositalari (mubolag'a, tajnis, tanosib) turli so'z o'yinlari, qochirimlar, mazaxlash, xalq maqollari, hikmatli so'zlardan foydalanish askiyada olg'a surilgan ijtimoiy, maishiy, ma'naviy muammolarning mohiyatini tinglovchiga yetkazishda va uning tarbiyaviy ta'sir kuchini oshirishda muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

Maqol va matallar turli millat o'quvchilarining ma'naviy birlashuvi belgisi, tub manfaatlari, orzu-armonlari umumiylikiga ko'rsatkich bo'lib, inson aql-zakovati, mehr-shafqati va uning buyuk yaratuvchilik qudratini o'ta ta'sirchan badiiy vositalar orqali ifodalaydi (metafora, istora, epitet, giperbola,

yumor, tashbeh va b.q.). Maqollar u yoki bu ma'naviy qadriyatlarni dalillash, isbotlash yoki inkor etish vositasi sifatida qo'llaniladi. Maqolga qo'yiladigan ayrim shartlar ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga bevosita ta'sir etadi.

Alla xalq og'zaki ijodining bola shaxsida ota-onaga, Vatanga, millatga muhabbat tuyg'usining eng dastlabki kurtaklarini shakllantiruvchi vositasi sifatida maydonga kelgan. Alla vositasida bola milliy til ohanglariga, badiiy idrokka o'rgatib boriladi.

Xalq pedagogikasida drama va teatr elementlari mavjud turli marosimlar, urf-odatlarlar, an'analar vositasida yuqori sinf o'quvchilarida milliy g'urur va tafakkur shakllantiriladi. Buning uchun maxsus ma'naviy muhit yaratilib, faoliyat mazmuni amalga oshiriladi. "Navro'z", "Mehrjon", "Sada" bayramlari, gul bayrami (Buxoro va Samarqandda "Guli surx"), "Chiqon o'yini", "Xatarli o'yin", "Darvishona", "Ashshadarozi" o'yini, "lyd al-fitir" (kichik iyd yoki Ro'za hayiti), "lyd al-kabir" (katta iyd yoki Qurbon hayiti) kabi milliy qadriyatlar folklor teatri tarzida nishonlanib kelinadi.

O'zbek xalqining yor-yor, o'lan aytish, alla, yalla, doston kuylash; chanqovuz chalish; chimildiq tuzash; kashta tikish; chiy to'qish; do'ppi tikish; supra yozib xamir qorish; qaynona, qaynota, erga munosabat; bola tarbiyalash; milliy taom tayyorlash; milliy kiyim turlarini namoyish etish kabi urf-odatlar, an'analari o'quvchida o'zligini anglashni shakllantirishda ahamiyati nihoyatda katta. Demak, xalq og'zaki ijodiyoti asarlarida ulug'lanadigan birgina insonparvarlikni olaylik. Insonparvarlik insonning sharafi, vijdoni va iymonining mahsuli bo'lib, olijanoblik, xayrixohlik, g'amxo'rlik, moddiy-ma'naviy madadga intilish tuyg'usi, iymon, vijdon doirasida mehr-muruvvat ko'rsatish ehtiyojini qondirish natijasida vujudga keladi. Bunday xususiyatlarni yoshlarda shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodiyoti durdonalarini bolalar bog'chalaridan bola ongiga singdirish lozim. Zotan, folklor ma'naviy madaniyatni shakllantirishning muhim vositasi sifatida barcha yoshdagilarga singdirilsa, katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Olimjon JUMABOYEV,

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
tayanch doktoranti

RASSOM RUHIYATI VA RANG-TASVIR UYG'UNLIGI

Mumtoz adabiyotimizda oq rang yorug'likni, qora rang motamni (qora rang ulug'lik va buyuklikni anglatishi ham ko'plab adabiyotlarda uchraydi – O.J.), qizil rang jasoratni, sariq rang ayrilqni anglatishi ham ko'p o'rinlarda keltirib o'tilgan. Hazrat Navoiy bobomiz bundan olti asr muqaddam "Kim esar ul dasht aro har yon qizil, sorig', yoshil", deya bitganida ranglarning ma'lum maqsadga qaratilganini bevosita isbot etgani ayni haqiqat.

Umuman olganda, ranglar vositasidagi ramzlarni badiiy asarda qo'llaniladigan ramzlarning eng asosiysi sifatida keltirish mumkin. Bu qadim-qadimdan adabiyotimizda shakllangan bo'lib, keyinchalik mumtoz adabiyotimizga ham ko'chgan. Ya'ni ranglar vositasida qahramonning o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari, orzu-maqsdalari, ijtimoiy jarayonlar, ma'naviy-mafkuraviy holatlar ochib berilgan. "Ranglar ham har bir ijodkorning fikrlash doirasi va darajasiga muvofiq qo'llanib kelingan. Shu sababli ham soddaroq asarlarda ran-

glarning ramziylik darajasi osonroq tushuniladi"¹. Albatta, bu borada fikr yuritishdan oldin ranglarning ramzga, bora-bora timsolga aylanishi xususida to'xtalib o'tish zarur. Oq va qora rang Sharq adabiyotida allaqachon timsol darajasiga ko'tarilgan.

Mahmud Koshg'ariydan to bugungi kun adiblarigacha ushbu timsollardan yetarlicha foydalanishgan. Jumladan, Nazar Eshonqulning aksar hikoyalarda rassom va rangli belgilar – ramzlarni uchratamiz. Xususan, "Maymun yetaklagan odam", "Xaroba shahar surati", "San'at-1", "San'at-2"² asarlarida yozuvchi musavvir obrazi orqali ijtimoiy olamga nisbatan o'zining badiiy-falsafiy qarashlarini ifoda etishga harakat qilgan. Ushbu hikoyalarda o'ziga xos ramziy-majoziy unsurlar – surat, rang va detallardan mohirlik bilan foydalangani, birinchidan, o'quvchining badiiy-estetik didini oshirishga xizmat qilgan, ikkinchidan, yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda o'ziga xos "tushunish

va tushunilish" maydonini yaratishga xizmat qila borgan. Bu orqali ma'lum ma'noda o'z auditoriyasini yaratishga urinish kuzatilayotganini ham yozuvchi muvaffaqiyati sifatida baholasa, to'g'ri bo'ladi.

Shubhasiz, bu poetik vositalar adib g'oyaviy-estetik maqsadini ifodalash va qahramon ruhiyatini ochishda qo'l kelgan, shuning barobarida, adibning keyingi davrda yozilgan hikoyalarning badiiy jihatdan ancha takomillashishiga olib kelgan. Albatta, bu o'rinda rassom va surat, ranglarning badiiy asarda bevosita aks ettirilishi borasida turli xil talqinlarni o'rta tashlash mumkin. Eng avvalo, bu yozuvchining hikoya yaratishdagi konsepsiyasi ekanini ta'kidlab o'tish zarur. Ya'ni adib o'zining ma'lum ma'nodagi uslubini hikoyaga tizimli ravishda kiritishga muvaffaq bo'lgan. Ikkinchidan, bu o'ziga xos ma'nolarni tashishga xizmat qilgan. Aytaylik, yozuvchi o'zining maqsad-muddolarini rassom obrazi va portretidagi ranglar orqali o'quvchiga ko'rsatib berishga intiladi.

Adabiyotshunos olim Umarali Normatov o'zining "Umidsizlik tamoyillar" kitobida adibning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi haqida so'z yuritarkan, "Nazar Eshonqul keyingi olti-yetti yil mobaynida yozgan talay hikoyalarda, asosan, o'sha asardagi g'oyani turli ko'rinishlarda davom ettirdi, ma'nisi o'tgan umr manzaralari tahlili bilan band bo'ldi"³, shuning barobarida, "o'zbek hikoyachiligida yangi davrni boshladi", deya unga yuksak baho beradi. Darhaqiqat, o'quvchi "Maymun yetaklagan odam", "San'at-1", "San'at-2", "Xaroba shahar surati" hikoyalari tizimida rassom obrazi va ranglar mohiyatini anglashga intila borib asar mohiyatidagi teran fikr mag'zini chaqishdan zavqlanadi.

Masalan, "Xaroba shahar surati" hikoyasida rassom surati orqali turli xil qarashlar aks etganini sezamiz. Birinchidan, bu yozuvchining o'ziga xos konsepsiyasini anglatga, ikkinchi tomondan, surat orqali jamiyat va inson qalbidagi kurashni, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy qarama-qarshiliklarni, o'z-o'zidan xaroba ko'rinishga kelmagan shaharning fojiasini badiiy aks ettirib bergan.

Shu ma'noda adib "Xaroba shahar surati" hikoyasi avvalida shunday tasvirlarni chizadi: "Suratda hali me'yoriga yetmagan xira bo'yoqlar fonida vayronaga aylangan shahar burdalangan jasaddek bo'rttirib tasvirlangandi. Suratdagi birdan-bir menga yoqadigan manzara ham aslida mana shu xaroba edi: bu shaharni kim vayronaga aylantirgan, kim uni yoqib kul qilgan, men buni ham bilmasdim, ehtimol, rassomning o'zi ham bilmagandir. U bozorbop va odamlarning e'tiborini tortish uchun shunchaki xayoliga kelgan xarobani chizib tashlagan, ta'sir hamda vahm bag'ishlash uchun manzaraga qo'ng'ir va sariq bo'yoqlarni rosa chaplagandir"⁴.

Albatta, bu o'rinda adib nega aynan xaroba shahar suratini bermoqda? Bundan murosul-maqsad ne? Nega aynan bosh qahramonga xaroba manzarasi yoqadi? degan savollar o'quvchida uyg'onishi tabiiy. Hikoya avvalida yozuvchi "Go'yo rassom suratlarini o'zining kiyimidan andoza olib chizganday", deya ta'kidlarkan, butun boshli suratga "umidsizlik va tushkunlik" ranglari o'rmashib qolganini keltirib o'tadi. Shuning uchun bu o'ringdagi qo'ng'ir va sariq ranglarini tushkunlik va iztirob belgilari sifatida ko'rsatsak bo'ladi.

Yozuvchi rassom nigohi bilan suratga razm solarkan, unda tiriklikdan darak beruvchi biron g'iyoh ham qolmaganini, undan dud hidi anqib turishini izchil berib boradi. Yozuvchi "Tursoriya" deb atagan shahar qachonlardir ulug'vor va go'zal bo'lgani uning qoldiqlarida aks etib turishi roviyning xayolini band etib, shu xususda tinimsiz o'ylarkan, undan bir yorug'lik izlaydi. "Shaharning tosh devorlari borib tutashgan tepalik uzra qorachiqday qizg'ish shu'lani ko'rishingiz mumkin"⁵. Qoralik uzra qizg'ish tomchi daf'atan uchrashi ham yorug'lik ramzi bo'lishi barobarida, bu shaharning bekorga g'arot

etilmanini isbotlaydi. Masalan, qizil rang o'zbek adabiyotida qon, ya'ni erk, ozodlik va hurlik ramzi sifatida talqin etiladi. Shunday ekan, qizg'ish shu'la ham ushbu shaharning erk timsoli sifatida g'aydalantirilgan. Ba'zi o'rinlarda qizil rang shodlik, baxtiyorlik va visol kabi tushunchalarni ifoda etishi ham ta'kidlansa-da, "Boshqa bir tomondan qaraganda, ushbu ranglar turmushda (kiyim-kechak misolida), hayotda (maxsus bayroqlar, ramzlar misolida) kayfiyatga ta'sir qilish, ruhlantirish va boshqa maqsadlarda ham xizmat qilib kelgan"⁶ini adabiyotshunos olim Karomat Mullaxo'jayeva ham ta'kidlaydi.

Aslini olganda, Nazar Eshonqul "Milliy tiklanish" gazetasida chop etilgan suhbat chog'ida shunday degandi: "Odam o'z umrining rassomi, har kim qanday yashasa, shunday surat chizadi, kunlarni, umrni, umrning fasllarini chizadi"⁷.

Demak, ushbu hikoya orqali roviy o'zining hayotiy xulosalarini o'quvchiga singdirishda asosan rassom obrazidan foydalangan. Undagi ruhiy kechinmalar, ma'naviy-axloqiy o'y-fikrlar ham bevosita yozuvchining jamiyatdagi o'z umrini ko'kka sovurgan, uning qadriga zarracha yetmaydigan, hafsalasi pir bo'lgan jamiyat haqidagi xulosalardir.

Shuning barobarida rus tadqiqotchisi Konstantin Paustovskiy ta'biricha, "Yozuvchilik hunar va mashg'ulot emas"⁸. Demak, suratdagi ayrim unsurlarga qarab, unda adibning qalbi, dunyoqarashi va ijtimoiy jarayonlarga nisbatan fikri o'z aksini topgan, deyish ham mumkin. Masalan, bunda dud hidi juda achimsiz bo'lgani va yonib-o'chgan joydan chiqishini inobatga olsak, bu ham yozuvchining g'arb adabiyotini puxta o'rganganini, g'arb yozuvchilariga taqlidini, qolaversa, o'zining ishdan qoniqmayotganini, xaroba shaharning dudni butun vujudini egallab, ko'ngliga iztirob solayotganini ko'rsatadi, degan to'xtamga ham kelish mumkin.

Yana bir e'tibor qaratish mumkin bo'lgan jihatlardan shundan iboratki, hikoyadagi ranglarning juda ochligi, xiraligi va uning ortiqcha darajada chaplab tashlanganligi haqidagi qaydlar ayrim fikr-mulohazalarni paydo qiladi. Xususan, chaplab tashlangan "qo'ng'ir va sariq bo'yoqlar" mumtoz adabiyotimiz an'analarga muvofiq ayriqlik kayfiyatini anglatishini inobatga olsak, bunda adibning ruhiy iztiroblari ifoda etilganini anglash qiyin emas.

Ayniqsa, jahon adabiyotida ko'p kuzatiladigan va yozuvchi tomondan kashf etiladigan makon Nazar Eshonqulning ushbu asarida – Tursoriya qiyofasida namoyon bo'ladi.

"Men suratdagi vayrona shaharga o'zimcha Tursoriya deb nom qo'yib olgandim; nega aynan Tursoriya, buni ham hozir izohlashim qiyin, ehtimol, bu nomda hech qanday ma'no yo'qtir va bu nom xotiramning qaysidir burchagida tun qo'ynida lip etib yongan alanga kabi o'z-o'zidan tug'ilgandir"⁹.

Albatta, badiiy adabiyotda Gabriel Garsiya Markesning Makonda, Uilyam Folknerning Yaknapatof, Murod Muhammad Do'stning Galatepa singari adabiy makonlari mashhur. Nazar Eshonqulning ushbu asarida Tursoriya shahriga uning dard-u iztiroblari ko'chib tushgandek taassurot beradi. Ehtimol, "tun qo'ynida lip etib yongan alanga" ham kelajakka yozuvchining ko'zi ila umid-la boqishga imkon berar, bu zimiston ichra yorug'lik shu kabi talqinlarning yuzaga chiqishiga turtki beradiganidek taassurot uyg'otadi.

Hikoyani sinchiklab o'qigan kishi unda shaharga xos har bir detalga e'tibor beradi: "Qirmizi tulporlar minib yuradigan yigitlari, xayoldan ko'ylak kiygan qizlari, hilol bilan birga hilpiraydigan tug'lari, sahar chog'lari xo'rozlardan ham oldin odamlarni uyg'otadigan azonlari hamda bolaning ko'zlari kabi tiniq va ma'sum daryolari haqida gapirib berar va bularni Tursoriya boshqalarning ham e'tiborini tortsin deya ko'pincha o'zim to'qirdim"¹⁰.

Ushbu shaharning adib tomonidan tasvirlangan qiyofasi ham, albatta, hech kimni ortiqcha qiziqirmagani, hayratga solmasligi tabiiy hol. Negaki, aslida, hikoya davomida surat qahramonning ichki dunyosi, qalb kechinmalari, ruhiy olamini ko'rsatuvchi vosita sifatida xizmat qilayotgani anglashilib boradi.

Asar so'ngiga qadar roviy o'z maqsadini to'laqonli yetkazish maqsadida "saylovlar jarayonidagi deputatlar" va "ilmiy ishi rahbari" epizodlari orqali voqealarni jonlantirishga va shuning barobaridan siyosiy faol kishilarning bee'tiborligidan, qolaversa, o'zining allaqanday muhim, ammo jamiyat nazdida arzimas muammolar ostida qolib ketayotganidan afsuslanadi.

Hikoya yakuniga yaqinlashar chog'i roviyning gazetachi do'sti bilan uchrashgani va ikkovi suhbatlashgani keltiriladi: "Faqat sengina dunyoni mana shunday ayanchli manzaralar ichida ko'rasan. Odam qanday o'ylasa, shunday yozadi, aslida ham har bir odam o'z umrining rassomidir. Bu suratda sening umring aks etib turibdi"¹¹.

Albatta, qanchalik ayanchli, qanchalik shafqatsiz bo'lmasin, bu manzaralar zamirida insonni ezgulikka chorlash va umrning qadriga yetishga undash bor. Inson o'zini anglagani hamonoq nima ish qildim, deb o'ziga o'zi savol bera boshlaydi. O'kinch-nadomat barobarida allaqanday to'satdan keladigan quvonchdan ham kishi quvvat oladi. Ruhiy-ma'naviy quvvat esa kishiga ishtiyok beradi. "Kemani olis-olislarda ko'ringan mayoq o'ziga chorlagani kabi" Tursoriya roviyni o'ziga tobora chorlab boradi. U suratdan o'zini qidiraveradi, qidiraveradi. Hikoya oxirida aytmoqchidek, "o'zini izlab ketadi".

Har bir asar ijodkorning qalb kechinmalari, dunyoqarashi mahsuli. U xoh rassom, hox yozuvchi, xoh haykaltarosh bo'lsin. Nazar Eshonqul hikoyalaridagi rassom esa suratlar zamiridagi yashirin ma'holarga diqqatni buradi. Har bir rangdan o'ziga xos ma'no topishga undaydi. Uning hikoyalarning o'ziga xosligi ham shun-da. Vaholonki, hikoya o'qib tugutilgach bizning ong-u tafakkurimizda davom etadi, etaveradi...

¹Mullaхўжаева К. Фазалда ранг жилоси. Филология масалалари. 2003, 3-4-сон.

²Назар Эшонқул. Шафтоли гули. – Toshkent: Ўзбекистон, 2011.

³Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 39-bet.

⁴Nazar Eshonqul. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nazar-eshonqul/nazar-eshonqul-xaroba-shahar-surati-hikoya/>

⁵Nazar Eshonqul. Shaftoli guli – Toshkent: O'zbekiston, 2011. 109-bet.

⁶Mullaxo'jayeva K. G'azalda rang jilosi. // Filologiya masalalari. 2003, 3-4 son.

⁷Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha. – Toshkent: Akademnashr, 2014. 121–122-бетлар.

⁸Паустовский К. Рождение рассказа. – Москва.: изд. Рус. язык, 1979, – С. 134.

⁹Назар Эшонқул. Шафтоли гули. – Toshkent: Ўзбекистон, 2011. 108-бет.

¹⁰O'sha manba. 110-бет.

¹¹O'sha manba. 114-бет.

Ijobat SAYMURATOVA,

Guliston davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

ROMANDA MAJOZIY TASVIR VA RUHIY IZTIROBLAR TALQINI

Istiqloq davri o'zbek romanlarida shakl va uslub imkoniyatlari kengayganligini kuzatish mumkin. "XXI asrda yaratilgan o'zbek adabiyotidagi roman turli janrlarda o'z tabiatiga mos keladigan jihatlarni sintez qilish orqali hayotiy materialni o'zlashtirish va tasvir, talqin imkoniyatlarini kengaytirish orqali ham rivoj topdi"¹. Shu ma'noda yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanini ham o'ziga xos shakl va uslubda yaratilganligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash o'rinli. Asar qurilishi va undagi voqealar ketma-ketligi mantiqiy jihatdan uzviy bog'lansa, asarning kompozitsion tuzilmasi bir butunlikni tashkil etadi.

"Bozor" romani kompozitsion qurilishini asar bosh qahramoni Fozilbekning xayolidan kechgan butun o'y-fikrlari to'lig'icha qamrab olgan. Asar sujeti ham, qahramon ruhiy holati ham Fozilbekning xayolidan kechgan o'y-fikrlari zamiriga singdirib yuborilgan. Aslida, adabiyot nazariyasining qonun-qoidalariga ko'ra sujet asardagi voqealarning ketma-ketligidir. "Sujet, avvalo, mazmun bilan bog'liq bo'lib, qahramon xarakterining shakllanishi, namoyon bo'lishini ifodalovchi voqea-hodisalar majmuidir"².

Yozuvchining nazarida bozor go'yoki dunyo. Yozuvchi dunyo va hayot haqidagi fozil fikrlarini, donishmandona munosabatini Fozilbekning qarashlari orqali namoyon etadi. "Bozor" butunlay o'z-gacha uslubiy yo'nalishda bitilgan. Asar tili boshdan-oyoq ramzlar, metaforalar, imo-ishoralar asosiga qurilgan. Bu tilni o'qimay, uqmay turib romanni tushunish, uning tub mohiyatini anglash mahol"³.

Fozilbek yosh bo'lishiga qaramay dunyoni, atrof-muhitimizni o'rab olgan tabiatni, hayotimizda bo'lib o'tadigan turli voqea-hodisalarni ko'z o'ngidan o'tkazaveradi. Uning nazarida go'yoki hech kim, na otasi, na akalari, na opalari yaqindan uni tushunishmas edi.

Fozilbek hayotda o'zini juda yolg'iz his etadi. "...u esini tanibdiki, otasi, akasi, opalari nigohining tub-tubida pinhon ta'na sharpasini ko'p martalar ilg'aydi. Sezgilari sirqiraydi, sirqirasa-da sezdirmaydi. Sezdirmasa-da, ularning har boqishida o'zicha, "Onamizning joni evaziga tug'ilgansan!"⁴ degan ta'na-dashnomni o'qiydi. Go'yoki onasining o'limiga u sababchidek. Onasining o'limi uning taqdiriga bitilgan. Ehtimol, uning hayoti shu bilan yakun topgandir. Uning taqdiriga hayot shu qismatni ravo ko'rgandir. Bu taqdirning ishi, hayot haqiqati. Bir boshga bir o'limning yozilishidir. Kingadir erta, kingadir kech ajalning kelishidir. Fozilbek

o'y-xayollaridan sira uzoqlasha olmaydi. Onasiga bo'lgan muhabbati uni bir zum bo'lsa-da tark etmaydi. Rasul do'xtir uqtirganidek, u onasi hadya etgan jon evaziga yashamoqda. Onasi bilan bog'liq bo'lgan turfa xil o'ylardan chiqib keta olmaydi. "Dunyoga kelib ulgurmay onasining jonini tortib olgan, shunday ekan, ko'nglining tubidagi og'riqli tuyg'udan u umr bo'yi xalos bo'lolmaydi"⁵.

Fozilbekning otasi esa bozorboshi, u bozordagi tartibbuzarliklarni izga solish bilan ovora. Uning bobosi, bobosining bobolari ham bozorni iziga solaman deb o'tib ketishgan. Biroq bozor hali hanuz o'sha-o'sha. Kimdir insofli bo'lgandek, kimdir quturgan timsohdek, yana kimdir ochiqqan ajdahodek irg'ishlaydi. Ba'zida "mo'min-qobil mullavachchadek muloyim tortadi"⁶.

Fozilbekning otasi, bobolari ham bozor orqasidan kun ko'rgan. Biroq Fozilbek Qosimbek oqsoqolning "pul hasratida yashamaydigan bir dalli-devonasi". "Fozilbek uchun pul – boylik qanchalik begona bo'lsa, uning evaziga saqlanadigan o'z joni ham yetti yot begonadek edi". Fozilbek uchun hayot falsafasi shu. Asar qahramonlarining boshqalariga nisbatan u donishmandona fikrlaydi. Fikrlarining, o'y-xayollarining zamirida samimiyat yotadi. Uning tasavvurlari yozuvchi ta'biri bilan aytganda nihoyatda "uchqur edi". Uning bu yo'sinda fikrlashini asar qahramonlaridan biri Baxtish ezma bilan bo'lib o'tgan suhbatidan anglash mumkin. Baxtish ezma (To'rabek egarchining o'rtanchasi) uchun "hayot mutlaqo boshqa". Uning fikricha hayotni tutib turgan qonuniyat boshqa.

Bozor oralab yurgan olomon, bozor orqasidan kun ko'rayotgan har bir odamzod nafs ilinjida alanglaydi. Bozorning yongani baxtsiz voqea emas, balki bozorga ruju qo'yganlarning, nafs bandalarining, moddiy boylikka muhabbat qo'yganlarning o'lovlangani. Aniqlik qilib aytganda, bozor nafsga qul bandalarning kasofatidan yonmoqda.

"Hamma o'zini bozorga urayotgan, balki nafs ko'yiga mubtalo bo'lib qolgan zamonda, qarangi, qoq bozorning ichidan, bozor odamlari orasidan bir ma'naviyat, ma'rifat fidoyisi Fozilbek otilib chiqadi, ilohiy taqdir uni kimsasiz huvillab yotgan maskandagi yana bir ma'naviyat fidoyisi Qadriyaga ro'baro' qiladi... Bu ikki yosh nafs balosi tufayli bozor yonayotgan, cho'kayotgan, nafs bandalarini olov qa'riga tortib ketayotgan bir zamonda najot yo'lini qidiradilar. Ular bozorni halokatdan qutqarish yo'li ma'naviyatda deb biladilar"⁷.

Shu tariqa Fozilbekning ko'nglida ikkinchi o'y-xayol, samimiy kishi Qadriya paydo bo'ladi. Rangining bu qadar tiniqligi, chehrasidan oqlik yog'ib turgan bu qizning qalbi ham nurga, mehrga to'la edi. Qadriyaning bu taxlit ko'rinishidan Fozilbek shunday deb o'ylar edi. Aslida ham shundaymi? Qadriyaning tasvirida ham majoziy ma'no mujassam. Demak, bozor dunyoga, hayotga qiyos etilar ekan, hayotda Qadriya kabi qalbi ham rangidek oq,

beg'ubor insonlarning borligiga, ularning yashayotganligiga ramziy ishoradir.

Asardagi yozuvchining bozor va hayot o'rtasidagi majoziy tasvir ko'lami Qosimbek bozorboshining bozorni izga solishi, farzandi Fozilbekning uylantirish masalasi bilan bir butunlikni hosil etgan. Ehtimol, Qosimbek bozorboshi hayoti yakun topmasdan Fozilbekni uylantirish chorasi bilan o'z ko'nglini taskin toptirar. Shu yo'l orqali uning birgina hayotligidagi ilinji, yakun topmagan ishi nihoyasiga yetar.

Inson o'z hayotini yaxshi amallari orqali izga solishi tabiiy. Biroq, Fozilbekning ta'biri bilan aytganda "bozor qiyomatgacha izga tushmaydi". Xo'sh, bozorning bu ahvoli va uning uylanishi orasida qanday daxldorlik bor. Bu kabi savollarga Fozilbekning javobi aniq. "Ilinj, ta'ma..., topish..., undirish..., muttahamlik... bozorning izi shu. Bozor odamlari ham shu iz izida... Bozorboshi bozor maydonini epaqaga keltirishi mumkin, uddasidan chiqsa, uni ko'chirishi ham hech gap emas, lekin odamlarning ko'ngli, o'y-xayoli, maqsad-maslagigacha bozorxonaga aylanib ketdi"⁸. Lekin Fozilbek mustaqil oilaviy hayotini bu taxlitda boshlamog'chi emas. Uning birgina niyati "ilinj, ta'ma, topish, undirish..., muttahamlik"larsiz, halol va pok, o'zining emas, o'zgalar manfaatlarini ustun qo'yib yashashdan iborat. Faqat o'zi uchun yashashlikni o'lim bilan teng ko'radi. O'zgalar uchun yashashlik, ularga imkon qadar yaxshilik ulashishni tiriklikning asosiy mazmuni deb biladi. Uning bu taxlitda yashashiga nima xalaqit bermoqda. Uni hayotimizdagi ayrim nafs buzuq kimsalarning hayoti o'z maromidan chiqib ketayotganligi, insof va diyonatning yo'qolayotganligi, kishilarning ilm va ma'rifatdan uzoqlashayotganligi xavotirga solmoqda. Kishilarni bozor izdihomidan qutqarish yo'lini faqat ilm va ma'rifat, ma'naviyat va muhabbatda deb bildi.

Qosimbek o'g'lining nihoyatda fozil ekanligini ich-ichidan his etadi. Fozilbek "ona" deyolmay o'tayotgan bo'lsa, Qosimbek "ota" deyolmay o'tdi. U bozor deb o'tdi, bozor deb yashadi, bozor deb sindi, bozor deb uzildi. "Bozorni epaqaga keltirish uchun bir odamning umri qisqalik qilishi"ni juda kechikib anglab yetdi. Diyorbekning bobolariga, xususan, o'ziga tortganligini, Fozilbekning bozor va dunyo o'rtasidagi muvofiqlikni, o'z aqli farosati bilan ularning keyingi taqdirini ko'ra bila olish qobiliyatiga ega ekanligini natijada fahmladi. Bozorni epaqaga keltirish uchun "Sabridin va Fozilbek turishi yuz karra shart" ekanligini tushunib yetdi. Asarning ma'lum bir qismida Qosimbek bozor boshining ruhiyatida sodir etilgan bu kabi jiddiy holatlar asardagi psixologik jarayonning ochilishida muhim vosita vazifasini o'tagan.

Fozilbekning o'y-xayollari asosidagi falsafiy, psixologik umumlashmalar asarning o'qimishligini ta'minlagan omillardan biri bo'lib, yozuvchining uslubiy individualligi va o'ziga xos mahoratini yuzaga chiqargan.

¹M.Pirnazarova. Hozirgi o'zbek romanlarida uslubiy izlanishlar. Filol. fan. n-di, dis.avtoref. – Toshkent, 2005. 5-bet.

²T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.

³U.Normatov. Badiiyat ko'zglasida millat taqdiri. // Adabiy.uz

⁴O'sha manba. 100-bet.

⁵O'sha manba. 103-bet.

⁶O'sha manba. 93-bet.

⁷U.Normatov. Badiiyat ko'zglasida millat taqdiri. // Adabiy.uz

⁸O'sha manba. 131-bet.

Aysafar Murtazayeva,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti "Xorijiy tillar"
kafedrası ingliz tili o'qituvchisi

INGLIZ TILIDA TEXNIKAGA OID TERMINLARNI O'RGATISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tilini mukammal o'rgatish uchun chuqur ta'lim berilmoqda. Hozirgi kun talabiga mos keladigan sohaviy kadrlarni tayyorlash uchun esa o'qituvchilarimizga davr talabiga javob beradigan darslik va o'quv qo'llanmalar zarur bo'lmoqda.

Ma'lumki, chet tilni o'qitishdan asosiy maqsad talabani o'sha tilda bemalol gapirishga o'rgatishdir. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilining amaliy maqsadi talabalarni shu tilda muomalaga o'rgatish ekan, buning uchun talabalar ingliz tili so'z boyligini egallashlari zarur. Tilning so'z boyliklarini egallamay turib na tinglab tushunish, va na gapirish yoki yozish mumkin.

Amaliyotda qo'llanilish darajasi jihatidan ingliz tili dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Fan, texnika, madaniyat, ta'lim, iqtisodiyot va boshqa sohalarda, xususan kasbiy faoliyatda har bir mutaxassisning ingliz tilidan erkin foydalanish malakasiga ega bo'lishi zamon talabi maqomiga ega bo'ldi. Shundan kelib chiqib, hozirda chet til o'qitish metodikasiga yaqin bo'lgan fanlarda erishilgan yutuqlar chet til ta'limi metodikasida tub burilish yasashiga olib kelmoqda.

Ingliz tilining jamiyatdagi maqomi o'zgarib, uning funksiyalari kengayib bormoqda, buni kasbga tayyorlash jarayonida ham kuzatish mumkin. Ingliz tili darslarida talabalar faolligini oshirish, fan asosida chuqur bilim berish, bu bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini hosil qilish eng muhim vazifalardandir. Texnikaga oid terminlarni ingliz tilida o'zlashtirish nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ishlash malakasini shakllantirib, sohaga doir so'z boyligini oshiradi.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalariga o'rganadigan ingliz tilidagi terminlar o'zbek tilidagi terminlar bilan taqqoslanganda quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'zbek tilidagi terminga ingliz tilidagi ma'noning qisman to'g'ri kelishi;
- texnikaga oid o'zbek tilida uchramaydigan terminlar;
- ingliz tili talaffuzi o'zbekcha so'zning talaffuziga to'g'ri kelmasligi;
- ingliz tili kabi o'zbek tilida ham bir necha komponentli terminlar mavjudligi;
- o'zbek tilida ingliz tilidan o'zlashgan terminlar ma'no jihatidan farqlanishi va h.k.

Ingliz tilidagi texnik terminlarni o'rgatishda talabalarining til borasidagi tajribalarini hisobga olish zarur. Talabani o'zbek tili termini bo'yicha til tajribasi chet til

texnik terminining talaffuzi, o'qilishi, yozilishini o'rgatishga ta'sir qiladi. Talaba ko'proq ona tilida qo'llaydigan terminlarni yaxshi bilmasligi oqibatida chet tildagi texnik terminlarni eslab qolishi qiyinlashadi.

Yangi termin ma'nosi bilan tanishish ikki usul – tarjimasiz yoki tarjima vositasida bajariladi.

Tarjimasiz usulda ichki va tashqi ko'rgazmalilikdan foydalaniladi. Yangi leksik birlik ma'nosini egallash chog'ida qo'llaniladigan metodik usullar quyidagi omillarga bog'liq:

- a) terminning xususiyati; b) aktiv/passiv terminga oidligi; ta'lim bosqichi va talabalar saviyasi; d) yangi terminning taqdim etiladigan shakli (eshitib yoki o'qib idrok etish); e) yangi birlikni tanishtirish joyi (dars, darslik, lug'at) kabilar.

Yangi so'z tarjimasiz usul bilan o'rgatilganda bayon, rasm, matn, audiotasmada eshittirilib namoyish qilinadi va taxminan quyidagicha topshiriqlar beriladi:

- termin ma'nosini fahmlab oling;
- tarjima qiling;
- gapda qo'llang va h.k.


Leksik birlik ma'nosi bilan tanishish – uni o'zlashtirish yo'lidagi birinchi bosilgan ta'limiy qadam. Yangi so'zning birikish xususiyatlarini o'rganib olish maxsus ikkinchi bosqichni taqozo etadi. Ushbu bosqichda terminlarni takrorlash, jonli nutqda qo'llash mashqlari bajariladi.

Ba'zi o'rinlarda yangi so'z birikmalari ishlatilib, mashq bajarish orqali leksik ko'nikma shakllantiriladi. Leksik mashqlar informatsion va operatsion qismlardan tashkil topadi. Birinchi qismi ko'rsatma berish va ijro namunasi bo'lib, tilga oid qoida hamda nutq amaliyotini birlashtiruvchi oraliq mashqlardan iborat.

Bo'lajak soha mutaxassislari ingliz tilini o'rganishda quyidagi malakalarga ega bo'lishlari zarur:

- mutaxassislik bo'yicha o'rtacha qiyinlikdagi tarjima materiallarini chet tildan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan chet tilga og'zaki va yozma tarjima qilish;
- texnikaga oid maxsus terminologik atamalar lug'ati va ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish;
- ingliz tilidagi leksik, grammatik hodisalarning ona tilidagi muqobillarini topa olish;
- bir xil ma'noli terminlarni turli xil til vositalari yordamida ifodalash;
- texnikaga oid terminlar lug'atidan foydalana olish.

Chet tilni o'qitishda talabalarining ikki tilli lug'atlar tuzishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z-o'zidan talabalarining lug'at boyligini oshiradi hamda ularning kasbiy nutqqa doir leksik terminlar lug'atini boyitadi.



O'zlashtirganlik ko'rsatkichi texnik termini nutqda erkin qo'llay yoki taniy olishdan iborat. O'zlashtirish ko'nikma darajasida bilish demakdir. Kasbga tayyorlash jarayonida terminlarni o'rgatishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1) ingliz tilini o'rgatishda lug'atdan foydalanishni oqilona chegaralash tamoyili;

2) til o'qitishda leksik birliklar taqdimotining muayyan maqsadga qaratilganligi: leksik termini mustahkamlash uchun qo'llaniladigan birliklar aniq ko'nikmani hosil qilishga mo'ljallanadi va boshqa birliklar bilan ishlatiladi;

3) leksik birliklarning lingvistik xususiyatlari va ularni o'zlashtirishga aloqador psixologik jihatlarni hisobga olish: taqdimot va mashq qilish davrlarida leksik birliklarning mavhum tushuncha ifodalaydiganlarini ta'riflash vositasida, narsaga tegishlilari ko'rgazmalilik yordamida, leksik birliklar qiyoslash va guruhlash yo'li bilan, funksional (yordamchi) terminlar esa kontekstda beriladi;

4) ta'limning didaktik va lingvodidaktik qonuniyatlarini hisobga olish tamoyili: har bir leksik birlik taqdimot, mashq qilish va qo'llash bosqichlarida borgan sari kengaytiriladi, ya'ni ma'no doirasi, tovush va yozish timsollari va turli birikmalarning kontekst hamda guruhlarda qo'llanilishi izchillik bilan o'rgatib boriladi;

5) nutq malakalarini o'stirish va shu jarayonda qonunga oid termini egallashni birga olib borish tamoyili: termini egallash jarayoni materialni o'zlashtirish va ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Texnika oliy o'quv yurti tajribasidan kelib chiqib, chet til terminlarini o'qitishda ushbu tamoyillarga amal qilinayotganini ta'kidlash mumkin.

Shunday qilib, ingliz tilida texnikaga oid terminlarni o'rgatishdan maqsad talabalarning kasbga doir lug'at boyligini oshirish hamda ularning chet tilda texnikaga oid matnlar bilan ishlash malakasini shakllantirishdan iborat. Bunda zamonaviy lingvodidaktika yutuqlarini hisobga olish, chet tilda terminlarning talabalar tomonidan zamonaviy usulda qabul qilinishini umumlashtirish va bo'lajak mutaxassislariga uzluksiz ta'lim berish, shuningdek, terminologiyani o'qitish bo'yicha yangi avlod darsliklarini yaratish zarurligi maqsadga muvofiqdagi ingliz tili terminlarini o'qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa tariqasida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- texnikaga oid terminlarni ingliz tilida o'rgatishda terminlarning lingvistik xususiyatlarini e'tiborga olish zarur;

- ingliz tili va o'zbek tilidagi terminlarni taqqoslab o'qitish samarali bo'ladi;

- ingliz tilidagi texnik termini o'rgatishda talabalarining o'zbek va ingliz tillaridan til tajribalarini hisobga olish lozim;

- mashq bajarish orqali leksik ko'nikmani shakllantirish maqsadga muvofiq.

Nofilologik oliy o'quv yurti talabalariga texnikaga oid inglizcha terminlarni o'rgatish bo'yicha eng qulay amaliy metodikani ishlab chiqishda bu asos bo'lib hisoblanadi. Til orqali texnikaga oid sohaviy terminlarni o'rgatish talabaning kelgusida turli mamlakat va soha vakillari bilan hamkorlik qilishi hamda bo'lajak mutaxassislar kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin egallaydi. Bunga darslik, elektron lug'atlar va o'qituvchi kitobini yaratish, mustaqil ta'lim bo'yicha metodik tavsiyalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977.
2. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 139-bet.
3. Коган В.М. К вопросу о формализации отрасли права // «Вопросы кибернетики и право». – Москва: Наука, 1967.
4. Реформатский А.А. Мысли о терминологии // «Современные проблемы русской терминологии». – Москва, 1986.
5. Циткина Ф.А. Терминология и перевод: К основам сопоставительного терминоведения. – Львов, 1988.

Nodira ADIZOVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

BUXORO TUMAN TOPONIMLARI TARKIBIDA TOPOASOS, TOPOFORMANT HAMDA INDIKATOR TUSHUNCHALARI

Annotatsiya. Maqolada Buxoro tuman toponimlarining lug'aviy asoslari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: toponim, joy nomi, onomastika, toponimiya, topoasos, topoformant indikator.

Annotation. Lexical basis of toponyms emerged in Bukhara region has been analyzed in this article.

Key words: toponym, place name, onomastics, toponymics, topoformant, indicator.

Аннотация. В статье анализируются лексические основы топонимов Бухарского района.

Ключевые слова: топоним, название местности, ономастика, топонимия, топоформный, индикатор.

Insoniyat paydo bo'lganidan beri o'zining atrofidagi olamni o'rganish, undagi sir-sinoatlarni ochishga intiladi. Ba'zan atrofidagi olamning turli jihatlarini o'zicha nomlaydi. Bu bugungi kunga kelib joy nomlarini o'rganuvchi toponimika fanining keng quloqchilik yoyishiga asosiy sabab bo'ldi. Yangi tushunchalar, yangi qarashlar yangi nomlarning yuzaga kelishini talab ham qilmoqda. Agar past-balandlik joylarni ko'rsak, ularga *chuqur*, *o'nqir*, *tepa*, *balandlik*, *qir*, *adir* so'zlari ishtirok etgan nom "to'qiyimiz", tog'ning alohida ko'zga tashlanadigan o'rnini *Yassitog'*, *Qoyali*, *Xarsangtosh*, *Cho'qqili* deb nomlaymiz.

Nomlar odamlar kabi qadimiy bo'lib, ko'pchilik nomlar bir necha asrlar tarixiga ega. Jumladan, *Buxoro*, *Samarqand*, *Xiva*, *Romitan*, *Shofirkon*, *Varaxsha*, *Poykent* nomlarining tarixi ming yillarga borib taqaladi.

Toponimlar asrlar davomida yaratilgan lisoniy, tarixiy va madaniy-ma'naviy meros hisoblanadi. Ularda xalqning qadimiy davrlardan tortib to shu kungacha bo'lgan noyob kuza-tish, tajriba va turli e'tiqodlari o'z ifodasini topgan.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida toponimlarni tadqiq etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu, birinchi navbatda, toponimlar tilning turg'un unsurlari sifatida xalqlarning tili va tarixini o'rganishdagi muhim ahamiyat bilan belgilanadi. Toponimiyaga oid tadqiqotlar nafaqat qadimdan u yoki bu xalq, elat va uning tilining tarqalish hududi, qatlamlashishi hamda shunga o'xshash hodisalarni aniqlash, balki xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va etnolingvistik aloqalarni tiklash, aniqlash imkonini ham beradi. Bu jihatdan Quy Zarafshon vodiysi, aniqlash, Buxoro tuman toponimlarini topish va ularni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant va indikatorlar, odatda, u yoki bu darajada qo'llanadi. Ularsiz joy nomlarining etimologik tadqiqi haqida gapirib bo'lmaydi. Chunki bir toponim faqat topoasosdan iborat bo'lsa, boshqa biri topoasos va topoformant ko'rinishida, uchinchi toponimda esa topoasos va topoformant yoki topoasos, topoformant hamda indikator ko'rinishlarida uchraydi. Mana shularning ma'nolari birikishidan joy nomining ma'nosi shakllanadi. Topoasos toponimlarning yuzaga kelishi uchun asos bo'ladi. Ular turli tillarning so'zligidan (asosan, turkiy, fors-tojik, arab) tashkil topgan: *Beshbo'ri*, *Beshariq*, *Do'g'do'z*, *Obitorat* kabilar.

Topoformant va toponimning shakllanish jarayonida ishtirok etgan qo'shimchalar, asosan, sodda qo'shimchalardan iborat topoformantlar sanaladi: *-chi*, *-lik*, *-on*, *-cha* va boshqalar. *Dehcha*, *Cho'borcha*, *Ipakchi*, *Meshkaron*, *Turkon*, *O'zbekon* toponimlarida *deh* va *jo'bor* apellyativlari topoasos *-cha* ma'noli qismi esa topoformant. Bir necha bo'g'inli qo'shimchalar topoformantlar ko'rinishida uchramadi.

Kuzatishlarimizga ko'ra topoformantlar nafaqat toponim tarkibida keladigan formant hisoblanadi, balki ular toponim yasashda ham xizmat qiladi. Mana shu holga ko'ra topoformantlarni ikki guruhga bo'lib o'rganish lozim:

1. Asl topoformantlar. Ular toponim tarkibida qo'llanadi, ammo yasovchilik xususiyati yo'q. *Otquchi*, *Tikonchi* kabilar-dagi qo'shimchalar shunday topoformantlar sanaladi.

2. Yasovchi topoformantlar. Bular toponimning shakllanishida yasovchilik xususiyatiga ega bo'ladi: *Taxmachi*, *Sohibkor*, *Olmazor*, *Do'stlik*, *Tinchlik* va boshqalar.

M. Murzayev indikatorning toponimga xos belgi-xususiyat va holatlarni ifodalaydigan so'z hisoblanishini ta'kidlagan [4; 21–22]. Z. Do'simov va X. Egamov esa bu terminni: "Indikator – toponimlar tarkibida kelib, obyektning xarakteri, xususiyati, soni va boshqalarni ko'rsatuvchi so'z. Masalan, toponimik indikatorlar: *qishloq*, *daha*, *dasht*, *cho'l*. Gidronomik indikatorlar *ko'l*, *daryo*, *ariq* kabilar. Lotincha indikos "ko'rsatmoq" so'zidan yasalgan" [1; 161], deya ikki guruhga bo'lib ta'riflashgan. Indikatorli toponimlar toponim-kompozitlar deb ham o'rganilgan va ular toponimik, gidronomik, funksional indikatorlar deb uchga bo'lingan. T. Nafasov: "Indikator joy nomi yasashda qatnashib, uning tarkibida obyekt turini bildiradigan so'z: *buloq* (*Toshbuloq*), *qishloq* (*Kataqishloq*)", deb uni lingvistik jihatdan izohlagan [6; 287]. P. G'ulomov ushbu termin haqida "Indikator (toponimikada) toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar: *qum*, *tepa*, *daryo*, *suvi*, *kent* va boshqalar", degan ta'rifni geografik jihatdan bergan [7; 4].

Bizningcha, bu terminni toponimlar tarkibidagi xususiyatlaridan kelib chiqib *toponimik aniqlagich* ham deyish mumkin. Biroq bu birikmali terminni qo'llashdan ko'ra indikator terminini ishlatish har jihatdan o'rinni. Demak, mazkur termin haqidagi aytilgan fikrlar lingvistik va geografik jihatdan bir-birini to'ldiradi. Sababi ular indikator obyektning belgi-xususiyati, xarakteri, soni, turi kabilarini ko'rsatuvchi so'zligi va mahalliy geografik terminligini ko'rsatib turibdi. Indikatorlar toponimlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, *G'uddimtog'i*, *Molguzartog'i* toponimlarida *tog'* lug'aviy asosi indikator vazifasini bajargan. Ular quyidagi tarzda qo'llanadi:

1. Indikator(lar) toponim tarkibida keladi: *Beshariq*, *Turkonmahalla*, *Bog'idasht* kabilar.

2. Indikator(lar)ning o'zi toponim bo'lib keladi: *buloq>Buloq*, *tog>Tog'*, *tepa>Tepa*, *soy>Soy* va boshqalar. Aslida ularda toponim tushib qolgach, uning vazifasini indikator bajargan. Shunday toponimlarning mavjudligini toponimik misollar vositasida Z. Do'simova, M. Tillayeva ham tasdiqlagan [2; 44].

Ular to'plab o'rganilgan besh mingdan ortiqroq toponimlar misolida kuzatilib, qo'llanish darajasiga ko'ra uch guruhga bo'lindi:

1. Ko'p qo'llanadigan indikatorlar: *qishloq, soy, buloq, daryo, tepa, ariq* kabilar.

2. Nisbatan kam ishlatiladigan indikatorlar: *shahar, ko'cha, bozor, bog', adir, mahalla, guzar*.

3. Kam qo'llanadigan indikatorlar: *qabriston, mozor, cho'l, cho'qqi, tog', tosh, ko'l, qoya*.

Ko'rinib turibdiki, Buxoro tuman toponimlaridagi indikatorlar fors-tojik, arab va turkiy tillarga oid so'zlardan tashkil

topgan. Demak, toponimlar tarkibidagi topoasos, topoforment va indikatorlar ularni etimologik tahlil hamda tadqiq qilishga yordam beruvchi vositalar jumlasiga kiradi.

Buxoro tumani toponimiyasining yuzaga kelishi va rivojlanishi ushbu hududda yashovchi aholining uzoq tarixiy o'tmishi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy hayoti, etnik turmushi bilan uzviy bog'liq bo'lib, nafaqat tilshunoslik (nomshunoslik) sohasi uchun, balki tarix, geografiya, etnografiya, madaniyat va ma'naviyat tarixi uchun ham qimmatli materiallar bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z. Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. 174-bet.
2. Do'simov Z., Tillayeva M. Toponimika asoslari. – Toshkent, 2002. 88-bet.
3. Караев С. Топонимия Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 130.
4. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: Мысль, 1974. – С. 382.
5. S.Nayimov. Buxoro viloyati joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. 63-bet.
6. T.Nafasov. Qashqadaryo oblast toponimlari. Filol.fanl. kand. disser. – Toshkent, 1968. 301-bet.
7. P.G'ulomov. Jug'rofiya atamallari va tushunchalari izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. 140-bet.

Atabay JUMANIYOZOV,

Urganch davlat universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi;

Nafisa POLVANOVA,

Feruz ALLABERGANOVA,

Urganch davlat universiteti magistrarlari

QO'SHMA SO'ZLAR IMLOSI BOBIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida qo'shma so'zlarning qo'shib va ajratib yozilishi yuzasidan mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: qo'shma so'z, so'z birikmasi, til birligi.

Annotation. This article includes some opinions on opened and closed compound words in Uzbek language.

Key words: compound word, word formation.

Аннотация. Это статья содержит некоторые мнения о слитных и раздельных сложных словах в узбекском языке.

Ключевые слова: сложные слова, словосочетание, лингвистическая единица.

Ma'lumki, nutqimizda qo'shma so'zlar salmoqli o'rin egallaydi. Shunga bog'liq holda bizning mulohazalarimiz ham qo'shma so'zlar ta'rifining rang-barangligi, tilshunoslarimizning bu boradagi fikrlari xilma-xilligi hamda mazkur masalani baholiqdrat oydinlashtirishga qaratilgan. Bunga asosiy turtki bo'lgan narsa tilimizda faol, ayniqsa, kitobiy uslubda keng qo'llaniladigan "so'z boshi" so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981-yil) 2 jildli nashrida ajratib (so'z birikmasi sifatida) va ushbu lug'atning kengaytirilgan 5 jildli 2006-yilgi nashrida qo'shilib (qo'shma so'z sifatida) qo'llanilgani bo'ldi. Binobarin, o'zbek tili va tilshunosligi tarixida ulkan ilmiy, ijtimoiy hodisa hisoblangan, hayotimizda yuksak amaliy, madaniy-ma'rifiy qimmatga ega bo'lgan, o'zbek leksikologiyasi va leksikografiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan, milliy tilimizda nisbatan keng iste'molda bo'lgan 100 mingga yaqin so'z va so'z birikmalarining imlosi, talaffuzi, ma'nosi yoritilgan mazkur akademik qomusda ushbu so'zning aytilish va yozilish xususiyatlariga ikki joyda ikki xil yondashilgan. Jildlar muqaddimasi sarlavhasi bir safar qo'shib, ikkinchisida esa ajratib yozilgan. Bir qarashda milliy tilimizning imlo qoidalari

e'tiborsizlikday tuyuladigan yoki matbaa xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan texnik qusur natijasiga o'xshab ko'rinadigan bu real fakt masala boisini izlashga undadi va sabablariga qiziqish uyg'otdi. Tahlilni "so'z boshi" iborasidan boshlaymiz va u istilohda ikki ma'noga ega:

1. So'z boshi – muayyan bir so'z alohida til birligi sifatida olinib, uning formal tomoni, so'z tarkibidagi birinchi harflar (tovushlar) nazarda tutilgan holatni anglatadi. Misol uchun, "kitob" so'zi "k" harfi yoki "k" tovushi bilan boshlanadi va anlautda "k"ga teng.

2. So'z boshi – muayyan bir so'zning formal (shakl) tomoni emas, balki uning aktual (muhim ma'no) tomoni e'tiborga olinadi va mazkur iboradagi "so'z" so'zining "gap", "nutq", "fikir", "ma'lumot" ma'nolari nazarda tutiladi hamda "gap boshi", "aytilmoqchi bo'lgan ma'lumotning boshi" degan ma'no anglashiladi. Shu asnodan "O'zbek tilining izohli lug'ati" birinchi nashrida "so'z boshi"ning ajratib yozilishi qomusda berilayotgan barcha "ma'lumotlarning boshi" sifatida tushuniladi.

“So‘zboshi” til birligining qo‘shma so‘z sifatidagi ma‘nosi birikma holatidagi ma‘nolaridan farq qiladi va u endi qomusning tarkibiy qismlaridan biriga aylanib, “muqaddima”, “prolog” ma‘nolarini anglatadi hamda asar mundarijasining boshlanish bo‘limini nomlaydi. Natijada “so‘zboshi” nomi ostida qomus boshida berilayotgan ma‘lumotlar tushuniladi. Fikrimizni quvvatlash uchun analog misol keltiramiz: “issiq xona” iborasi ostida muayyan bir xonaning issiq ekanligi tushunilsa, “issiqxona” qo‘shma so‘zi ostida “teplitsa” tushuniladi yoxud issiqxonalarining bir turi nomlaniladi.

Qo‘shma so‘zlarga bag‘ishlangan maxsus ishlarda komponentlarning leksik-grammatik xarakteristikasi nuqtayi nazaridan hamda struktura jihatidan tilshunoslikning ushbu sohasida so‘zlar ancha chuqur o‘rganilgan, ayrim hollarda komponentlarning o‘zaro aloqalari ham ochib berilgan. Biroq “...qo‘shma so‘zlarni o‘rganish hali nihoyasiga yetmagan, bu jarayonda chalkashlik va nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmoqda. Qo‘shma so‘zlarga bag‘ishlangan ishlarda ularning sodda so‘zlar va so‘z birikmalaridan farqi hali yetarlicha ochib berilmagan – bu masalada turli mualliflarning qarashlari turlichadir. Bunday har xilliklar, chalkashliklar ayni “qo‘shma so‘z” terminini turlicha tushunish natijasida kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin”. Yanayam soda qilib aytadigan bo‘lsak, “...biz o‘z tilimizdagi soddalik va aniqlik qadriga yetishimiz kerak. Boshqa tillarga taqlid qilib so‘z yasash qoidasini ilmiy tahrirdan o‘tkazishga hojat yo‘q. **Non do‘koni, qo‘l soati, qor odami, ko‘z yoshi** – yasama so‘zlar. Oddiy xalq – **qo‘l soat, non do‘kon, qor odam, ko‘z yosh** deydi va o‘zbek tili qoidasiga rioya qiladi. Qoida yaratuvchilardan ko‘ra to‘g‘riroq aytadi. Axir **bilak uzugi, qo‘l qopi, yer yong‘og‘i** demaymiz-ku. Hamma birday **bilaguzuk, qo‘lqop, yeryong‘oq** deydi”.

Ayrim tilshunoslarimizning bu boradagi fikr mulohazalarida esa bir yoqlamalik ko‘zga yaqqol tashlanadi. Jumladan: “Qo‘shma so‘zlar ikki yoki undan ortiq so‘zlardan tashkil topib, bitta so‘roqqa javob bo‘ladi. *Otquloq, yurtboshi, tinchliksevar, xushxat, shirinzaqon, kungaboqar*. Qo‘shma so‘zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida ikki va undan ortiq so‘zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan bu birikuv o‘z kuchini yo‘qotib, bir so‘zga aylanib qolgan bo‘ladi. Shuning uchun qo‘shma so‘z tarkibida alohida so‘z bo‘lib ko‘ringan qismlar (kungaboqar, beshik-tervatar, namoz-shom-gul) hozirgi o‘zbek tilida so‘zlik xususiyatini yo‘qotgan, bir so‘z tarkibidagi ma‘noli qism (morfema) sanaladi”².

Mazkur mulohazalardagi “qo‘shma so‘zlar birikuv o‘z kuchini yo‘qotishi, ularning bir so‘zga aylanishi, komponentlarning so‘zlik xususiyatini yo‘qotishi, morfemalarga aylanishi” kabi fikrlar o‘z isbotini topmagan. Ular bu masalaga qiziquvchilarda muayyan savollar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi: Nima uchun ikki so‘z birikib o‘z kuchini yo‘qotar ekan? Aksincha, keltirilgan misollarda birikuv so‘z kuchini oshirgan, hatto ular birikuvidan uchinchi bir so‘z tug‘ilgan-ku. Morfema so‘zga aylanishi mumkin, lekin so‘z morfemaga aylanishi mumkinmi?

N. Erkaboyevaning mazkur risolasida qo‘shma so‘zlar quyidagi guruhlariga ajratilgan: 1) qo‘shib yoziladigan qo‘shma so‘zlar; 2) ajratib yoziladigan qo‘shma so‘zlar. Bu differentsiyaning ham qusurdan xoli emasligi, undagi mantiqsizlik o‘quvchida yana bir qancha savollarni paydo qiladi: *O‘zi qo‘shma so‘z bo‘lsa va shunday nomlanilsa, nimaga ajratib yoziladi?! Axir qo‘shma so‘z tom ma‘noda so‘zlarning qo‘shilib yozilishini nomlash uchun yaratilgan-ku! Unda ismi jismiga monandlik qayerda qoladi?!* Muayyan ma‘noda bu savollarga ham javobni mazkur risolaning 43–46-betlarida qo‘shib yozish va ajratib yozish qoidalari me‘yorlaridan topishga harakat qilamiz. Masala umumtushunarli bo‘lishi uchun bu qoidalarni aynan keltiramiz:

“Qo‘shib yozish:

1. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug‘doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsfat, suvtalab*.

2. *-r(ar)* (inkor shakli *-mas*) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar: *otboqar, o‘rinbosar, cho‘lquvar, ishyoqmas, qushqo‘nmas* kabi.

3. Takror taqlid so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan ot va fe‘llar qo‘shib yoziladi: *pirpirak, gijgijla, hayhayla*.

4. Narsani biror narsaga nisbatlash, o‘xshatish yo‘li bilan yasalgan qo‘shma otlar va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *karnaygul, qo‘ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg‘iyko‘z* kabi.

5. Narsani uning rangi, mazasi, o‘zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *olaqarg‘a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

7. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo‘ljallanganligini bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kirsovuun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqora, nosqovoq, ko‘zoynak* kabi.

8. Narsaning joyga nisbat berishi asosida yasalgan qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *tog‘olcha, cho‘lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

9. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog‘di, urto‘qmoq, ochildasturxon* kabi.

10. Qaratuvchili birikmalarning bir so‘zga aylanishi bilan yuzaga keluvchi qo‘shma otlar: *mingboshi, so‘zboshi, olmaqqoqi* kabi.

11. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki *obod* so‘zi bilan ifodalangan joy nomlari qo‘shib yoziladi: *Yangiyo‘l, To‘rtko‘l, Yakkabog‘, Mirzaobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O‘rta Osiyo, Ko‘hna Urganch, O‘rta Chirchiq* kabi.

12. Rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan hosil qilingan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, teleko‘rsatuv* kabi. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shilib yoziladi: *SamDU, ToshDU*.

Ajratib yozish:

1. Qo‘shma fe‘lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta‘sir et, sotib ol, olib chiq, miq etma* kabi.

2. Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘l mustaqil fe‘ldan ajratib yoziladi: *aytib ko‘r, so‘rab qo‘y, bera boshla, yiqila yozdi*. Lekin mustaqil fe‘l bilan yordamchi fe‘l o‘rtasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qismlar qo‘shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)*.

3. Ko‘makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo‘yi*. Lekin *bilan* ko‘makchisining *-la, uchun* ko‘makchisining *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, siz-chun*.

4. *Har, hech, hamma, bir, qay, u, bu, shu* so‘zlari o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, qay kuni, shu yoqdan, u yerda*. Lekin *birpas, biroz, birato‘la, birvarakayiga, birmuncha, buyon (beri)* so‘zlari qo‘shib yoziladi.

5. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildirgan *to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och* kabi so‘zlar ajratib yoziladi: *to‘q qizil, liq to‘la, lang ochiq*.

6. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o‘n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir*.

7. *Yildan yilga, tomдан tomga* kabi birinchi qismi chiqish, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

8. Belgining ortqlik darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq* kabilar ajratib yoziladi.

9. Izofali birikmalar ajratib yoziladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimai hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, qismlaridan biri yoki har ikkalasi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor, dardisar*.

10. Qo'shma so'zlarning qismlari bir-birini izohlasa, ajratib yoziladi: *osma ko'prik, til oldi, o'rta keng*".

Yuqoridagi tasnif va qoidalardan ko'rinib turibdiki, ular biz bergan savollarga javob yo'q. Tavsiflar shu darajada ko'pki, faqat so'zlarning qo'shib yozilishi uchun 12 ta, ajratib yozilishi uchun esa 10 ta shart qo'yilgan va ular so'zlarning qo'shib yoki ajratib yozilishida asosiy mezon sifatida belgilangan. Shartlarning bu darajada ko'pligi nafaqat imlo qoidalarini murakkablashtiradi, balki mavzu mohiyatining to'g'ri tushunilishiga mone'lik qiladi. Chunonchi, til egalari yoki tilimizni o'rganayotgan chet elliklar yuqoridagi 22 ta shart hamda qo'shimcha ravishda bir qancha istisno holatlarni ham yoddan bilishlari shart. Bundan ko'rishimiz mumkinki, 22 ta shart va istisno holatlarni hisobga olsak, til egalari salkam 30 ga yaqin qoidani esda tutishlari kerak bo'ladi, aks holda imlo xatolariga yo'l qo'yishlari tabiiy. Bu esa masalani yanada chigallashtiradi.

Garchi milliy tilimizda so'z birikmalari va qo'shma so'zlar chuqur tahlil qilinmagan bo'lsa-da, nazdimizda bu masala unchalik murakkab emas. Bunda so'z birikmasi va qo'shma so'zlar tub mohiyatidan kelib chiqilsa, ularni farqlash qiyin emasday. Masalan, so'z birikmasi orqali yoxud ikki so'z birikuvi natijasida hissiy a'zolarimiz orqali mushohada qilinayotgan narsa va hodisa boshqa (bir xil, o'xshash) narsa va hodisalardan ajratib ko'rsatiladi. So'zlar birikuvi narsa va hodisalarni farqlash uchun xizmat qilsa, so'zlar qo'shiluvidan obyektiv borliqdagi uchinchi bir narsa yoki hodisaga ishora qilinadi. Bunday misollar tilimizda ko'plab uchraydi: oq non – oqnon (nonning turi), issiq xona – issiqxona (teplitsa), oq suyak – oqsuyak (aslzoda), og'ir oyoq – og'iroyoq (homilador), qizil ishton – qizilishton (qush turi), temir yo'l – temiryo'l (poyezd yo'li), yangi yo'l – Yangiyo'l (shahar nomi), oq soch – oqsoch (xizmatkor), oq soqol – oqsoqol (qariya).

Keltirilgan fikrlarimizga xulosa yasagan holda aytish mumkinki, so'zlar birikuvi mohiyatan narsa va hodisalarni farqlasa, so'z birikmasi deb qarash va ajratib yozish, agar so'zlar birikuvi mohiyatan mushtaraklashib, uchinchi bir narsani nomlasa, qo'shma so'z deb qarash va qo'shib yozish maqsadga muvofiqdir.

¹A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, B. Madaliyev, A. Madvaliyev. O'zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari. – Toshkent, 2017. 57-bet.

²E. Vohidov. So'z latofati. – Toshkent, 2018. 56-bet.

³N. Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: Akademnashr, 2015.

Erkin MUSURMANOV,

Samarqand davlat universiteti dotsenti

YORKENT XONLIGI ADABIY MUHITI VA UNING MASHRABSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqola hozirga qadar jiddiy o'rganilmagan muammo – Rahimbobo Mashrabning Xitoy Xalq Respublikasi shimoliy-g'arbiy hududida o'n besh yil atrofida adabiy faoliyat olib borganligi, uning Yorkent xonligida chig'atoy tilidagi adabiy muhitining shakllanishida tutgan o'rni, badiiy uslublardagi adabiy an'ana va yangilikning davom ettirilishi va o'ziga xos ko'rinishlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xitoy xalqlari adabiyoti, Mashrab, Ofoq xo'ja, Xirqatiy, adabiy an'ana.

Annotation. This article discusses the literary influence of the 17th-century Uzbek poet Rahimboba Mashrab on the literary environment of the Yarkent Khanate, which existed in the north-western territory of China, where the poet himself lived and worked for fifteen years. It also explores the peculiar continuation of the literary tradition and artistic innovation among poets who wrote in Chagatai.

Key words: literature of the peoples of China, Mashrab, Ofak Khoja, poet Hirkati, literary tradition.

Аннотация. В данной статье рассматривается литературное влияние узбекского поэта XVII века Рахимбобы Машраба на литературную среду Яркентского ханства, которое существовало на северо-западной территории Китая, где пятнадцать лет жил и творил сам поэт, исследуется своеобразное продолжение литературной традиции и художественного новаторства среди поэтов, писавших на чагатайском языке.

Ключевые слова: литература народов Китая. Машраб, Офак Ходжа, поэт Хиркати, литературная традиция.

Rahimbobo Mashrab hayotining katta bir davri hozirgi Xitoy Xalq Respublikasiga qarashli hududdagi Qashqarda, Yorkent xonligining ko'plab shahar va qishloqlarida o'tgan.

Biz 2006–2008-yillar XXRda ilmiy safarda bo'lganimizda

Mashrabning qariyb o'n besh yil umri o'tgan Yorkent xonligi hududida shoir va uning zamondoshlari haqida o'zbek adabiyotshunosligi uchun ahamiyatli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bu kabi materiallarni qo'lga kiritishda XXR Sinszyan

universiteti professor-o'qituvchilari, janob Ching Ping, Elijon Malik, Ma Suy Ling xonim, Arslon Abdulla, taniqli shoir Bug'da Abdullaning yordami katta bo'ldi. Bu ma'lumotlar Rahimbobo Mashrab bilan bog'liq ko'plab masalalarga oydinlik kiritilishi, jumladan, shoirning tug'ilgan yili va umrining noma'lum tomonlari bilan bog'liq muammolarning yechilishiga sabab bo'ladi.

Mashrab she'rlari tadqiqotchisi J.Yusupov 2006-yil nashrga tayyorlagan Mashrab "Devon"iga kirgan so'zboshisida "1672-yili (Mashrabning – E.M.) Qashqar safari boshlanadi. Zamonasining eng yirik avliyolaridan biri, Ofoq (dinning ufqi, osmoni) deb dong taratgan yirik tariqat olimi Hidoyatulloh Ofoq xojaga murid tushadilar", degan ma'lumotni keltiradi. Xitoydagi izlanishlarimiz Rahimbobo Mashrabning 1672-yili Qashqarga bormaganligi, u vaqtda Ofoq xo'janing o'zi ham Qashqarda bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi. Chunki Yorkent xoni chingiziy Ismoilxon 1671-yil Ofoq xo'jani hokimiyat uchun kurash boshlagandan so'ng mamlakat hududidan chiqarib yuborgan edi. Xondan qochgan Hidoyatulloh xo'ja Tibetga – Dalay Lama V ning huzuriga boradi. Dalay Lama Ofoq xo'jaga hayrixoh bo'lib, o'z shogirdi, Jung'oriya podsholigi sultoni, buddaviy xuntayji G'aldon Boshhoqtuga Ofoq xo'ja bilan birgalikda Yorkent xonligi taxtini egallash uchun kurashga buyruq beradi.

Dastlab 1679-yil², ikkinchi safar 1681-yilda Ofoq xo'ja G'aldon Boshhoqtu qo'mondonligidagi qo'shin bilan Yorkent xonligi ustiga yurish qilishadi. 1681-yili Yorkent bosib olinadi va qo'g'irchoq hukumat tepasiga Ofoq xo'ja keladi. Bu ma'lumotlarga ko'ra Mashrabning 1672-yili Ofoq xo'ja bilan uchrashib, unga shogird tushishi mumkinligi to'liq inkor qilinadi.

Mashrabning Ofoq xo'ja dargohiga borish sanasi yetti yillik ta'limi bilan hisoblaganda pirning siyosiy voqealariga aralashmagan va mamlakatdan chiqarib yuborilmagan davrga, ya'ni 1663-yil sanasiga to'g'ri keladi. Agar Mashrab 1663–1670-yillar davomida Ofoq xo'ja dargohida tahsil olganligini va u yerni tark etgach, 1671-yilda Jung'oriya sultonligiga qaragan Ili vodiysiga borib, Xuntayjining qizi Aboq bilan munosabatga kirishish davrini e'tiborga olsak, aynan shu vaqtlarda Ofoq xo'ja ham Qashqardan chiqqan va Tibetdan Iliga kelgan bo'ladi.

Bu ma'lumotlar Rahimbobo Mashrabning tug'ilgan yilini 1653, 1657-yillar deb ko'rsatuvchi tadqiqotchilar sanalarini amalda yo'qqa chiqaradi. Mashrab tug'ilgan yilini 1640-yil deb belgilash ilmiy nuqtayi nazardan to'g'ri ekanligi oydinlashdi.

Shoir Bug'da Abdulladan Taklimakon degan joyda Mashrabning yashagan joyi, ovqat tayyorlagan o'chog'i hali ham borligi, o'sha yerda shoirning ko'plab muxlislari mavjudligi, Mashrabning Temurbek ismli o'g'li bo'lganligi, u o'z vaqtida mohir sarkarda sifatida haq yo'lida ko'plab jang-u jadallar olib borganligi, uning avlodlari hozirga qadar u yerda yashayotganligi haqidagi qiziqarli xabarlarga ega bo'ldik. Biroq keyingi mulohazalarni tasdiqlovchi aniq manba bo'lmaganligi sababli ularni afsona sifatida qabul qildik. Umuman olganda, Xitoyning g'arbiy-shimoliy tomonidagi xalqlar orasida Mashrab shaxsiyati va adabiy merosiga nisbatan qiziqish katta. Qalandar shoir g'azallari bilan aytiladigan maqomlar o'sha yerdagi mahalliy xalq orasida shuhrat qozongan bo'lib, o'zbekcha she'rlar uyg'urcha ohangda kuylanadi. 2005-yil YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kirgan mashhur "Uyg'ur o'n ikki muqomi"

(نۇيغۇر ئون ئىككى مۇقامى) da ham Mashrabning g'azallari asosida yaratilgan qo'shiq (naxsha)lar bor. Jumladan:

Setorim toriga jon rishtasidan tor eshib cholsam,
Ani xush nolasidein bevafo ni ko'nglini olsam.
Maqom olib maqom uzra maqomin dilg'a jo qilsam,

Muhabbat sozig'a sozlab man oning oldida cholsam.
Maqomlarning atosini "Husayniy"u "Ajam" derlar,
Bulardin ham yuqori pardayida "Chorgoh" cholsam.
"Bayod"i dilbarimni yodida cholsam payo-paykim,

Ki, ko'ngul benavo bo'lg'onidin aylab "Navo" cholsam³, –
g'azali "Uyg'ur o'n ikki muqomi" tarkibiga kirgan "Roq muqomi"
matnida ushbu ko'rinishga ega:

Satarim tarig'a xan rishtisidin tar eship salsam,
Ani qim nalisidin benovanih kexlini alsam.
Muqom ichre muqom chalsam, muqomni dilg'a ja qilsam,
Ki ul mehbus naxer qilsa anih aldida men chalsam.
Muqomlarnih atasini "huseyn"u hem "Ejam" derlar,
Ulardin yuqari pordaki – "Bayat"ini men chalsam.
Bayati ashnanih yazida eyitsam bayatihni,
Kexulym, benava bolg'anda bilsam men "Nava"
chalsam...⁴

Yorkent xonligi davrida yashagan shoirlarning katta qismi Alisher Navoiy bilan bir qatorda Rahimbobo Mashrab asarlari ta'sirida ijod qilishgan. Buni Qashqarda, Ofoq xo'ja dargohida Rahimbobo Mashrabga saboqdosh bo'lgan Muhammad Emin Xo'jamquli Xirqatiy (Gumnom) misolida ko'rish mumkin.

Xirqatiy asarlari matnini tayyorlash o'tgan asrning 50-yillarida amalga oshirildi. Shoirning g'azal, ruboiy va boshqa she'rlari mavjud bo'lgan to'plami 1957-yili uyg'ur shoiri Arshiddin Tatlilq tomonidan yorlentlik Sayim Axun kutubxonasida borligi aniqlandi. Bu she'rlar 1981-yili Urumchida nashr bo'ladigan "Buloq" jurnalining 3-sonida⁵ M.Osmanov tomonidan e'lon qilindi.

Xirqatiy ijodining cho'qqisi uning 1670-yilda yozilgan 47 bobdan iborat asari – "Muhabbatnoma va Mehnatkam" nomli munozara janridagi dostoni hisoblanadi. Xirqatiyning ikkinchi taxallusi Gumnom. Uning "Devoni Gumnom" she'riy to'plami 109 sahifadan iborat bo'lib, 85 ta g'azal (1550 misra), 14 ta muxammas, 25 ta ruboiy, bir tarjibband va bir masnaviydan tarkib topgan. Gumnom Mashrabning:

Chiqsam ko'chaga shohsuvorim keladur,
Gul g'unchasidek lola uzorim keladur.
Har yong'a boqib, kifrik o'qin xalqg'a otibon,
O'tlarni yoqib jonimg'a nigorim keladur, –
g'azaliga nazira bog'lagan:
Chiqsam ko'chaga shahsuvorim keladur,
Gul g'unchasidek lola uzorim keladur.
Har yong'a boqib, kirpik o'qin eliga otib,
Jonimg'a yoqib o'tni nigorim keladur ...
Shuningdek, Mashrabning:

Qof-u nun – ko'z-u labing, madd alif-u madd – qoshing,
Ro'yi astoring boshingdin oyog'ing Qur'on qiz, –
kabi baytlariga monand misralar Gumnomning she'rlarida ham uchraydi:

Qof-u nun ko'zi labing, madd alif qaddi qoshing,
Ro'y-u asroring boshingdin oyog'ing qiran qiz.

Rahimbobo Mashrab adabiy an'analari nafaqat u yashagan zamonda, balki undan keyingi davrlarda, jumladan, XIX asrda ham davom ettirildi. Mashrab she'laridagi o'ynoqi, yengil va sho'x uslubni marifatparvar shoir Bilol Nozim ham katta mahorat bilan davom ettirdi. Bilol Nozim she'riyatida Mashrabning o'ynoqi va xalqchil uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoirning ayriliqqa bag'ishlangan ushbu she'ri qalandar shoirning ruhiy kechinmalarini aks ettirgandek tasavvur uyg'otadi:

Alvido, ey Mohi paykar, alvido,
Alvido, ey bo'yi anbar, alvido!
Alvido, ey nuri ruhar, alvido,
Alvido, ey g'uncha zever, alvido!⁶

Xayrlashuv onlariga bag'ishlangan ushbu ta'sirli she'rga zamin yaratgan Rahimbobo Mashrabning mazkur g'azali asos bo'lganligini bilib olish qiyin emas:

Alvido, ey mohi rahmat, shahri g'ufiron, alvido!
Alvido, ey rahmati Haq, mohitobon, alvido!
Bir ajab mahsan hama mahlar aro qurbing azim,
Qaysi moh san kabi sohib, xayri ehson alvido!⁷

Bundan tashqari Xitoyning Shinjon hududida Rahimbobo Mashrabga zamondosh bo'lgan yoki undan keyin yashagan

Muhammad Siddiq Zaliliy, Obid Qumuliy, Mulla Pozil, Muhammad Xarobotiy, Navbatiy, Boboxo'ja Oxun Xo'tandiy, Ibrohim Mashhuriy, shuningdek, Siddiq Qashqariy, xoja Nasiroxun, Mavloni Hulqiy, Mirzo Mirak Chalishiy kabi shoir va san'atkorlar ham ijod qilganlarki, ularning asarlari bilan Mashrab she'rlarini qiyosiy-tanqidiy o'rganish, shu asosda o'tmish o'zbek adabiyotining tarqalish jug'rofiyasini va ta'sir doirasini aniqlash adabiyotshunoslar oldida turgan vazifalardan bo'lib, bunga oydinlik kiritish Markaziy Osiyo xalqlari adabiy aloqalarining ma'lum davrini yoritishga xizmat qiladi.

Yorkent xonligi (Shinjon) hududida o'zbek mumtoz adabiyotining ulkan ta'sirida yaratilgan badiiy, ilmiy, tarixiy-memuar asarlar mahalliy el ma'naviy dunyoqarashining, badiiy-ilmiy tafakkuri doirasi, tarixiy hodisalar va ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabatining ko'zgusi sifatida ahamiyatli.

¹Devon. (Nashrga tayyorlovchi: J.Yusupov). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. 11-bet.

²Valixanov Ch. "Oltishahar yoki Xitoydagi Nan-Lu (Kichik Buxoro) viloyatining 1858–1859-yillardagi holati to'g'risida" asarida bu sanani 1678-yil deb ko'rsatadi. Qarang: Valixanov Ch. Tom 3 [Matn]: V 5 t. / AN Kaz R.- Almati,

³Devon. (Nashrga tayyorlovchi: J.Yusupov). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. 131-bet. 1985. 128-bet.

⁴Мухоммет Имин Абдушукур. Шинжаңнинг Таң дэвридики нахша-уссул сэнъити. Урумчи, 1980. 43-бет.

⁵Gumnam g'azilliri // Bulaq (uyg'ur klassik va og'zeki adabiyati to'plami). – Urumchi (乌鲁木齐), 1981. №3. (uyg'ur tilida). 46–77-betlar.

⁶Хамраев М.К. Основы тюркского стихосложения (На материале уйгурской классической и современной поэзии). АН. Каз.ССР. Алма-Ата.1963. – С. 140.

⁷Devon. (Nashrga tayyorlovchi: J.Yusupov). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. 140-bet.

Otabek YO'LDOSHEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Til o'rgatish kafedrasida katta o'qituvchisi

TEXNOGEN SIVILIZATSIYA VA TA'LIM-TARBIYA

Annotasiya. Mazkur maqolada texnogen sivilizatsiyaning ijtimoiy hayotdagi ijobiy, salbiy oqibatlarini, xususan, yoshlar munosabatlarida keltirib chiqarayotgan muammo sabablari va uning yechimlari borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: axloq, globallashuv, shaxs, muhit, ijtimoiy muhit, madaniyat, texnogen, sivilizatsiya.

Annotation. In this article, comments are made on the positive and negative consequences of techno-civilization in social life, in particular on the relations of young people, the causes of the problem and its solutions.

Key words: morality, globalism, personality, environment, social environment, culture, civilization.

Аннотация. В данной статье рассматриваются положительные и отрицательные последствия техногенной цивилизации в социальной жизни, в частности в отношениях молодежи, причины возникновения проблемы и пути ее решения.

Ключевые слова: мораль, глобализация, личность, окружающая среда, социальная среда, культура, техногенный, цивилизация.

Dunyo texnogen sivilizatsiyasi o'z negizini muntazam o'zgartirgan holda yangi g'oya va konsepsiyalar, ilmiy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o'zgaruvchan va yangilikka intiluvchan jamiyat bo'lishi bilan birga o'ta tajovuzkorligi bilan ham o'zini namoyish qilmoqda. Texnogen sivilizatsiyaning ommalashuvi, jumladan, bir qator kompyuter texnikasi, mobil aloqa vositalari, internet tarmog'ining inson omili ustidan hukmronlik qilishi kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. O'tgan XX asr insoniyat xotirasida o'zining iqtisodiy va siyosiy silkinishlari bilan xarakterli xususiyatga ega bo'ldi. Aynan shu davrda ilmiy kashfiyotlar, texnikaviy ixtirolar ishlab chiqarildi. Ushbu yaratilgan barcha yangiliklar texnogen rivojlanish, ya'ni sivilizatsiyaning o'ziga xos ko'rinishiga ega

bo'lishiga olib keldi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu davr **texnogen sivilizatsiya** davri deb yuritila boshlandi.

Texnogen sivilizatsiya – insoniyat tarixining qadimiy faoliyat natijasi bo'lib, ilk bor yer kurrasining g'arbiy mintaqalarida yuzaga kelgan. Faqat XV–XVII asrlarga kelib Yevropa mintaqasida texnogen jamiyatning o'ziga xos tiplari shakllandi. Ushbu tipdagi ilk sivilizatsiyalar an'anaviy jamiyatning xususiyatlariga qarama-qarshi bo'lgan belgilar bilan namoyon bo'ldi.

Hozirda texnogen sivilizatsiyani o'rganish borasida ilmiy izlanishlar, jarayonni pedagogik, axloqiy va aksiologik yondashuvlar asosida tadqiq etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan maktab o'quvchilarining aksiologik

tarbiyasida texnogen sivilizatsiyaning ahamiyati metodologik muammo sifatida qarab kelinmoqda.

Zero, texnogen sivilizatsiya maktab o'quvchilarining axloqiy tarbiyasida mezon sifatida qaraladigan bo'lsa, uning yoshlar ongiga ijobiy va salbiy ta'sirini bir butunlikda o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda, texnogen sivilizatsiya tushunchasining tahlili hamda uning axloq bilan dialektik aloqadorligini ilmiy jihatdan asoslash bugungi kunning dolzarb bahs mavzusiga aylandi.

Texnogen sivilizatsiya juda ko'p global inqirozlarni yuzaga keltirdi, shuning uchun uning rivojlanish strategiyasi va qadriyatlar tizimi muammo bo'lib qoldi. Bu qadriyatlar nimalardan iborat? Bu savolga javob berish uchun sivilizatsiyaning rivojlanish davrlariga e'tiborimizni qaratamiz. Umuman olganda, sivilizatsiyani ikkita katta turga bo'lish mumkin: an'anaviy sivilizatsiya va g'arb sivilizatsiyasi. G'arb sivilizatsiyasini texnogen sivilizatsiya deb atash mumkin, chunki uning rivojlanishida doimiy izlanish va yangi texnologiyalarni qo'llash asosiy rol o'ynaydi. Unda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalanishdan tashqari ijtimoiy boshqarish va ijtimoiy kommunikatsiya texnologiyalari ham muhim ahamiyatga ega.

XX asrning oxirgi o'n yili davomida sivilizatsiyaga doir yangi va yangi konsepsiyalar, qarashlar, g'oyalar yuzaga keldi. Masalan, yapon tarixchisi Sh.Ito madaniyat bobida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning asosiy sababini umumsayyoraviy sivilizatsiya bilan lokal sivilizatsiyaning o'zaro aloqadorligidan izlaydi. Bunday konsepsiya va qarashlarning ta'siri o'laroq yangi va yangi tushunchalar yuzaga kelmoqda: "markaziy sivilizatsiya" (D.Uilkinson), "sivilizatsiya jarayoni" (N.Elias), "bo'lingan sivilizatsiya" (S.Xantington), "savodsizlik sivilizatsiyasi" (M.Nadin). Yangi va yangi muammolar kun tartibiga qo'yilmoqda: sivilizatsiya – yovvoyilik manbai (S.Latush, P.Kaufman), o'z-o'zini madaniy identifikasiyalash va sivilizatsiyalar to'qnashuvi (S.Xantington) va hokazo.

O'zbek olimlari tomonidan ham hozirgi zamon sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar talaygina. Xususan, atqoli olima F.Sulaymonova sivilizatsiyalarning turli tiplari o'rtasida dialektik aloqadorlik mavjudligini asoslab berishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari S.Otamuratov ham o'z asarlarida ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf solishi haqida mulohazalar keltirgan. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, eng dahshatli, yoshlarning ongiga bo'lgan hujum, bularning barchasi nafaqat inson ma'naviy kamolotiga, balki har qanday jamiyatga ulkan zarar keltiradi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, bugungi globallashuv sharoitida turli shakldagi, xususan, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurash, yosh avlodni bu xavf-xatardan asrash, ularda bu xavfqa qarshi milliy g'oya asosida immunitetni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. [1]

Yuqorida ta'kidlangan noma'qul oqibatlarining oldini

olish maqsadida aholi, ayniqsa, yoshlarga zamonga yarasha ta'lim va tarbiya berish zarurligi ham ayon bo'ldi. Texnogen sivilizatsiya keraksiz oqibatlarga olib kelmasligi uchun kishilarda fazilat deb ataluvchi ijobiy-ijtimoiy sifatlarni shakllantirish lozim.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani kabi globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish mumkin. G.Tillayevaning fikricha, "Texnologiyaning rivojlanishi tabiiy jarayonlarga o'z ta'sirini kuchaytirdi, inson manfaatlariga mos ravishda tabiiy muhit unsurlari sun'iy muhit bilan almashtirildi. Bunday texnikaviy yondashuv tabiatni inson o'z irodasiga bo'ysundiradi, degan antroposentrik qarashga asoslangan. [2] XX asr oxiriga kelib inson tomonidan yaratilgan texnosfera Yer biosferasi bilan tenglashdi. Bunda sun'iy texnomassa tabiiy biomassadan oshib ketdi. Hozirgi zamon globallashuvining olamshumul muammolari va yangi ijtimoiy-madaniy definitsiyalar an'anaviy ekologik voqelikni aks ettiruvchi paradigmalarni tubdan o'zgartirib yubordi" [3; 22]. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasida integratsiya va demokratik aloqalarning kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalar, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli umuminsoniy qadriyatlarining umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, inson texnogen sivilizatsiyani to'la nazorat qila olmas ekan. Texnogen sivilizatsiya yuksaklik va murakkabliklar bilan chambarchas bog'liq. Muammolarning o'lchami va insoniyatning imkoniyati darajasi o'zimizga va olamga bo'lgan munosabatni qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Umuman olganda, jamiyat faronoligi, yangilanish jarayonlari, yoshlarning yuksak salohiyati, yetukligi, mukammalligi va ijodiy rivoji bilan chambarchas bog'liq ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini muntazam olib borish, bu tadqiqotlarda tarbiyaning umumbashariy tamoyillari bilan birga milliy jihatlariga ham alohida e'tibor berish lozim; tarbiyada ijtimoiy muhit samaradorligiga erishish uchun ularning aqlli, dono, bilimdon, odobli, ijodiy va intellektual salohiyatga ega yetuk va mukammal shaxs sifatida shakllanishlarida ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy-huquqiy jihatlarini mustahkamlashimiz zarur [10].

Xullas, xalqimiz kelajagining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy vazifalarini hal etish ko'p jihatdan jamiyat va undagi har bir insonning axloq darajasiga bog'liq. Axloq va odob shaxs ijtimoiy sifatlarni rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Mehr-oqibat, sadoqat, samimiylik, izzat-hurmat, andishalik singari yaxshi axloqlarni yoshlarga singdirish bugunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Globallashuv sharoitida milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, milliy-ma'naviy merosni yoshlar ongi va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish umummilliy g'oya ekanligini anglab yetishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Otamuratov. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
2. G.Tillayeva Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Falsafa va huquq in-ti, 2009. 22-bet.
3. Гизо Ф. История цивилизации в Европе. – Москва: Территория будущего, 2007.
4. Морган Л. Первобытное общество: исследования прогресса человечества из дикого состояния к варварству и из варварства к цивилизации. – СПб.: Л.Ф.Пантелеев, 1900.
5. Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства: в связи с исследованиями Льюиса Г. Моргана. – Москва: URSS, 2007.
6. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – Москва: Республика, 1994.

Dilnoza JUMAYEVA,
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti o'qituvchisi

“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONLARIDAGI MAVZU RANG BARANGLIGI

Musulmon Sharqi xalqlari adabiyotida eng ko'p murojaat qilingan sujet “Yusuf va Zulayho” haqidadir. Bu sujet asosida yaratilgan asarlar uzoq davr va keng geografik hududga tegishliligi, shuningdek, turli toifa va tabaqaga mansub mualliflar ishtiroki bois turli g'oyaviy mazmun, xilma-xil badiiy talqin hamda ko'rinishlarda namoyon bo'lgan.

Dastavval diniy afsona tarzida vujudga kelgan Yusuf alayhissalom haqidagi afsona va rivoyatlar keyinchalik turkiy adabiyotning ulug' vakillari diqqatini ham o'ziga jalb etdi. Ushbu mavzuda nasriy va nazmiy yo'l bilan yuzlab badiiy asarlar yaratildi. Salohiyatli ijodkorlar qur'oniylar mavzuni o'z mahoratidan kelib chiqib yanada boyitdilar. “Qur'oniylar mavzularning jahon va, alalxusus, o'zbek adabiyotiga singib o'tishi faqat diniy nuqtayi nazardangina iborat bo'lib qolmay, balki Sharq adabiyotining biz uchun mavhum qirralarini oydinlashtirib, turli adabiy mavzularning sarchashmalarini ochgan va hozirgi zamon o'zbek adabiyotining islom adabiyoti bilan shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad bergan”¹.

Yusuf va Zulayho mavzusi xalq orasida ba'zan hikoyat, ba'zan qissa yoki doston bo'lib shakllangan. Ularni shakliy alomatlariga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruhga mansub ijodkorlar mazkur an'anaviy mavzuda dostonlar yaratdilar. Bular Abulqosim Firdavsiy, Qul Ali, Durbek, Abdurahmon Jomiy va Olim Devonadir;

ikkinchi guruhni tashkil qiladigan ijodkorlar nasriy asarlar yaratish bilan Yusufnomaqa sayqal berdi. Buning yorqin namunasi sifatida Abu Ali ibn Sinoning “Qissai Yusuf”, Rabg'uziyning “Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom”, Andalibning “Yusuf va Zulayho” asarlarini aytish mumkin. Mazkur qissalarga har bir ijodkor o'z dardi, g'oyaviy niyati, ilohiy-irfoniy tafakkuri, ijodiy-hayotiy tajribasiga suyanib munosabat bildirgan.

Sanab o'tilgan Yusufnomalar o'quvchiga qadim tarix haqiqatlarini bir qadar anglatadi. Bular ichida Abdurahmon Jomiy (doston), Durbek (doston), Nurmuhammad Andalib (qissa), Mirzo Olim Devona (doston) va Xolis (doston) yaratgan qissa-dostonlar o'ziga xos sifatleri bilan alohida ajralib turadi. Nomi zikr etilgan adiblar o'z adabiy tajribalari misolida Yusuf va Zulayho kechinmalari asosida yirik hajmli asar yaratishning an'anaga aylanishi uchun zamin yaratdilar.

Ma'lumki, barcha ijodkorlar Yusuf va Zulayho haqidagi rivoyatlar asosida yangi bir asar yaratishga kirishganda ular haqidagi asosiy voqealar silsilasiga tayanib ish ko'radi. Unga o'z g'oyaviy maqsadlari natijasida bir qancha o'zgartirishlar kiritadilar. Asosiy voqealar silsilasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Ya'qub o'g'illari ichida Yusufning otasiga eng suykli farzand bo'lishi va bundan aka-ukalar o'rtasida adovat paydo bo'lishi;

Yusufning kelajagidan bashorat qiluvchi tush voqeasi.

Yusufning birodarlari tomonidan chohga tashlanishi va Misrga qul qilib sotilishi;

Yusufning Zulayho bilan uchrashuvi va ular o'rtasidagi ishqiy sarguzashtlar;

Yusufning Misrda shon-shuhrat topishi va taxtga o'tirishi.

Jomiy yettiligining uchinchi dostoni bo'lmish “Yusuf va Zulayho” 1483-yilda yozilgan bo'lib, u sayyor sujetning o'ziga xos namunasi sifatida e'tirof qilinadi. Ogahiy

tarjima qilgan bu asar o'zining sodda tili, jomiyona tasvir vositalari bilan o'quvchiga tez yetib boradi. Sujet chiziqdari murakkablashmagan, tili sodda, o'qilishi oson. Balki Jomiy bu asarini o'z yetilligi tarkibida berganligi uchun ham unchalik murakkablashtirmaganidir. Hajm jihatdan ham (58 bobdan iborat), voqealar rivoji nuqtayi nazaridan ham shoirning “Yusuf va Zulayho” asari boshqa shu mavzuga murojaat qilgan ijodkorlardan farq qiladi.

Qayd etilganidek, Abdurahmon Jomiy (Ogahiy tarjimasi) o'zining “Yusuf va Zulayho” asarini doston shaklida yozdi. Shu bois asar avvalidan dostoniga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Asarda Allohga hamd va besh bobdan so'ng Yusuf alayhissalomga bag'ishlangan bob keladi, asosiy voqealar shundan keyin boshlanadi.

Durbek va Olim Devona ham dostonni shu yo'sinda boshlaydilar. Qayd etish lozimki, Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoniga ergashib shu nomda asar yaratgan ijodkorlar ham talaygina bo'lishgan. Ulardan eng mashhuri Nozim Hirotiy bo'lib, Jomiy va Hirotiyning dostonlari qiyosiy o'rganilgan.²

Olim Devona o'z dostonini boshqa nomda yaratasa-da, Jomiyga ergashadi. Jomiy asaridagi boblar Olim Devonada ham mavjud. Biroq u dostoniga yana qo'shimcha tarzda to'rt xalifa va Samarqand madhiga bag'ishlangan yana ikki bobni kiritadi.

Durbek esa o'z dostonini qisqagina uch bob, ya'ni Xudoga hamd, hazrati payg'ambar na'ti va “Kitob nazmining ibtidosi”ga bag'ishlangan boblardan so'ng asosiy voqealar tasviriga o'tadi.

Bu xususiyat Nurmuhammad Andalib va Xolis asarlarida o'zgacha ko'rinish olgan. Ma'lumki, Andalib o'z asarini nasr-u nazm tartibida yaratgan edi. Shu bois qissaning hamd qismi ham boshqa ijodkorlardan farq qiladi. Muallif hamd qismini nazm yo'lida bitib, unda qissaning yozilish sabablari va o'z tarjimaiy holiga oid ma'lumotlarga ham o'rin beradi.

Xolis “Yusuf va Zulayho” dostonini yozishga kirishganda, avvalo, o'z ijodi, hayoti va yaratgan asarlarini yoritishga jazm qiladi. Undan so'ng Xudoga hamd, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) va Ya'qub payg'ambarlar na'tini birlashtirib, qisqagina, aniqrog'i o'n baytdan iborat salovat keltirib o'tadi. Mazkur boblardan so'ng asosiy voqealarga o'tiladi.

Har bir ijodkor asosiy voqealarni, avvalo, Ya'qub alayhissalom va uning farzandlarini tanishtirishdan boshlaydi. Bundan faqat Ogahiy tarjimasi mustasno. Chunki u voqealar rivojini Yusufning go'zalligi ta'rifidan boshlaydi. Unda aytilishicha, Odam alayhissalomga falakdan parda ochilib, butun avlodlarini kuzatish imkoni berilgan ekan. U avlodlari bo'lmish anbiyolar hayotini doimiy kuzatib boradi. Vaqlar o'tib, birma-bir payg'ambarlar almashaveradi. Yusuf alayhissalom dunyoga kelganda, Odam ato uning go'zal jamolini ko'rib, Allohdan bu husn-u jamol Yusufda qanday bunyod bo'lganini so'raydi. Hazrati Odamning nolasidan so'ng Allohdan nido keladi: “U sening farzandingdur, Ya'qub bog'ining niholidur”. Shunda Odam alayhissalom o'z husnini uch qismga bo'ladi. Uchdan ikki qismini Yusufga, qolgan bir qismini esa boshqalarga beradi. Keyin Yusufni duo qiladi.

Ko'rib o'tilgan ushbu epizod boshqa hech bir dostonida uchramaydi. Bizningcha, adib bu orqali shu mavzuda bitilgan asarlar o'rtasidagi bir xillikdan qochishga harakat qilgan. Unga yangicha nuqtayi nazar bilan yondashgan.

Endi Ya'qub farzandlari haqidagi ma'lumotlarga to'xtalaylik. Tabiiyki, bu ma'lumotlarning ifodasi ham beshta asarda turlicha namoyon bo'ladi.

Jomiy:

Topib Yusufdin o'zga o'n bir avlod,
Vale Yusufdin erdi joni obod.

Durbek:

Bir otodin o'n edilar sar-basar,
Tengri yo'lida borisi rohbar.
Bir onodin Yusuf-u Ibn Yamin,
Ikki qorindosh edilar, pok din.

Olim Devona:

Tengri oning poyasin aylab baland,
Berdi o'n ikki xalafi arjumand.
Biri alardin guli tahqiq edi,
Koni adab Yusufi Siddiq edi.

Yuqoridagi parchalardan ayon bo'ladiki, Jomiy va Olim Devona variantida og'a-inilar haqidagi ma'lumotlar ortiqcha izohlarsiz umumiy tarzda so'zlab o'tilgan. Ya'qub bolalari haqida Durbek bergan ma'lumotda esa noaniqlik seziladi. Unda bir otadan o'n ikki o'g'il, ulardan Yusuf va Ibn Yamin bir onadan tug'ilgani bayon qilingan. Qolgan farzandlarning onalari haqida esa hech qanday so'z aytilmagan.

Andalib qissasida mazkur tasvirlar quyidagicha berilgan: "Ammo Ya'qub alayhis-salomning o'n ikki o'g'illari bor erdi. Har ikki o'g'li bir onodin erdi. Yusuf a.s birla Ibn Yamin bir onodin erdilar. Bularni onosi dunyodan rihlat qilib erdilar. Oti Rohila erdi..."³ Ko'rib o'tilganidek, farzandlar to'g'risidagi ushbu ma'lumot Andalib ijodida batafsil beriladi. Bu o'rinda muallif boshqalardan farqli o'laroq voqealar rivojini ancha chuqur va puxtarok bog'lashga urinadi. Shuningdek, Yusuf og'alarining ismlari va xarakter xususiyatlari ham bu asarda

mukammal aks etgan deyishga asos yetarli: "Ammo Ya'qub alayhis-salomni har o'g'lini bir hosiyati bor edi. Birini oti Yahudo erdi. Oni xosiyati bu erdiki, dar qahr bo'lib na'ra ursa, eshitganlarni hammasini zahراسi yorilib o'lur erdi. Har mo'yiki badanida bo'lsa, monandi nayzadek bo'lib o'tar erdi. Va birini oti Sham'un erdi. Oni xosiyati bu erdiki, agar qilich ursa, qilichi tog'ni va toshlarni kesar erdi. Va yana birini oti Rovil erdi. Oni xosiyati bu erdiki, har necha lashkar kelsa, sherdek ko'krab chosh-posh qilur erdi".⁴

Bu xususida Xolis quyidagilarni keltirib o'tgan:

Zamon erdi, (ki Ya'qub) payambar,
Bani isroiliyga erdi sarvar.
Ani o'n ikki o'g'li ham bor erdi,
Har ikki bir onodin bo'lub erdi.
Yusuf-u Ibn Yamin onglag'aysiz,
Alar birla bor erdi yana bir qiz.
O'shal qizni oti ham erdi Norjon,
Anolari o'lub erdi o'shal on.⁵

Keltirilgan parchalardan ayon bo'ladiki, ushbu masalada Andalib va Xolisning asarlari anchagina mukammallik kasb etgan. Ya'ni ular farzandlarning har ikkisi bir onadan ekanini aniq ko'rsatib, Yusuf va Ibn Yaminning onasi haqida qisqacha to'xtaladi. Ikkala asarda ham, asosan, muhabbat tarannumiga ko'proq e'tibor berilgan. Asosiy urg'u oshiq va ma'shuq munosabatlariga qaratilgan. Voqealarni batafsil, ipidan ignasigacha tasvirlashga u qadar katta ahamiyat berilmagan.

Yusuf va Zulayho haqidagi asarlar kompozitsiyasi, sujet chizmasiga diqqat qilinsa, yuqorida keltirganlarimiz kabi turli tafvutlar uchraydi. Ma'lum bir voqea-hodisa tafsiloti bir ijodkor asarida mukammallik kasb etsa, boshqa hodisalar tasviri keyingi ijodkorda yorqinroq ko'rinadi. Biz ularning eng asosiyalarinigina ajratib, biroz bo'lsa-da tahlil etishga urindik. Mazkur mavzudagi asarlarning o'ziga xos jihatlari hali juda ko'p va ular kelajakda o'z tadqiqotchilarini topadi, degan umiddamiz.

Ixtiyor ERMATOV,

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

TILSHUNOSLIK TERMINOLOGIYASIDA GIPERO-GIPONIMIK HODISALAR

Leksika – tilni geterogen ishoralar tizimi sifatida tasavvur ettiruvchi organik qism. Metatil vazifasidagi terminologik sistema ham shu qism tarkibiga kiruvchi lug'aviy qatlamlardan biridir. Metatil tizimi xarakteridagi lug'aviy birliklar xalq xo'jaligi, fan-texnikaning muayyan sohalariga xos tushunchalarni atashi, ularni lisoniy jabhaga olib chiqishi bilan boshqa qatlam lug'aviy birliklaridan farqlanadi. Xalq xo'jaligi, fan va texnikaning muayyan sohalariga mansub tushunchalarni atash termin va ular tizimining ijtimoiy-lisoniy vazifasi hisoblanadi. Ana shunday muhim ijtimoiy lisoniy vazifa, shubhasiz, tilshunoslik atamaları va ularning tizimi uchun ham tegishli.

Fan-texnika taraqqiyoti yangidan yangi terminologik lug'atlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ladi. Maxsus lug'atlar xalq xo'jaligi, fan va texnikaning muayyan bir sohasi terminologiya tizimining shakllanishi va rivojiga munosib hissa

qo'shadi. Shuningdek, ulardagi ayrim hodisalar talqinidagi har xilliklarga chek qo'yadi.

Leksik giponimik paradigmalarda dunyoning barcha tillarida mushtarak ochiq lug'aviy mikrotizimlarni tashkil qiladi. Bu shunday mikrotizimki, uning tarkibi uzluksiz yangi elementlar bilan boyib boradi. Ayni paytda aynan mana shu yangi elementlararo turlicha lisoniy ma'no munosabatlari vujudga keladi. Bunday lisoniy ma'no munosabatlaridan biri giperonim va ularga tobe giponimiyaga munosabatlaridir. Til o'zining lug'at tarkibidagi gipero-giponimik paradigmalarni boyitishda cheksiz imkoniyatlarga ega.¹

Terminlar, odatda, "tabiiy til" so'zlaridir. Umumxalq leksikasi lug'aviy birliklaridan farqli o'laroq, atamalar xalq xo'jaligi, fan va texnika sohalarining muayyan bir hodisalarini atash orqali ular bilan mantiqan va lisoniy jihatdan bog'lanadi. Ayni

bu holat tilshunoslik atamaları va ularning tizimiga ham xos xususiyat sanaladi.

Tilshunoslik terminlari sohasining yaxlitligi va izchilligi uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi turli leksik va semantik munosabatlar, xususan, gipero-giponimik munosabatlar tufayli yuzaga keladi.² Gipero-giponimiya hodisasi har qanday soha lug'atiga xos atamalarda ham mavjud, chunki jins-tur munosabatlarini ifodalashda, avvalo, terminologiyaning o'ziga xos tizimlik tabiati namoyon bo'ladi.³ Gipero-giponimik munosabatlarni aniqlamasdan turib terminologiyaning tizimlik xususiyatini tavsiflash qiyin.

Gipero-giponimik tizimlashtirish leksikografiya sohasi uchun ham muhim, chunki har qanday turdagi lug'atni tashkil etish prinsipi so'z anglatgan jins va turlar hamda ularning farqli belgilari orqali aniqlanadi. Mushtarak lisoniy munosabatlar leksikasining barcha qatlam lug'aviy birliklariga xos.

Giponim atamalarining ma'nosi asoslangan denotatlar o'ziga xos atributlar bilan giperonim atamasi ma'nosi anglatgan denotatni voqelantiradi. Shu bilan birga giperonim qo'shimcha semantik xususiyatlarga ega bo'ladi va ma'lum konsepsiyaning mazmunini kengaytirib, hajmini toraytiradi. Bu xususiyat o'z navbatida giponimlarga nisbatan semantik tarkibiy qismlarning ustuvor bo'lishiga olib keladi.

Giponimlar turli miqdorda va turli xil semantik o'zgachaliklardagi atributlar (lot. *atributum* – qo'shib qo'yish, qo'shimcha qilish)⁴ xarakterini kasb etib, giperonim ma'nosi anglatgan denotatni turli tomonlardan kengaytirib, mukammallashtiradi. Masalan, *undosh tovush* atamasi giperonim maqomida 25 dan ortiq *giponimlarni* o'z ichiga oladi. Bu giperonimga mansub giponimlar paradigmasini *jarangli undosh*, *jarangsiz undosh*, *sonor undosh*, *lab undosh*, *til undosh*, *bo'g'iz undosh*, *shovqinli undosh*, *portlovchi undosh*, *sirg'aluvchi undosh*, *titroq undosh*, *unlilararo undosh*, *yumshoq undosh*, *qo'sh undosh*, *burun undosh*, *yon undosh*, *lab-lab undosh*, *lab-tish undosh*, *tanglay-tish undosh*, *uvulyar undosh*, *intervokal undosh*, *volyar undosh*, *faringal undosh*, *frikativ undosh*, *alveolyar undosh*, *bilabial undosh* singari atamalar tashkil qiladi.⁵

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra gipero-giponimik terminlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

a) bir komponentli: *son* (giperonim): *birlik*, *ko'plik* (giponimlar);

b) ikki komponentli: *fe'l nisbatlari* (giperonim) *aniq nisbat*, *o'zlik nisbati*, *orttirma nisbat*, *majhul nisbat*, *birgalik nisbat* (giponimlar);

d) uch va undan ortiq komponentli: *ergash gap* (giperonim): *ega ergash gap*, *kesim ergash gap*, *aniqlovchi ergash gap*, *to'ldiruvchi ergash gap*, *hol ergash gap*, *payt ergash gap*, *o'rin ergash gap*, *sabab ergash gap*, *maqsad ergash gap*, *shart ergash gap*, *to'siqsiz ergash gap*, *natija ergash gap*, *o'xshatish ergash gap*, *ravish ergash gap* (giponimlar) va boshqalar.⁶

Gipero-giponimik qatorlarni, shuningdek, "to'g'ri shakllangan" va "noto'g'ri shakllangan" kabi guruhlariga ham ajratish mumkin. "To'g'ri shakllangan" guruhlarida giperonim atama, odatda, ikki xarakterli giponimlarni o'z ichiga oladi. Uning giponim atamaları esa semantik tarkibida ma'lum bir semaning mavjudligi yoki mavjud emasligi asosida oppozitsiya

munosabatida bo'ladi. Masalan: "undosh" atama giperonimi: *jarangli undosh* – *jarangsiz undosh*, *lablangan tovush* – *lablanmagan tovush* (tovush); "gap" atama giperonimi: *sodda gap* – *qo'shma gap*; "assimilatsiya" atama giperonimi: *progressiv assimilatsiya* – *regressiv assimilatsiya*; "bo'g'in" atama giperonimi: *ochiq bo'g'in* – *yopiq bo'g'in* (bo'g'in).

"Noto'g'ri shakllangan" guruhlarida giperonim atamasi ikkidan ortiq giponim atamalar tizimiga ega bo'ladi. Masalan, *gap turlari* giperonim atama sifatida 10 dan ortiq giponim atamalarini birlashtiradi: *sodda gap*, *qo'shma gap*, *darak gap*, *so'roq gap*, *buyruq gap*, *his-hayajonli gap*, *his-hayajonsiz gap*, *intellektual gap* va h.k.

Xalq xo'jaligi, fan va texnikaning istalgan sohasiga oid terminologik tizim va uning birliklari, tilning o'ziga xos muayyan qonun qoidalariga bo'ysungan holda, yuqorida ham aytilganidek, muayyan tushunchalarni anglatadi. Bu narsa, avvalo, giperonimiya tizimida amal qiluvchi iyerarxiyalı munosabatlarida ma'zga tashlanadi. Bu jarayonda ma'lum bir giperonim atamaga tobe giponim atamaning o'ziga xos giperonim atama maqomida vazifa bajaradi. Masalan, fonetika sathida *nutq tovushlari* giperonimiga mansub *undosh tovush* ham, *unli tovush* atamaları ham tur ma'nosidagi o'ziga qarashli atamalarga nisbatan giperonim maqomiga ega. Bundan tashqari *tovushlardan bo'g'inlarning*, *bo'g'inlardan so'z va taktlarning*, *taktlardan frazalarning*, *frazalardan matnlarning hosil bo'lishi* kabilar ham fonetik tizimga xos giperonim va giponimlik iyerarxiyadir.

Atamalar tizimidagi iyerarxiyalı munosabatda ma'nolar mavhumdan aniqlikka qarata yo'naladi: giperonimlarda atama ma'nosi anglatgan denotatlarda umumiylik, giponimlar anglatgan denotatlarda esa xususiylik alomatları ustuvor bo'ladi. Bunda semantik maydonlarning ierarxiy tuzilishini, asosan, giponimiyada ko'rish mumkin. Ular yuqoridan quyigacha kuzatilishi mumkin, bu yerda yuqori daraja umumiy, pastki sath esa aniq bo'ladi. Masalan, so'z *turkumlarini* atamasiga xos ma'noda mavhumlik yuqori darajada bo'lsa, *son*, *egalik*, *kelishik* va h.k atamalarga xos giperonim ma'nolar konkretlasha boradi, ularning giponim atamalarida esa ma'no konkretlashuvi yakun topadi.

Gipero-giponimik munosabatlar tizimida zidlanish (zidlik) ham ikki xil bo'ladi: xususiy zidlik va ekvivalent zidlik.⁷ Terminologik tizimida zidlanish, asosan, giperonim atamalar bilan giponim atamalar munosabatida ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga giperonim va giponimlar tizimida iyerarxiyalı munosabat tufayli zidlanishning turli darajadagi turli xil amalini ko'rish mumkinki, bunday zidlik *ekvivalent zidlik* deb ataladi. Masalan, *tovush* giperonimining *undosh tovush*, *unli tovush* giponimlari mavjud bo'lib, ular bir qator boshqa giponimlarni ham hosil qiladi: *undosh tovush* – *jarangli undosh*, *jarangsiz undosh* kabi.

Xullas, xususiy va ekvivalent qarama-qarshiliklar terminologiyaning yaxlitligi va izchilligini ko'rsatdi. Terminologiyani tizim sifatida shakllantirishda gipero-giponimik munosabatlarining o'zni katta. Chunki terminlar jins-tur munosabatlariga asoslangan gipero-giponimik guruhlariga birlashtirilib, soha tushunchalarining iyerarxiyasi va o'zaro bog'liqligini aks ettiradi.

¹ R.Safarova Leksik-sementik munosabat turlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. 17-bet.

² Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5, испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2010. – 486 с.

³ Агабабян С.Р., Барабанова И.Г. Гипер-гипонимические отношения в языке Рунета // Успехи современной науки и образования, 2016. Т. 6. №12. С. 43–46; Коновалова Е.А. Гипер-гипонимия в экономической терминологии // Философские студии, 2001. №2. – С. 79–85.

⁴ A.Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. 19-bet.

⁵ N.Mahkamov, I.Ermatov Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2013. 15–94-betlar.

⁶ A.Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. 19–115-betlar.

⁷ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5, испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2010. 486 с.

YANGI O'ZBEK QISSALARIDA QAHRAMON MASALASI

(Nazar Eshonqul qissalari misolida)

Har bir janrning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi nafaqat ularda mazmunning qamrov ko'lami, balki obrazlarning shakllanganlik holati hamda obraz va muallif munosabatida ham o'z aksini topadi. Ya'ni "Roman muallifi uchun qahramon vosita – dunyoni anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o'zi – maqsad (voqea-hodisalar vosita), hikoyanavis uchun esa voqeaning o'zi maqsad bo'lib qoladi"¹.

Qissa janrida qahramonning o'zi maqsad ekan, uning markazida turuvchi inson fenomenini tasvirlashda, turli qiyofalarning, insoniy kechinmalarning boy "mundarija"si inkishof etilishida janrning imkoniyati boshqa nasriy janrlardan ko'ra kengdek, nazarimizda. Shu sababdan ham qissalardagi obrazlar tahlili hamda talqini badiiy adabiyotda yuksak va murakkab mavjudot hisoblanmish insonni anglashga bo'lgan eng "qulay" yaqinlashuvdir. Ayniqsa, so'nggi yillar qissalariga nazar tashlasak, ularda ko'rinayotgan yetakchi xususiyatlardan biri obrazlarning o'ziga xosligi – insonga bo'lgan yondashuvning o'zgarishi tarzida namoyon bo'layotganini ko'ramiz.

Umuman, mustaqillik davri o'zbek adabiyotida yaratilgan, yaratilayotgan asarlarda insonga mehnat kishisigina deb emas, balki tom ma'noda, yuksak, o'ta murakkab mavjudiyat sifatida qarash tamoyili ko'zga tashlandi. "Shaxsni faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida emas, ko'proq ilohiy, tug'ma-tabiiy, sirli-sehrli mavjudot tarzida ko'rsatuvchi, uning ijtimoiyot, tarixiy sharoit – tuzum, davlat, siyosat, mafkura-ga bo'ysunmaydigan g'aroyib tuyg'u, xislatlarini, ong-idrokdan tashqaridagi anglab yetilmagan holatlarini badiiy tadqiq etuvchi, ekzistensializm falsafasiga tayanuvchi asarlar ham yaratilayotir yoki shu xil talqinlar kengroq ildiz otib borayotir. Bu foni dunyoning omonat, tagi puch g'oyalarga aldangan shaxs umrining, mehnatining bema'niligini qabariq tarzda, ko'pincha ramziy-majoziy timsollar vositasida butun keskinligi, fojiasi bilan ko'rsatuvchi absurd asarlar, absurd qahramonlar ham ko'payib qoldi..."².

Demakki, bugungi adabiyotimizda badiiy obraz shunchaki inson qiyofasi, tuyg'ularining tasviri emas, balki o'z-o'zini tahlil-u taftish etayotgan, o'z ko'nglini, o'zining bu foni dunyodagi a'molini, umuman, butun borliqni anglashga urinayotgan o'ychan, mushohadali inson in'ikosi sifatida voqe'lanmoqda. So'nggi yillarda yaratilayotgan nasriy asarlarimiz, xususan, qissalarimizdagi inson tasviri Sharqning mardona, xalqchil, orifona, G'arbning mifologik, xomushlik (ekzistensialistik, absurdlik) "kayfiyat"ini o'zida jamlagan, butun bashariyatning yagona (alohidalik shaklidagi umumiy), shu bilan birga, serqirra nusxasi sifatida bo'y ko'rsatmoqda.

Mustaqillik davri nasriga o'ziga xos ohang, badiiy ifoda, tasvir yo'sinini olib kirgan Nazar Eshonqul ijodidagi, jumladan, qissalaridagi obrazlar ham o'zbek nasrining ko'p asrlik adabiy tajribasi mahsuli, ham G'arb adabiyoti modern namunalarining badiiy sintezlashuvi sifatida gavdalandi. Ijodkor qissalaridagi obrazlar o'zining mukammalligi, o'quvchini mulohazaga chorlashi, voqe'lik dinamikasining kutilmagan sur'atlarida, burilishlarida akslangan turfaliklari bilan ajralib turadi. Uning an'anaviy yo'lda yozilgan "Urush odamlari" qissasida turli yoshdagi, fe'l-atvordagi, o'y-fikrdagi qiyofalarni ko'ramiz, ammo ularni bitta tashvish, bitta g'am birlashtirib turadi. Asarda urush va uning iskanjasidan qutulish qahramonlarni birlashtirgan murod-maslakka aylangan.

Qissadagi bosh qahramon Normat polvon obrazi asarda "urushning tirik guvohi" qiyofasida gavdalanadi. Normat urushdan nafratlanadi, undan yiroq bo'lishni istaydi. Bu xususiyat asarda uning tilidan shunday beriladi: "Odamlarni otar ekanman, etim hamisha seskanib ketar, Xudoga tavba qilar, iloji boricha tegizmay otishga harakat qilardim. Bug'doyzorlarda odamlarning qoni oqib yotganini ko'rganimda, yig'lagim kelar, shunda qonim qaynab, to'g'ri kelgan har bir kimsani otib tashlagim kelardi..."³. Urushning bu kabi dahshatli taassurotlari Normatning tani va qalbini tark etmaydi. Uning ruhiyatidagi ikki qarama-qarshi tushuncha va tuyg'ular kurashi hamda bu kurashda, urushda taslim bo'lgan individual, murakkab inson qiyofasini ko'rish mumkin.

Xarakter – obrazdan bir muncha yuqori darajali o'ziga xos inson tasviri. "Urush odamlari" asarida bu kabi inson tasvirlari – xarakterlar talaygina. Normat, Anzirat, Biydi momo, uning to'ng'ich kelini, Mirzaqul rais obrazlarini xarakterlar deyish mumkin. Jumladan, Anzirat obrazi ruhiyatida ham ong va ongosti tuyg'ulari kurashi aro to'lg'ongan ayol qiyofasi o'zining bor murakkabliklari bilan inkishof etilgan. Anzirat ongli ravishda gunohlarini anglab yetadi, vijdoni oldida o'zini aybdor, jinoyatchi kabi his etadi. Ammo uning ongosti tuyg'ulari o'zini oqlashga, irodasizlikka da'vat etadi, to'g'ri yo'ldan ozdiradi.

Biydi momo esa qissada metin irodali, tog'dek bardoshi, o'ta mehnatkash, haq so'zni aytishda hech kimni ayamaydigan ayol sifatida gavdalanadi. Uning eridan erta beva qolib, butun ro'zg'orning og'irini o'z gardaniga olishi, erkakli uylar qiynalib qolgan yillarda ham uning dasturxonida doim non bo'lishi, qahratonda ham uyida o'tin bo'lishi momoning g'ayrati, qiyinchiliklarni o'zining tuganmas mehnati bilan yengib o'tgan tasvirlari go'yo Anziratga nisbatan qiyoslanadi, qarama-qarshi qo'yiladi. Biydi momoning hech kimga o'xshamas xususiyatlari, fe'l-atvori, shijoati, voqe'lik ustidan hukm chiqarishi uning xarakter darajasida ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, ikkala o'g'ildan ham qoraxat kelganidagi holati – bu xabarni keltirgan qishloqdoshlari oldida har qancha qiyin bo'lsa-da yig'lamagani, shu holda ham g'ururini baland tutganidan o'zidan qoniqish his etishi obrazning o'ziga xosligini yana bir bor ta'minlagan.

Qissada muallifning ayol obrazlarini yaratishga bo'lgan yondashuvini qissadagi yana bir o'ziga xos obraz – Biydi momoning to'ng'ich kelini qiyofasida ko'ramiz: "Biydi momoning katta kelini oqko'ngil bo'lgani bilan uquvsiz, bo'sh-bayov, biron nojo'ya ish qilib qo'yishdan cho'chib yuradigan soddagina ayol edi. O'gay onaning hamisha boshiga mushtlab qarg'ashidan qilpanchiq bo'lib qolgandi... Biydi momo toki kenja kelin tushguncha, katta kelinning kunini bermadi. Uni koyir, yig'lata, yig'lasa, yana koyir, uning ojizligini ko'rib, g'ashi kelar, chunki uning o'zi hech qachon ojizlik qilgan emas, gap qaytarsa, o'g'liga aytib urdirardi..."⁴. Katta kelin qancha haqorat ehsitasa ham, qancha kaltak yesa ham na qaynonasiga, na eriga g'ing demay, yana o'z yumushlarini bajarib ketaveradigan yuvosh, og'ir fe'lli ayol. Qaynonasi uni kelin, o'z avlodining davomchisi sifatida ko'rmasa-da, ammo faqat u vaqt o'tgach qarib, ko'zlari ojiz bo'lib qolgan Biydi momoni tark etmadi. Mazkur obrazni bardoshli o'zbek ayollariga xos bo'lgan xarakter sifatida ko'ramiz.

"Urush odamlari" qissasida yana bir xarakter darajasidagi obraz – Mirzaqul rais obrazi. Mirzaqul asarda urushga borish-

dan yo'lini qilib qutulib qolgan, urushdan o'z manfaati yo'lida foydalanib, oziq-ovqat taqchil bo'lishiga qaramay to'kinlikda yashagan, urushga ketgan erkaklarning ayollarini yo'ldan urishga harakat qiladigan badnafs, xudbin kimsa sifatida gavalangan. Obrazning o'ziga xosligi shundaki, u qissa voqealari kulminatsiyasida barcha ayblariga, gunohlariga iqrar bo'ladi. Urushga ketishi kerakligini eshitgach, o'lim qo'rquvini his qiladi. Uning iztiroblari o'limi oldida turgan insonning vijdoni uyg'onishi va shu vijdon olovida qovrilishi holatida aks etadi.

Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari" qissasidagi qahramon esa "atrofidagi holat va fikr turg'unligidan bezigan, "o'zini o'z xayoliga bandi qilgan", o'zini izlayotgan odam. U bu turg'unlikdan qochib o'z ko'ngliga yashirindi"⁵. Darhaqiqat, ushbu qissa qahramoni tun qo'ynida o'z-o'zini tahlil etishi, o'zini anglash yo'lida muhabbat xotiralarini yodga olishi, baxt va baxtsizlik haqidagi tushunchalari nafs hamda moddiyatni ustun qo'yadigan odamlar tomonidan rad etilishi, umuman, o'z tasavvur dunyosining o'zi yashayotgan dunyo, jamiyat bilan muvofiq kelmayotganidan iztirob chekadi. Bu iztiroblari uni kimsasiz tun qo'yniga yolg'iz chekinishga majbur etadi. Shunday tunlarda unga shayton va Sulaymon hamrohlik qiladi. U shaytonni, uning fikrlari va xatti-harakatlarini yoqlamaydi, ammo o'z hayotiga uni aralashishiga ham chek qo'yolmaydi. Sulaymon esa uni bunyodkorlikka va yuksaklikka chorlaydi. Qissa qahramoni ayni mana shu ikki qutb orasida qolib

ketgan xayollari bilangina yashaydi. Yuksak insoniy orzular, maqsadlar va harakatlarni amalga oshirishga ojizlik qiladi, oqimga qarshi suza olmaydi. Natijada, o'z "men"ini ichiga, qalbiga bir umr "bandi" qiladi.

"Qora kitob" qissasi qahramoni esa "Tun panjaralari" qahramonidan o'zini baholay olish, tahlil etish darajasi bilan yuqoriroq turadi. Sababi, "Qora kitob" qahramoni umri so'ngida bo'lsa-da o'z hayot yo'lidan, amalga oshirgan ishlaridan to'g'ri xulosa chiqardi. Ammo uning xulosalari hayotining qora kitobi sahifalariga achchiq xotima bo'ldi. U umr bo'yi o'sha qora kitob (iblis kitobi)ni o'ziga hamroh deb bildi, uning qundan barpo qilingan cho'qqilariga chiqdi, chiqdi-yu o'zini aksincha, "yer qa'ri"da ko'rdi. Hamma intilganlari, amalga oshirganlari sarob, puch ekanini, bu ham yetmaganday iblisning izmida bo'lganini anglab yetdi. Natijada, butun borlig'i, nasli bilan fojiaga yuz tutdi. Asarda shaxs fojiasining bu kabi zalvorli bo'yoqlarda, inson va iblis o'rtasidagi abadiy kurash asosida ifodalanishi so'nggi yillar qissachiligi uchun yutuqdir.

Xullas, so'nggi yillar o'zbek qissalari, jumladan, Nazar Eshonqul qissalarida qahramonning o'ychan, mushohadali, urushdan, shaytoniy istaklardan majruh bo'lgan fojiiy qiyofasi o'z aksini topdi. Kitobxonni, uning tafakkuri va qalbini ham mazkur asarlarda ilgari surilgan fikrlar, so'roqlar qarshisida taftish eta oldi.

¹D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. 373-bet.

²U.Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 5-bet.

³N.Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2008. 66-bet.

⁴O'sha manba.

⁵N.Eshonqul. Mendan "men" gacha. – Toshkent: Akademiya, 2014. 69-bet.

Elmira HAZRATQULOVA,
O'zMU tayanch doktoranti

"TARIXI RASHIDIY" ASARI ADABIY MANBA SIFATIDA

Muhammad Haydar mirzo Zahiriddin Muhammad Boburning xolavachchasi bo'lib, Toshkentda tavallud topgan. U temuriylar hukmronligining so'nggi parokandalikka yuz tutgan yillariga bevosita guvoh bo'lgan. Bir necha yil sargardonlikdan so'ng, Shayboniyxon ta'qibidan qochib, Bobur qoshiga Kobulga yetib boradi hamda Sulton Saidxon iltimosiga ko'ra u bilan birgalikda Sharqiy Turkistonga ketadi. Saidxon hukumating muhim siyosiy tadbirlarida faol siyosiy arbob sifatida faoliyat olib borgan. Saidxon vafotidan so'ng, uning o'g'li Rashidxon otasi amaldorlariga nisbatan butunlay teskari munosabatda bo'lgani sababli Hindistonga boburiylar saltanatiga boradi va o'sha yerda Humoyunning ruxsati bilan Kashmirda hukmdorlik qiladi.

Muhammad Haydar mirzoning murakkab hayot yo'li haqida amerikalik olim Viller Tekston shunday yozadi: "Mirzo Haydar ismi bilan dunyoga tanilgan Muhammad Haydar o'z hayotini shafqatsiz qarindoshlari qo'lida boshpanasiz va bechorahol g'arib sifatida boshladi va uni Kashmirda mashhur san'at shaydosi va podshosi sifatida yakunladi". [3: 10-bet]

Uning serqirra iste'dod sohibi bo'lganligi bizgacha yetib kelgan "Jahonnoma" dostoni, turkiy devoni hamda fors tilida bitilgan "Tarixi Rashidiy" asari orqali anglashilib turadi. "Tarixi Rashidiy" asari XV–XVI asrlarning noyob yodgorliklaridan hisoblanib, uni boshqa tillarga tarjima qilish, tadqiq etish borasida G'arb-u Sharq olimlari birdek qiziqish bildirib kelganlar. Sharqshunos olimlarning aksariyati "Tarixi Rashidiy"ning yaratilishiga turkiy adabiyotning bebaho nasriy namunasi

"Boburnoma" bevosita ta'sir ko'rsatgan deya hisoblaydilar. Jumladan, yapon olimi Eyji Mano: "Boburnoma"da Farg'ona, Samarqand, Kobul va Hindistonning topografik ma'lumotlari berilganidek, "Tarixi Rashidiy" ham Koshg'ar, Mo'g'uluston, Tibet va Kashmirda tegishli qiziqarli topografik ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Haydar mirzo ham qarindoshi Boburshoh izidan borib unga taqlid qilgan" [3: 7-bet] deya fikr bildirdi.

Darhaqiqat, asarning tarkibiy qismida tarixshunoslik fanining ulushi kattaroq ekanini hisobga olgan holda, undagi tazkirachilikka oid xususiyatlar, o'sha davr nazmgo'y va adiblarning ijodiy biografiyasiga oid ham beqiyos ma'lumotlarning ko'pligi uning Boburnoma kabi adabiy ahamiyatini oshiradi. Asar mo'g'ul hukmdorlarining unutilish xavfi yuqori bo'lgan uzoq o'tmishini xotirada qoldirish maqsadida yozilgan bo'lsa-da, unda temuriylar, boburiylar, Dashti Qipchoqdagi qozoqlar hayot tarzi va ularning tarix sahnasidagi o'rni haqida ham muassal to'xtalib o'tilgan.

"Tarixi Rashidiy" ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, muallif ularni daftari deya nomlaydi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, asarning ikkinchi daftari birinchi daftardan avval yozilgan. Ikkinchi daftarda muallif o'zi guvoh bo'lgan tarixiy voqealarni, birinchi daftarda mo'g'ullar tarixini yozadi; asarga faqatgina islomni qabul qilgan mo'g'ul hukmdorlari bilan bog'liq bo'lgan o'zi eshitgan, ishonarli deb hisoblagan og'zaki hikoyatlarni saralagan holda kiritadi. Hikoyatlar bayon qilinishi asnosida ularning qiziqarli bo'lishini ta'minlash maqsadida she'riy lavhalarning

keltirilishi, muhoraba jarayonlarini tasvirlashda muqaddas Qur'on oyatlarining misol tariqasida kiritilishi o'sha davr tarixnavisligida kuzatilgan adabiy an'ana edi. Muhammad Haydar mirzo ma'lum bir tarixiy shaxs siymosini tasvirlash mobaynida uning ichki ruhiyatini mohir nosir, qissanavislar kabi kerakli chizgilardan unumli foydalanadi. Aytaylik, uning bolalik chog'laridagi sargardonlik yillarida xolavachchasi Boburshoh uni o'z huzuriga chaqirtirib olib, mehribonlik ko'rsatganini u quyidagicha bayon etadi: "Ancha vaqt quchog'ida ushlab turdi, men ta'zim rasmini ado qilmoqchi bo'lgandim, bunga yo'l bermay, yoniga o'tqazdi. Cheksiz kuyunchakligidan ancha vaqt o'zini bosolmay, ko'zlaridan duv-duv injular to'kdi: "Sening otang pochcham, mening tog'am – xon, aka-ukalaring, qarindosh urug'laring shahidlik sharbatini ichib, Allohga beaded shukrki, sen mening yonimga eson-omon kelding. Endi ulardan ayrilganingga hech g'am chekma, chunki ularning o'rnini ortig'i bilan bosaman..." [2: 345-bet]

"Boburnoma" sahifalarida esa Bobur Haydar mirzo haqida muxtasar ko'rinishda shunday deydi: "...o'g'ul Haydar mirzo edi. Otasini o'zbek o'lturgandin so'ng kelib, mening mulozamatimda uch-to'rt yil bo'ldi, so'ngra ijozat tilab, Koshg'arga xon qoshig'a bordi. [1: 40-bet]

"Tarixi Rashidiy"da ba'zi real tarixiy shaxslar muallif tomonidan katta adabiy mahorat bilan tasvirlanishi asnosida obraz darajasiga ko'tariladi va yaqqol ikki guruhga ajralgan holda namoyon bo'ladi:

1. **Oliyanob, adolatli hukmdorlar va amirlar obrazi.** odatda ularning aksariyati bilan muallif bevosita aloqada bo'lgan. Shu bois ularga xos xarakter chizgilari asarda tabiiy ko'rinish kasb etgan. Bular toifasiga Yunusxon, Mansurxon, Qanbar Ali, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Saidxon kabilarni kiritish mumkin.

2. **Zolim, razil hukmdor va amirlar obrazi.** Bu obrazlar tasvirida ham muallifning aksar tarixiy voqealarga guvohligi seziladi: Shayboniyxon, Shoh Ismoil, Abobakr mirzo, Xusravshoh kabilar.

Yuqoridagi obrazlarni tasvirlashda muallifning xolis va

toza nigohi voqealarni ortiqcha bo'rttirishdan saqlab turadi. Masalan, o'z otasini o'ldirgan, temuriylar sulolasini qirilishiga sabab bo'lgan Shayboniyxon qilmishlari bayon etilayotgan fasllarda muallif o'ta bosiqlik bilan voqealarni bayon etadi. Asar mutolaasida biror o'rinda dushmanini haqorat qilish, qarq'ash, hissiyotga berilish kabi holatlarga duch kelmaymiz.

Shuningdek, asarda Movarounnahr va Xurosonda ijod bilan mashg'ul bo'lgan tab' ahli haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Jumladan, Xuroson adabiy muhitida ijod qilgan Abdurahmon Jomiy, Navoiy, Husayniy, Binoiy, Suhayliy, Sayfiy, Tufayliylar adabiy iste'dodiga oid talaygina tahliliy fikrlar bildirgan. Shu bilan birga Xurosonning mashhur mutasavvuf olimlari, san'at va musiqa ahli, hattotlik maktabi namoyandalari haqida ham qiziqarli rivoyatlarni so'zlab o'tadi. Yana Movarounnahr, Sharqiy Turkiston, Hindiston hududlarida yashab ijod etgan shoh-shoirilar Bobur, Sulton Saidxon, Rashid Sulton kabi hukmdorlarning ijodi, qalam tebratish qobiliyati bilan bog'liq muhim masalalarga to'xtalib o'tadi.

"Tarixi Rashidiy"ning yana bir adabiy ahamiyati u fors tilida yozilgan bo'lsa-da, u muallifning turkiygo'y ijodkor ham ekanligi, turkiy tilda ijod qiluvchi allomalar haqida mufassal ma'lumotlarni o'zida jamlagani, asarda keltirilgan she'riy parchalarning turk tilida ekanligi hamdir. Kuzatishlarimizdan "Tarixi Rashidiy" asariga xos bo'lgan quyidagi adabiy jihatlar ma'lum bo'ladi:

– "Boburnoma" kabi "Tarixi Rashidiy" asari bir necha fan sohaloriga aloqador bo'lgan serqatlam adabiy-tarixiy asar;

– Muhammad Haydar mirzoning nazmgo'ylar haqidagi mulohazalari XV–XVI asr Movarounnahr, Xuroson, Sharqiy Turkiston hududi adabiy muhiti haqidagi Navoiy, Boburning adabiyotshunoslik qarashlarini to'ldiradi;

– muallif uslubida roviyning faol pozitsiyasi ustunlik qilib, voqealar bayoni dabdaba va jimjimadorlik kabi unsurlardan xoli.

Asarning badiiy uslubini "Boburnoma"ning badiiyati bilan taqqoslash masalasi bugungi kun adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. 334-bet.
2. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. Vahob Rahmonov, Yanglish Egamova tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2010. 707-bet.
3. Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarining jahon madaniyati tarixidagi o'rnini. Xalqaro anjuman materiallari // Toshkent, 2011. 120-bet.
4. Hasan Quadratullayev. "Boburnoma"ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili (Navoiy, Bobur, Xondamir va Vosifiy nasrining qiyosiy tahlili asosida). O'zbek adabiyoti f.f.d. diss. – Toshkent, 1998. 75–104-betlar.

Yulduz JO'RAYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

"U MENDIRMAN, MEN ESA UDIR"

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Afrika xalqlari va arab mamlakatlari adabiyotining takomilida fransuz adabiyoti zamonaviylik timsoli vazifasini o'tadi. Binobarin, ma'lum bir milliy adabiyotga yangi, Yevropa adabiyoti ruhini olib kirish, uni bevosita mahalliy muhitga moslash jarayonida adabiy janrlarning yangi ufqlari kashf qilinadi. Jumladan, Misr adabiyoti XX asrda boshqa Sharq musulmon adabiyotlari kabi ulkan o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Aytish mumkinki, Misr adabiyoti arab mamlakatlari adabiyoti ichida birinchilardan bo'lib Yevropaga yuz tutdi.

XX asr Misr adabiyotida yuzaga kelgan "yangi she'r" yoki "erkin she'r" harakatida asosiy urg'u erkin vaznga berildi.

Badiiy, g'oyaviy va til xususiyatlari aruz vaznidagi an'anaviy nazmiy asarlardan tubdan farq qiladigan erkin she'r mavjud ijtimoiy-siyosiy muhitni, zamon bashariyati psixologiyasida yuz bergan o'zgarishlarni ochiq, yaqqol aks ettira oladi.

Misr yangi – erkin she'r harakatining shakllanishi va taraqqiy topishida XX asr Misr adabiyotining taniqli namoyandasi Amal Dunqul ijodining ahamiyatini alohida qayd etish zarur. Uning "Zarqa al-Yamama" (1969), "Bo'lib o'tgan voqeaga sharh" (1971), "Oyning qatli qilinishi" (1974), "Bo'lajak ahd" (1975), "Murosaga kelma" (1979), "8 - raqamli xona varaqlari" (1981), "To'la asarlar to'plami" (1985) kitoblari chop qilingan. She'rlarining mavzular ko'lami keng, xususan, u falsafiy, ijti-

moiy-siyosiy, tinchlik, vatanparvarlik, muhabbat, shahar hayoti va o'lim mavzulariga murojaat qilgan.

Amal Dunqul o'z fikrini ifodalash jarayonida asar tilida tushuncha va g'oyani umumlashtirishga erisha olgan:

*Mana o'tiribman umidsiz bunda,
Varaq-varaq bo'lib uziladi taqvimdan umrim.
Uzilgan bu varaqlar
Xotira ko'lida suzib yuradi.*

Bu misralarda dunyo foniyiligi, uning o'tkinchiligi g'oyasi vaqt me'yori – taqvim bilan berilgan. Taqvim uziladi, binobarin, yo'q bo'ladi, demak, inson umri ham taqvim kabi ko'rinmas varaqlardan iborat. Varaqlar chegaralangan. Demak, hech narsa abadiy emas, degan g'oya varaq tushunchasiga singdirilgan.

Boshqa bir o'rinda shoir vaqt o'lchovini tabiiy hodisa tushunchasi bilan ifodalaydi. Yomg'ir dunyoni, insonni, uning qalbini yuvadi, yomg'ir o'tkinchi, ammo sadoqat abadiy:

*Yomg'ir yog'adi,
Yomg'ir tinadi.
Yomg'ir yog'adi,
Yomg'ir tinadi.
Lekin qalbim seni
Hamon kutadi.*

Vaqt tushunchasining fano, o'tkinchilik g'oyasi bilan uyg'unlashuviga Amal Dunqulning yana quyidagi misralarini misol qilish mumkin:

*Katta shahardagi odamlar go'yo vaqt singari
To'xtamaydilar,
Kechikmaydilar,
Chalg'imagaydilar
Mexanizmlar, mexanizmlar, mexanizmlar.*

Bu misralarda shoir falsafiy mavzudan chetga chiqib ijtimoiy muammo – inson va kundalik hayot muammosiga qo'lgan. Odamlar tirikchilik tashvishida temir soatning millariga bo'ysunadilar va o'zlari uning mexanizmiga aylanib qoladilar, inson – bu mexanizm, degan g'oya singdirilgan she'rga.

Yoki boshqa misralarda Amal Dunqul vatanparvarlik g'oyasini obraz holati, obraz tili bilan in'ikos ettiradi. Tiriklik doimo ozodlikka undaydi. Inson borki, u ozod, erkin yashash istagi bilan yonadi. Faqatgina o'lim uni mahv etishi mumkin. Qullar ozodligi uchun kurashgan Spartak tilidan shoir shu misralarni bitadi:

*Erta tongda xochga mixlanganman men.
Evohki, boshimni eggandir o'lim,
Chunki tiriklikda uni hech egmagandim.*

Vatanparvarlik, Vatan ozodligi inson, ruh ozodligi bilan hamohang. Faqat ruhan ozodlikni his qilgan odamgina Vatan ozodligi baxtini his qila oladi. Shoir o'z tasavvuridagi Vatanni tasvirlar ekan, ona tuproq bilan shu tuproqda yashovchi inson ona bilan farzand kabi bir jism ekanligi haqida yozadi:

*Erta tongda keng dalalar osha borardim,
Menga o'rgatganlar, bu – ona Misr.
Har tomonga sochilgan urug'dek,
U bizga yetkazib berdi:
otanni,
uyimizni,
o'chog'imizni,
parrandalarni
va mevalarni,
hattoki oyni.
U qumg'onimiz to'ldirgan suvdir,*

*Tungi suhbatlarda ichgan choyimiz,
U fasllar almashuvi,
U limondir... hamda tunlar men qidirgan onam ko'kragi,
U qo'shiqlar kuylaydigan go'zal quticha.
U mendirman,
Men esa udir.*

Ona vatanni undagi butun jonli va jonsiz narsalar bilan qiyoslash borasida shoir shunday xulosaga keladiki, aytilgan narsalarning hammasi uning o'zi, ya'ni shu tuproq farzandi bo'lgan inson, bas, shunday ekan, Misr, ya'ni ona vatan bu – shoir, insonning o'zi demakdir.

Badiiy tilning yana bir muhim xususiyatlaridan biri bu – sarkazm, oksimoron orqali bir fikrni ifodalash orqasida umuman boshqa fikrni nazarda tutish. Yoki biror bir g'oyani kinoya orqali ifodalash. Amal Dunqulning quyidagi she'rida vatanparvarlik, ozodlik g'oyalari oksimoron orqali beriladi:

*Osilgan isyonchiga tashlang nazarni
Sizlar ham ertaga undek bo'lasiz!
Xotinlarni quching bu yerda – yo'l o'rtasida
Sizlar ham shu yerda halok bo'lasiz.
Vidolashmay xotinimni tashlab keldim men,
Agar sizlar uning qo'lida qoldirgan go'dagimni ko'rsangiz
Tiz cho'kishni o'rgating unga!
Tiz cho'kishni o'rgating so'zsiz!
Baxtli olam haqida orzu qilmanglar,
Chunki o'lgan qirol ortidan
Albatta, keladi yangi bir qirol.
O'lgan isyonkorlar ortidan esa
Befoydadir hech g'am chekmanglar,
Behudaga ko'z yosh to'kmanglar.*

She'rdagi badiiy epitetlar ("qumg'onimiz to'ldirgan suv", "ichgan choyimiz", "jilg'a", "go'zal quticha", "limon") originalligi bilan o'quvchida emotsionallik hosil qila oladi, shoir g'oyasining ta'sirchanligini oshiradi.

Keltirilgan qisqa tahlil shuni ko'rsatadiki, Amal Dunqul o'zining badiiy til imkoniyatlaridan mukammal foydalanib, yuksak g'oyaviy, badiiy yetuk asarlar yaratgan.

Amal Dunqul lirikasining ma'lum qirralari XX asr o'zbek she'riyati bilan uyg'un keladi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon kabi erkin vaznda sara asarlar yaratgan shoirlar ham Vatan manzaralarini tasvirlashda yangi tushuncha, g'oyalar topa olishga erishgan. Xususan, vatan – ona, xalq – ota epitetli birikmasini G'ofur G'ulom mahorat bilan qo'llaydi:

*Sen yetim emassan,
Tinchlan jigaram.
Quyoshdek mehribon
Vataning – onang.
Zaminday vazmin-u
mehnatkash,
mushfiq
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
xalq bor – otang bor.*

Bu yerda "quyoshday mehribon", "zaminday vazmin" kabi epitetlar orqali shoir insonparvarlik g'oyasini vatan, xalq tushunchalariga mahorat bilan singdira olgan.

Xullas, badiiy asar umumbashariy, umuminsoniy g'oyalari ifodalalar ekan, uning yaratilish jarayoni hududiy, milliy belgilaridan farqli o'laroq bir xil kechadi. Inson o'z g'oyasini shakllantirishda badiiy-tasviriy vositalardan har qanday sharoitda bir xil foydalanadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, badiiy asarning ommaviylik xususiyati millat va mamlakat tanlamaydi.

Dilnoza QURBONOVA,

Jizzax politexnika instituti assistenti

BAG'RIKENGLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Yoshlar ongiga bag'rikenglik g'oyalarini singdirishda ta'lim tizimi alohida ahamiyatga ega, chunki inson aynan ta'lim muassasalarida to'plangan ijtimoiy tajriba va qadriyatlarini ilmiy asosda va tizimli tarzda o'zlashtirib boradi. Qolaversa, ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli tarbiya jarayonida tadrijiylik ta'minlanadi. Shuning uchun ham xalqaro hujjatlarda masalaning bu jihatiga doim alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"-da tarbiya murosasizlikning oldini oladigan eng samarali vositalardan biri ekanligi, "Ta'lim sohasidagi siyosat va dasturlar alohida odamlar, etnik, ijtimoiy, madaniy, diniy va til jihatidan alohida guruhlar, shuningdek, millatlar o'rtasida tushunishni yaxshilash, o'zaro hamjihatlik va bag'rikenglikni mustahkamlashga yordam berishi lozim"¹ligi qayd etilgan.

Aytish joizki, o'tgan yillar mobaynida ingliz tili darslarida madaniyatlararo bag'rikenglik tushunchasini o'quvchi ongiga singdirib borishga yetarlicha e'tibor berilmagan. O'quvchining hayotiy nuqtayi nazarini axloqiy me'yorlar doirasida shakllantirish alohida ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb etadi. O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda madaniyatlararo bag'rikenglikni rivojlantirish nafaqat chet tili, balki barcha fanlar kesimida har bir pedagogning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Chunki jamiyatda insonlar orasidagi anglashilmovchiliklarning aksariyat qismi ularda madaniyatlararo bag'rikenglikka oid bilimning etarlicha shakllanmaganligi natijasida vujudga kelmoqda.

Ingliz tili darslarida madaniyatlararo bag'rikenglikni shakllantirishning asosiy unsurlaridan biri muayyan bilimlar zahirida shakllanadigan qadriyatlar, baholar tizimidir. Bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga keladigan qadriyatlar, baholar ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

G.N.Serikov ta'limotiga ko'ra ta'lim-tarbiya tizimi muhitida tolerantlik uchun makon yaratishda quyidagi omillar bo'lishi talab etiladi:

1. Har bir pedagogning tolerantligi.
2. Ma'muriyat tolerantligi.
3. Pedagogik jamoa tolerantligi.
4. O'quvchilar tolerantligi.
5. Ota-onalar tolerantligi.

Bu omillarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasida o'quvchilarda qat'iy tizimning ishlashi kuzatilgan.

I.V.Mirotvorskayaning fikricha, tolerant ong va xulq-atvorini shakllantirishning fanlararo modeli mazmuni va yo'nalganligidan qat'i nazar, tolerantlik madaniyatini shakllantirishning barcha pedagogik metod va usullarini o'zida birlashtirishni talab etadi. Har bir ta'lim muassasasi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib laboratoriyalar tashkil etishi va tolerantlik madaniyatini shakllantirish metodikalarini ishlab chiqishi yo'lga qo'yiladi.²

T.Akbarov, U.Orunboyev fikricha darslarda o'quvchilarda tolerantlikni tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Dunyoda barcha narsalarning turlicha ekanligini tushuntirish.

2. Millatlar bir-biridan farq qilishini tushuntirish.

3. Kishilardagi o'zgachalikka bag'rikenglik va sabr bilan munosabatda bo'lish.

4. Fuqarolarni o'zaro tinch-totuvlikda yashashga o'rgatish.

5. Yoshlarga mas'uliyatni sezgan holda javobgarlikni yuqorilatish yo'nalishida tarbiya berish.

6. Yosh avlodda vazminlikni kuchaytirish, bag'rikenglik, sabrlik, chidamlilik kabi xususiyatlarni tarbiyalash.³

G.Tillayevaning fikricha, "Tolerantlik shaxs shakllanishining asosiy omillaridan biri bo'lib, u millatlararo totuvlikni ta'minlash, sivilizatsiyalar almashinuvi davrida yuz beradigan ziddiyatli vaziyatlarda jamiyatga munosabat, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omilidir". U.Qudratova esa "tarixiy-genetik tahlil, birinchidan, tolerantlik – jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil, ikkinchidan, tolerantlik – ta'lim tizimining ijtimoiy buyurtmasi ekanligiga alohida e'tibor qaratish zarur"⁴ligini ta'kidlaydi.

G.Akramova nuqtayi nazariga ko'ra tolerantlik tushunchasi shakllangan yoshlarda turli xil axborotlarni qabul qilish va ularni obyektiv o'zlashtirish ko'nikmasi rivojlanadi. Buning uchun esa o'quvchilar orasida ishchan muhit yaratilishi kerak. Tolerantlik tarbiyasida har bir o'quvchining alohidalik, o'ziga xoslik, tolerantlik tushunchalarini o'zlashtirishga moyilligi, ijodiy fikrlashga odatlanish darajasini aniqlagan holda pedagogik chora-tadbirlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Madaniyatlararo bag'rikenglik tushunchasini shakllantirish jamiyatda totuvlik va hamjihatlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda maktab chet tili darslari o'quv rejasiga madaniyatlararo bag'rikenglik tuyg'usini shakllantirishga doir qo'shimcha materiallar kiritilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga chet tili darslari dunyo xalqlari madaniyatini o'zida aks ettirgan video lavhalar va filmlar, taqdimot materiallari, an'ana va qadriyatlarini o'zida ifoda etgan sahna ko'rinishlari va real hayotdan olingan matnlar bilan boyitilgan holda amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari ingliz tili darslarida alohida madaniyat kuni darslari yo'lga qo'yilib, unda dunyo xalqlari madaniyatiga sayohat muhiti yaratilishi zarur. Ushbu darsda boshqa xalq madaniyatiga oid materiallar, boshqa xalq madaniyatini o'zida namoyon etuvchi rasmlar, liboslar, urf-odat va qadriyatlarini to'g'risida ma'lumotlar, milliy qo'shiqlardan parchalar yoki o'sha xalq madaniyatini ifodalovchi sahna ko'rinishlari berilishi kerak. O'quvchilarda madaniyatlararo bag'rikenglikni shakllantirishda individual ishlar bilan birga, guruhli mashg'ulotlardan ham keng foydalanish o'quvchilarning jamoa sifatida fikrlari shakllanib borishiga katta hissa qo'shadi.

Xullas, madaniyatlararo bag'rikenglikni o'quvchilarda hosil qilish orqali biz yurtimiz hududida necha yuz yildan beri yashab kelayotgan turli millat vakillarining tinch, osoyishta, o'zaro hamjihatlikda yashashga o'rgatamiz. Buning uchun esa chet tili darslarida o'qitish jarayonini yangi g'oyalar bilan boyitish talab etiladi.

¹Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi // YUNESKO Xalqaro me'yoriy hujjatlari. – Toshkent: Adolat, 2004.

²Миrotvorskaya И.В. Формирование толерантности у учащихся старших классов общеобразовательных школ в процессе правового образования: Дисс. ... канд.пед.наук. – Чебоксары, 2004. – С. 82–84.

³T.X.Akbarov, U.B.Orunbayev. Ta'lim jarayonida tolerantlikni shakllantirish muammolari. ziyonet.library.uz

⁴U.Qudratova. Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxslararo tolerantlikni shakllantirish omillari va unda pedagog-o'qituvchilar faoliyati. ziyonetlibrary.uz

SIYOSIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASHDA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALARNING ROLI

Axborot oqimi va ko'lami tobora kengayib, uning turlari va manbalari borgan sari ortib, sur'ati tezlashib borayotgan davrimizda taraqqiyot bilan bog'liq masalalar yanada dolzarblik kasb etadi. Ommaviy kommunikatsiyalarning bu boradagi funksiyasi, ahamiyati va xizmati beqiyosdir.

Tadqiqotchi K. Sagdullayevning ta'kidlashicha, kunadlik hayotda ommaviy kommunikatsiya vositalari bilan ommaviy axborot vositalariga bir narsa deb qarash uchraydi va bu noto'g'ri. Olimning fikricha, ommaviy kommunikatsiya vositalari tarkibiga gazeta, jurnal, radio, televideniye, Internet axborot agentliklaridan tashkil topgan OAV tizimi bilan birgalikda kino, ovoz yozish sanoati, aloqa, transport ham kiradi.¹

Lotincha "communico" so'zidan olingan kommunikatsiya atamasi "birgalikda ish bajarish, bog'lanish; aloqa yo'llari, aloqa shakli" kabi lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Bularni umumlashtirib aytganda, kommunikatsiyani bir-biriga ta'sir o'tkazgan holda o'zaro harakatlanish jarayoni sifatida baholash mumkin.

Aytish kerakki, hozirgi davrda siyosiy tizimni modernizatsiyalashda ham ommaviy kommunikatsiyalarning roli juda katta. Chunki, bugungi kunda kechayotgan tezkor jarayonlar barcha sohalar qatori siyosiy tizimda ham zamon bilan hamnafas bo'lishni, oddiy qilib aytganda, qotib qolmaslikni talab qilmoqda.

Bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani va jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamiyatimizga katta o'zgarishlar olib kirdi. Natijada insoniyat axborotlashtirish sohasida haqiqiy inqilobiy o'zgarishlar davrini boshidan kechirib, dunyoda umumiy axborotlashgan hamjamiyat shakllanmoqda. Bu o'zgarishlar asosini esa axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari konvergentsiyasi negizida axborot uzatish va iste'molchiga yetkazib berishning eng zamonaviy va samarali vositalari dunyoga kelayotgani tashkil etadi. Tezkor davrning tezkor jarayonlari natijasida XXI asr – "axborotlashgan jamiyat asri" deb e'tirof etilib, bu jarayonda axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanmoqda.

Albatta, bunday sharoitda bilim, axborotga egalik qilish va ishlab chiqarish siyosiy jarayonlarda ham ustunlik qilish imkonini beradi. Demak, hozirgi zamon siyosati va jamiyatning muvaffaqiyatli rivojiga axborotlashuv va telekommunikatsiya texnologiyalari garov bo'lmoqda. Bu texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari shu qadar bepoyonki, ulardan samarali foydalanish insonning ijodkorligiga va ixtirochiligiga bog'liqligi amalda sinalmoqda.

Axborotlashuv jamiyatining asosiy belgisi – uning global xarakterga egaligidir. Bugun biz dunyoda axborot texnologiyalarining juda tez o'zgarayotganligining guvohimiz. Axborotlashuv va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivoji natijasi bo'lgan bu o'zgarishlar – olimlar, siyosatchilar, axborot sohasining mutaxassislar diqqat-markazida turibdi.

Keyingi yillarda jamiyat hayotiga axborot texnologiyalarining tezkorlik bilan keng darajada kirib kelishi yurtdoshlarimizga, umuman, barcha foydalanuvchilarga axborot olishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini keng ochib berdi. Mazkur o'zgarishlar birinchi navbatda, yangi axborot kommunikatsion texnologiyalar ta'siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har

bir sohasida informatsiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Xo'sh, ommaviy kommunikatsiyalar deganda biz nimani tushunamiz?

Ommaviy kommunikatsiyalar – voqea-hodisa, jarayon, obyekt holati haqida yangi sifatga ega bo'lgan axborotni olish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish maqsadida ishlatiladigan vosita, usullar va texnika jamlanmasi hisoblanadi.² Bugungi kunda mutaxassislar axborot texnologiyasining asosiy belgisi sifatida ma'lumotni qayta ishlash jarayonining muayyan bosqichlarga bo'linishini e'tirof etadilar. Bu esa, o'z navbatida, ushbu jarayonning batamom tartibga solinishi va uni avtomatlashtirilgan holga o'tkazilishi uchun yangi imkoniyat yaratib berdi.

Dunyoning tezkor rivojlanayotganini, eng avvalo, hozirgi axborot jarayonlari misolida ko'rish, kuzatish mumkin. Ayni paytda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat sayyoramizning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hamda geosiyosiy qiyofasini belgilashda, shu bilan birga har bir mamlakat imkoniyatlarining ro'yobga chiqishi va milliy manfaatlarining ta'minlanishida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda kechayotgan o'zgarishlarga nazar tashlasak, bugungi kunda axborot tayyorlash va uni uzatish borasida kuchli raqobatga ega bo'lgan axborot bozorlari borgan sari kuchayib borayotganiga ishonch hosil qilamiz. Bu esa milliy ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalarida ham ijobiy o'zgarishlarga olib kelganini ta'kidlab o'tish joiz. Keyingi yillarda jurnalistikani rivojlantirish borasida talay ishlar amalga oshirildiki, bulardan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyatda olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar mohiyatini fuqarolarga yetkazish, bu boradagi tanqidiy-tahliliy chiqishlarni ko'paytirish, jurnalistlarni faollashtirish va shu orqali erkin fikrlar minbarini vujudga keltirishdir.

